# URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

# MINTAQADA YASHIL IQTISODIYOTNI SHAKLLANTIRISHNING TASHKILIY IQTISODIY MEXANIZMLARI

17-18-may 2024-yil, Urganch

**KBK: 65.04+20.1ya1**

**M 52**

“Mintaqada yashil iqtisodiyotni shakllantirishning tashkiliy iqtisodiy mexanizmlari” mavzusida respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari [Matn] / Urganch Davlat Universiteti. 2024. – 248 b.

Respublika konferensiya materiallari tezislar to‘plamidan iborat bo‘lib, unda Mintaqa iqtisodiyotini shakllantirish va rivojlantirishning metodologik asoslari, Mintaqada yashil iqtisodiyotni shakllantirish omillari va mavjud shart-sharoitlari, Mintaqada yashil iqtisodiyotni rivojlantirishning xorijiy mamlakatlar tajribalari va innovatsion jihatlari, Mintaqa iqtisodiyotida yashil iqtisodiyot rivojlanishi holatining ekonometrik modellari, Yashil iqtisodiyotni rivojlantirishning strategiyalari va yo‘nalishlari ga oid materiallar kiritilgan.

To‘plam iqtisodiyot sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan, ilmiy tadqiqotlar olib borayotgan yosh olimlar, tayanch doktorantlar, mutaxassislar, mustaqil izlanuvchi va magistrlar uchun mo‘ljallangan.

**Mas’ul muharrirlar:** **i.f.d., prof. Abdullayev I.S.**
**i.f.d., dots. Islamutdinov V.F.**

**Tahrir hay’ati:** **i.f.d., prof. Ruzmetov B.R.,**
**i.f.d., dots. Matyakubov U.R.,**
**i.f.d., dots. Xudayberganov D.T.,**
**dots. Ollanazarov B.D.,**
**dots. Bekjanov D.Y.,**
**dots. Fayzullayev N.B.,**
**dots. Rahimov T.J.,**

**Taqrizchilar:** **i.f.d., prof. Doschanov T.D.,**
**i.f.d. dots. Xidirova G.R**

**ISBN: 978-9910-9170-1-1**

**"FLY POLYGRAPH" MChJ, 2024 y**
“MINTAQADA YASHIL IQTISODIYOTNI SHAKLLANTIRISHNING TASHKILIY IQTISODIY MEXANIZMLARI”

# 1-SEKSIYA. MINTAQA IQTISODIYOTINI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISHNING METODOLOGIK ASOSLARI

## O‘ZBEKISTON MINTAQALARINI IJTIMOIY-IQTISODIY RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI

**Qodirov A.M., i.f.d., professor, TDIU huzuridagi “O‘zbekistonni iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari” ilmiy-tadqiqot markazi, sektor mudiri.**

**Axmediyeva A.T., DSc, professor v.v.b. TDDU Makroiqtisodiy siyosat va prognozlash kafedrasi.**

**Annotatsiya.** Maqolada mintaqalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi jarayonlari taxlil qilingan xamda xududlarni boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkoniyatlarini kengaytirish masalalari ko‘rilgan.

**Аннотация.** В статье проанализированы процессы трансформации государственного регулирование социально-экономического развития регионов, а также рассмотрены вопросы расширение полномочий территорий при принятии управленческих решений.

**Abstract.** In the article, the main stages and trends of the development of foreign economic activities of the Republic of Uzbekistan in the context of globalization were analyzed, as well as the issues of expanding export opportunities.

**Kalit so‘zlar.** Mintaqa, ijtimoiy, iqtisodiy, rivojlanish, davlat, tartibga solish

**Ключевые слова.** Регион, социальный, экономический, развития, госдарство, регулирование.

**Key words.** Globalization, international trade, foreign economic relations, competitiveness.

Globallashuv jarayonlari bilan bog‘liq yangi iqtisodiy sharoitlar, iqtisodiy va ijtimoiy hayotning baynalmilallashuvi, boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish va qabul qilishda, tovar va resurs bozorlarida raqobatni kuchaytirishda tobora muhim rol o‘ynaydigan geosiyosatning ta’siri mamlakat milliy iqtisodiyotining umumiy tizimida O‘zbekiston hududlarining o‘rnini aniqlash muammosini yanada kuchaytirdi. Bugungi kunda bozordagi bo‘shliqlarni aniqlash, hududiy iqtisodiyotni ixtisoslashtirish va diversifikatsiya qilishning eng istiqbolli yo‘nalishlarini aniqlash hududlar oldidagi ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, bunday vazifalar hududlar ijtimoiy-iqtisodiy tizimini rivojlantirishning umumiy vektorini belgilab beruvchi dastur va strategik hujjatlarga uyg‘un holda amalga oshirilishi kerakligini unutmaslik lozim.

Mintaqalar rivojlanishining hududiy jihatlari ularning tabiiy-geografik va ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarining xilma-xilligi va qarama-qarshiligi bilan alohida ahamiyatga ega. Buni hisobga olish amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning muvaffaqiyatini, ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanish sur’atlari va nisbatlarini, mamlakatdagi tarkibiy o‘zgarishlarni belgilaydi.

Hududiy miqyosda iqtisodiy rivojlanishni boshqarishning muhimligi bozor iqtisodiyotining mavjud kamchiliklari, birinchi navbatda, uning iqtisodiy foyda olishga yo‘naltirilganligi va ijtimoiy adolat muammolariga e’tibor bermasligi bilan bog‘liq. Shu bilan birga, iqtisodiy rivojlanishni hududiy darajada boshqarishning maqsadga muvofiqligi mavjud iqtisodiy tizimning o‘ziga xos xususiyatlari, ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi va hududiy taqsimoti jarayonida o‘ziga xos xususiyatlarning mavjudligi, geografik va demografik xususiyatlar bilan asoslanadi.

Globallashuv jarayonlari va ijtimoiy-iqtisodiy tizim rivojlanishidagi noaniqliklarning kuchayishi natijasida hududiy iqtisodiyotni tartibga solishsamarali tashkil etish muammosining dolzarbligi yanada oshib bormoqda. Oldindan aytib bo‘lmaydigan, noaniqlik va xavfning yuqori darajasi sharoitida iqtisodiy o‘sishning barqarorligini ta’minlash masalasi davlat va hududiy darajada katta ahamiyatga ega.

Bugungi kunda davlat barqaror iqtisodiy o‘sish uchun motivatsiya shakllantirishi yetarli darajada emas deyishimiz mumkin. Sababi soliq yukining va inflyatsiya darajasini nisbatan kattaligi, kredit olish qiyinligicha qolmoqda va bu ishlab chiqarish o‘sishiga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatadi. Ishlab chiqarishning o‘sishiga to‘sqinlik qiluvchi omillar qatorida aholi o‘rtasida mahalliy korxonalar mahsulotlariga talabning yetarli emasligi, moliyaviy resurslarning yetishmasligi, turmush darajasi yetarli darajada emasligi tufayli yuzaga kelgan iqtisodiy vaziyatning noaniqligini ham ko‘rsatish mumkin.

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalar berildi:

- hududning barqaror rivojlanishini ta'minlaydigan samarali mintaqaviy ijtimoiy-iqtisodiy siyosat, birinchi navbatda, tabiiy resurslar, ishlab chiqarish, inson, moliyaviy salohiyat tufayli mintaqa iqtisodiyotining imkoniyatlariga asoslanadi. O'zbekiston Respublikasi hududlarining iqtisodiy salohiyati tahlili shuni ko'rsatdiki, hududni barqaror rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlar mavjud;

- mintaqaviy ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarning faoliyati samaradorligi va rivojlanish barqarorligini oshirish mintaqani boshqarishning institutsional tuzilishini tizimli ravishda o'zgartirishni, shu jumladan mintaqaning barqaror rivojlanishini boshqarish mexanizmlari kompleksini takomillashtirishni ta'minlaydi;

- so‘nggi paytlarda mintaqaviy tahlilda tizimli yondashuvdan foydalanish kuchaydi, bu hududlarni tizim sifatida o‘rganishda, birinchi navbatda, ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik-iqtisodiy jihatdan ifodalanadi. Bizning fikrimizcha, mintaqalarning hududiy ishlab chiqarish tizimlari g‘oyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, pirovard natijada iqtisodiy o‘sish mezoni ishlab chiqarishni rivojlantirishdir. Binobarin, hududlarni modernizatsiya qilish transformatsiyalari aynan ularning hududiy ishlab chiqarish tizimlarini yangilash sifatida qaralishi kerak;

- mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish strategiyasi - bu resurs imkoniyatlarini, mavjud ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatni va mintaqaga nisbatan tashqi

sharoitlarni rivojlantirishning mumkin boʻlgan ssenariylarini tahlil qilishdan kelib chiqadigan umumiy maqsadlar, vazifalar, mintaqani rivojlantirish yoʻnalishlari, ularni amalga oshirish mexanizmlarini belgilaydigan hujjat;

- hududlar rivojlanishini davlat tomonidan tartibga solish boʻyicha xorijiy mamlakatlar tajribasini oʻrganish natijalari hududiy siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirishga mas’ul davlat organ mavjudligi va u ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni tartibga solishda faol ishtirok etadi hamda mahalliy organlarning mustaqilligi, tashabbuskorligi va manfaatdorligi ta’minlanshda amaliy yordam koʻrsatadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “Uzbekiston - 2030” 11 sentyabr, 2023-y., 158-sonli Farmoni.

2. Аюпов А.Н. Региональная экономика / А.Н. Аюпов. - Бишкек: Изд-во КРСУ, 2015. – 120 с.

3. Бородин, А.И. Региональные экономические системы и их устойчивость / А.И. Бородин, Н.Н. Киселева // Вестник Удмуртского ун-та. – 2019. - вып.4. - 4 с.

4. Гранберг, А.Г. Основы региональной экономики: учебник для вузов / А.Г. Гранберг; Гос. ун-т Высшая школа экономики. 4-е изд. - М.: Изд. дом ГУ ВШЭ, 2001. – 495 с.

5. Дохолян С.В. Особенности структурных преобразований в трансформационной экономике. / https://cyberleninka.ru/article/n/osobennosti-strukturnyh-preobrazovaniy-v-transformatsionnoy-ekonomike

# MEDIATASHKILOTLAR BIZNES QIYMATINI BAHOLASHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

**D.Xudayberganov, Urganch davlat universiteti Iqtisodiyot kafedrasi professori v.b., DSc**

**S.Ishchanova, Urganch davlat universiteti Menejment va marketing kafedrasi o‘qituvchisi**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada mediatashkilotlar biznes qiymatini baholashning zarurligi, ahamiyati va o‘ziga xos xususiyatlari yoritilgan.

**Аннотация.** В данной статье описаны необходимость, важность и особенности оценки бизнес-ценности организаций СМИ.

**Abstract.** This article describes the necessity, importance and specific features of evaluating the business value of media organizations.

**Kalit so‘zlar.** Mediatashkilot, biznes, baholash, qiymat, biznes qiymati.

**Ключевые слова.** Медиа-организация, бизнес, оценка, стоимость, ценность бизнеса.

**Key words.** Media organization, business, valuation, value, business value.

Bugungi kunda zamonaviy tashkilot, jumladan mediatashkilotlar faoliyatini boshqarishda uning biznes qiymatini baholash usullarini qo‘llash talab etiladi. Buning uchun mediatashkilotlar iqtisodiy va boshqaruv samaradorligi qiymatini aniqlash lozim. Ushbu tashkilotlarning biznes qiymati mediabiznes faoliyati shaklida amalga oshiriladi. Mediabiznes marketing qoidalariga muvofiq har qanday mahsulot sifatida yaratilishi bilan boshlanadi [1]. Bu aslida axborot xabari yoki hisoboti bo‘lishi shart emas, ya’ni ekspert xulosasi yoki tahliliy sharh bo‘lishi mumkin. Mediatashkilotlar biznes qiymatlarini aniqlashda ko‘pincha ijtimoiy faoliyatni amalga oshiradilar va o‘z samaradorligini oshirishga intiladilar. Ijtimoiy mediada marketing va reklama faoliyati samaradorligi internet orqali amalga oshiriladi [3]. Shunga asosan, ushbu tashkilot biznes qiymati samaradorligi - ushbu

ta’sirga erishish uchun sarflangan resurslar miqdoriga nisbati bo‘lib, unda samaradorlik nisbiy qiymat va jarayonlar uchun har xil bo‘lishi mumkin.

Mediatashkilotlar faoliyatida savdo narxini belgilash uchun biznes qiymatini aniqlash zarur bo‘lib, bunda o‘rtacha baholash usullardan foydalanish joiz bo‘ladi. Uni shakllantirishda biznes qiymatini baholash usulini tanlash murakkab jarayon bo‘lib, bu tashkilot strategiyasi va boshqaruv qarorlarini qabul qilishga bevosita bog‘liq bo‘ladi. Shularga asosan, ular faoliyatini standart baholashda xarajat, daromad va qiyosiy yondashuvlardan foydalaniladi. Xarajat yondashuvi turli eskirishni hisobga olgan holda obyektni qayta ishlab chiqarish yoki almashtirish uchun xarajatlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarga asoslanadi va korxona qiymatini baholaydi. Daromad yondashuvi baholash obyektidan foydalanishdan kutilayotgan daromadlar prognozi asosida korxona qiymatini aks ettiradi. Qiyosiy yondashuv esa ushbu tashkilotlar bilan oldi-sotdi operatsiyalarini tahlil qilish asosida biznes qiymatini o‘z ichiga oladi [2].

Umuman olganda, biznes qiymatini baholash bo‘yicha yondashuvlarni qiyosiy tavsiflaridan kelib chiqib, mediatashkilotlar faoliyatini baholash tavsiflari quyidagi jadvalga asoslanadi (1-jadval).

**1-jadval. Mediatashkilotlar biznes qiymatini baholash yondashuvlarini qiyosiy tavsiflari**

| Yondashuvlar nomi | Kamchiliklar | Afzalliklar |
|---|---|---|
| Qimmatlilik | Baholash natijasi o‘tgan qiymatni aks ettiradi va bu mediatashkilotlar faoliyatini rivojlanish istiqbollarini hisobga olmaydi | Ishlab chiqarishning moddiy va kapital zichligi tufayli mediatashkilotlar faoliyatini baholashda qo‘llaniladi |
| Foydalilik | Baholash natijasi mediabiznes bozori sharoitlarini aks ettirmaydi | Eng obyektiv natijaga erishish mumkin bo‘lib, undagi ushbu yondashuv mediatashkilotlarni |

| | | |
|---|---|---|
| | va bunday sharoitda mediatashkilotlar qiymatini to‘g‘ri hisoblash uchun daromad darajasini aniqlash murakkab bo‘lib hisoblanadi | kelajakdagi pul oqimlarini yaratish qobiliyatini aks ettiradi hamda iqtisodiy faoliyat turi darajasidagi risklarni hisobga oladi |
| Qiyosiylik | Mediatashkilotlar qiymatini baholash yondashuvlarini amalga oshirish tahlil qilingan ma’lumotlarga tuzatishlar kiritishni talab qiladi hamda unda mediabiznesning texnik, moliyaviy, tashkiliy tayyorgarligi xususiyatlari hisobga olinadi | Mediatashkilotlar qiymatini baholashda ushbu turdagi iqtisodiy faoliyat yoki mediabiznes tashkilotlarining biznes qiymatiga ta’sir qiluvchi barcha omillar hisobga olinadi |

Ushbu jadvalga asosan, qimmatlilik, foydalilik va qiyosiylik yondashuvlari asosida mediatashkilotlar biznes qiymatini optimal baholashga erishish mumkin. Biroq, mediatashkilotlar biznes qiymatini aniqlash yondashuvi o‘zining afzalliklari va kamchiliklariga ega bo‘ladi. Shu bois, ushbu baholash sohasidagi mutaxassislar biznesning obyektiv qiymatini aniqlay olishlari uchun turli yondashuvlar unsurlarini birlashtirishlari lozim. Mazkur jarayon mediatashkilotlar qiymatini baholash bilan bog‘liq holda quyidagi usullarda amalga oshirishni o‘z ichiga oladi:

a) xarajat yondashuvi: sof aktivlar qiymati va tugatish qiymati usuli;

b) daromad yondashuvi: daromadlarni kapitallashtirish va diskontlangan pul oqimlari usuli;

c) qiyosiy yondashuv: tengdosh kompaniya, tranzaksiya usuli va sanoat koeffitsientlari usuli.

Xulosa shuki, mediatashkilot faoliyatini samarali boshqarish uchun uning biznes qiymatini baholash lozim bo‘ladi. Ya’ni, biznes qiymatini aniqlash ushbu tashkilotlarning oldi-sotdi bitimlarini tuzish yoki biznesga investitsiyalar va boshqa munosabatlarni amalga oshirish uchun zarur bo‘ladi. Unga asosan, mediatashkilot qiymati butun tizim sifatida boshqarish samaradorligini baholash asosi bo‘lib ham hisoblanadi. Ayniqsa, mediatashkilotlar qiymatini baholashda biznesni boshqarish konsepsiyasiga alohida e’tibor qaratish lozim. Ushbu yondashuvda boshqaruv qarorlarini qabul qilishning asosiy mezonlari sifatida bozor qiymati, biznesning qo‘shilgan qiymati, pul oqimlari, risklar va kapital narxi kabi ko‘rsatkichlar qo‘llanilib, ular uchun biznesning aniq belgilangan qiymati shaklida mediatashkilotlar faoliyatini baholashning eng obyektiv o‘lchovi bo‘lib xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Ершов Ю.М. Медиарынок и бизнес. Учебно-методический комплекс. – М., 2011. - с. 11.

2. Экономика и управление недвижимостью: учебник. / под общ. ред. П.Г.Грабового. 3-е изд., перераб. и доп. - М.: Проспект, 2013. - 848 с.

3. https://studfile.net/preview/9464126/page:5/

## МИНТАҚАЛАРДА ИҚТИСОДИЙ ҲАВФСИЗЛИКНИ ТАЪМИНЛАШНИНГ ИЖТИМОИЙ-ДЕМОГРАФИК ОМИЛЛАРИ

**Садуллаев А., Урганч Давлат Университети “Иқтисодиёт” кафедраси доценти, и.ф.н.**

**Аннотация.** Мақолада Ўзбекистон минтақаларида иқтисодий ҳавфсизликни таъминлашнинг ижтимоий-демографик омиллари, иқтисодий ҳавфсизликка таҳдидлар, аҳоли такрор барпо бўлишидаги муаммолар, давлат томонидан ушбу муаммоларни ҳал қилишда амалга оширилаётган чора-тадбирлар таҳлил қилиниб, унинг келажак истиқболлари ёритиб берилган.

**Аннотация.** В статье рассматривается социально-демографические факторы обеспечения экономической безопасности в регионах Узбекистана, угрозы экономической безопасности, проблемы в вопросах воспроизводста населения, анализируется государственные меры в решении данных проблем и будущее в опеспечении демографической безопасности.

**Abstract.** The article examines the socio-demographic factors of ensuring economic security in the regions of Uzbekistan, threats to economic security, problems in matters of population reproduction, analyzes government measures in solving these problems and the future in ensuring demographic security

**Калит сўзлар.** Демографик ҳавфсизлик, туғилиш коэффициети, ўлим коэффициети, чақалоқлар ўлими, аҳолининг кексайиши, демографик хулқ-атворни бошқариш, демографик дивиденд.

**Ключевые слова.** Демографическая безопасность,коэффициент рождаемости, коэффициент смертности, младенческая смертность, старение населения, демографическое поведение, демографический дивиденд.

**Key words.** Demographic security, birth rate, mortality rate, infant mortality, population aging, demographic behavior, demographic dividend.

Мамлакатимизда ички иқтисодий барқарорликка эришиш ва халқаро даражадаги мавқеларни мустаҳкамлаш, миллий ресурсларнинг ҳаракатланиши ва улардан фойдаланиш устидан давлат томонидан назорат қилиш, озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлаш, ресурс базасининг етарли даражаси ва манбаларини диверсификация қилиш, аҳолининг барқарор бандлигини таъминлаш ва ижтимоий таъминотдан фойдаланиш имкониятини ошириш, инсон капиталини юқори даражада ривожлантириш масалаларига алоҳида эътибор қаратилмоқда.

Демографик жараёнлардаги иқтисодий хавфсизликка таҳдидлар 6 та гуруҳга ажратилади:

1. Аҳоли сонининг ўзгариши билан боғлиқ таҳдидлар;

2. Аҳолининг жойлашиши билан боғлиқ таҳдидлар;

3. Аҳоли таркиби билан боғлиқ таҳдидлар;

4. Аҳолининг табиий ҳаракати билан боғлиқ таҳдидлар;

5. Аҳолининг миграцион ҳаракати билан боғлиқ таҳдидлар;

6. Аҳолининг такрор барпо бўлиши билан боғлиқ таҳдидлар.

Ўзбекистон Республикасининг демографик ривожланишини таҳлил қилиш асосида қуйидаги тенденциялар иқтисодий хавфсизликка таҳдид солиши аниқланган [1]:

1. Туғилиш даражасининг ўсиши ҳисобидан доимий аҳоли сонининг юқори суръатда кўпайиши. БМТ тавсияси бўйича, мамлакатда аҳолининг нормал такрор барпо бўлиши учун ҳар 1000 кишига нисбатан туғилганлар сони 20,0 нафар, аҳолининг ўртача йиллик ўсиш суръати 1,3 фоиз бўлиши чегаравий қиймат ҳисобланади. Ўзбекистонда 2023 йилда туғилишнинг умумий коэффициенти 26,4 нафарни ташкил этиб, чегаравий қийматдан 6,4 промиллега ортиқ (Хоразм вилоятида мос равишда 24,4 ва 4,4) [2].

Республикада туғилиш даражасининг юқорилиги қулай демографик имкониятларни очиши билан бирга иқтисодий хавфсизликка қуйидаги таҳдидлар кучаяди: фарзандли оилаларни қўллаб-қувватлаш ва соғлиқни сақлаш соҳаларига давлат буджетидан харажатларни ошириш; меҳнат бозорига ишчи кучининг катта оқими келиши ҳисобидан ишчи кучи таклифининг унга бўлган талаб миқдоридан ошиб кетиши; аёлларнинг туғруқ таътилига чиқишлари муносабати билан иқтисодий нофаол аҳоли сонининг ошиши; мактабгача таълим муассасаларига тушадиган юкнинг ортиши; болалар ва ўсмирлар сонининг кўпайиши ҳисобидан меҳнатга лаёқатли аҳолига боқимандалик юкининг ортиши; никоҳлар ва айниқса, ёш оилалар сонининг сезиларли ортиб бораётгани.

2. Барча ёш гуруҳларида аҳолининг касалланиши ва ўлим, айниқса чақалоқлар, оналар ва меҳнатга лаёқатли ёшдаги аҳоли ўлим даражасининг юқорилиги. Халқаро мезонлар бўйича муайян бир ҳудудда чақалоқлар ўлими коеффитсиенти 5 промилле ва ундан ортиқни ташкил этса миллий

хавфсизликка таҳдид ҳисобланади. Миллий статистика бўйича чақалоқлар ўлим даражаси бўйича хавф мавжуд (8,7‰ ва 8,4‰).

3. Аҳолининг “қуйидан” кексайиши жараёнининг ривожланиши. Бугунги кунда иккинчи жаҳон урушидан кейинги “демографик тўлдириш” даврида туғилган аҳолининг кексалар сафига ўтиши ҳисобидан аҳолининг ёш таркибида меҳнатга қобилиятли ёшдан катталар сони юқори суръатда ўсмоқда. Хусусан, 2020-йилда ўтган йилга нисбатан меҳнатга лаёқатли ёшдаги аҳоли сони – 0,7, болалар ва ўсмирлар сони – 3,6, қариялар сони эса 4,0 фоизга кўпайган.

БМТ демографлари томонидан аҳолининг кексайиш даражасини баҳолаш мақсадида уч босқичли шкала ишлаб чиқилган. Унга кўра, аҳолининг ёш таркибида 65 ва ундан юқори ёшдагиларнинг улуши 4,0 фоиздан кам бўлса – демографик ёш, 4,0-7,0 фоиз бўлса – кексайиш бўсағасида, 7,0 фоиздан ошса ҳудуд аҳолиси демографик кекса ҳисобланади.

Давлат статистика қўмитаси маълумотларига кўра, 2023-йил республика аҳолиси таркибида 65 ва ундан юқори ёшдагилар улуши 5,3 фоизни ташкил этди. Демак, Ўзбекистон Республикаси халқаро мезонлар бўйича демографик кексайиш бўсағасидаги мамлакатлар қаторига киради.

Ўзбекистон Республикаси ҳудудларини демографик хавфлилик даражаси бўйича учта зонага ажратиш мумкин:

1. Юқори хавф зонасидаги ҳудудлар – Сурхондарё ва Қашқадарё вилоятлари.

2. Ўртача хавф зонасидаги ҳудудлар – Қорақалпоғистон Республикаси, Андижон, Бухоро, Жиззах, Навоий, Наманган, Самарқанд, Сирдарё, Фарғона ва Хоразм вилоятлари.

3. Барқарорлик зонасидаги ҳудудлар – Тошкент шаҳри ва Тошкент вилояти.

Юқори ва ўртача хавф зонасидаги ҳудудларда бундай вазиятнинг юзага келиши минтақаларни ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришда демографик омилни ҳисобга олмаслик оқибатидир.

Ўзбекистон Республикасининг демография соҳасидаги манфаатлари қуйидаги йўналишларда намоён бўлади:

- репродуктив хулқ-атворни бошқаришни фаоллаштириш ва туғилиш даражасини мақбуллаштириш;

- чақалоқлар ва оналар ўлимини, шунингдек, меҳнатга лаёқатли ёшдаги аҳоли ўлимини камайтириш, аҳоли соғлиғининг муҳофаза қилиниши яхшилаш ва умр кўриш давомийлигини узайтириш;

- оила институтини қўллаб-қувватлаш ва мустаҳкамлаш, унинг ҳаёти ва фаолиятини яхшилаш, оилавий муносабатларнинг миллий маънавий-ахлоқий анъаналарини сақлаб қолиш;

Юқоридагиларни умумлаштирган ҳолда Ўзбекистоннинг демография соҳасидаги миллий манфаатини қуйидагича қайд этиш мумкин: туғилиш даражасини мақбуллаштириш, ўлим сонини камайтириш, оилани мустаҳкамлаш, ҳозирги босқичда ва истиқболда республиканинг иқтисодий ва ижтимоий ривожланиш стратегиясига мос келадиган ички ва ташқи меҳнат миграциясини тартибга солиш йўли билан аҳоли такрор барпо бўлишини оптималлаштириш.

Бугунги кунда Ўзбекистон муҳим демографик чегарада турибди. Ўртача демографик босимда меҳнат ресурсларининг ўсиши иқтисодий ўсиш учун қулай шароитлар – демографик дивиденд яратади. У аҳоли даромадларининг ўсишига ва камбағалликни қисқартиришга ижобий таъсир кўрсатади. Бунинг натижасида мамлакат миллий даромадининг катта қисми истеъмол, ишлаб чиқариш ва инвестицияларга йўналтирилиши мумкин, бу эса, ўз навбатида, ривожланишга туртки беради.

Демографик сиёсатни амалга оширишга қаратилган ҳукуматнинг тўғри макроиқтисодий сиёсати мавжуд бўлмаса, меҳнатга лаёқатли аҳолининг ўсиши ишсизлик, сиёсий беқарорлик, коррупция ва жиноятчиликнинг ортиши ҳамда ижтимоий капиталнинг пасайишига олиб келиши мумкин. Шунинг учун мамлакатда сиёсий, ижтимоий ва иқтисодий сиёсатни оқилона амалга оширилиши демографик дивидендни қўлга киритишни таъминлайди.

Бу эса ривожланиш учун етарли демографик афзалликларга эга бўлган иқтисодиётларнинг нафақат туғилиш ва ўлим даражасининг камайиши даврига кириб боришини, балки оилани режалаштириш, репродуктив саломатлик, сифатли таълим, аёллар ва вояга етмаган қизларга инвестицияни кўпроқ йўналтириш ҳамда янги иш ўринларини яратишни мақсад қилувчи сиёсат ва дастурларни самарали амалга оширишлари лозимлигини ҳам англатади.

**Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1. Абдураманов Х.Х. Ўзбекистон Республикаси иқтисодий хавфсизлигини таъминлашда демографик жараёнларни тартибга солишнинг илмий-услубий асосларини такомиллаштириш. Иқтисодиёт фанлари доктори диссертацияси автореферати. Тошкент 2021. 21 б.

2. Ўзбекистон Республикаси давлат статистика қўмитаси маълумотлари.

# KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI BOSHQARISH XUSUSIYATLARI

**Tadjiev B.U. Urganch Davlat universiteti “Iqtisodiyot” kafedrasi dotsenti, Ph.D**

**Rustamov S.B.Urganch Davlat universiteti “Turizm” kafedrasi stajor o’qituvchisi**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada kichik biznes subyektlarini mahalliy darajada boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari hamda ushbu mexanizmlar bo’yicha xorijlik va mahalliy olimlarning fikrlari bayon etilgan.

**Аннотация**. В данной статье описаны организационно-экономические механизмы управления субъектами малого предпринимательства на местном уровне, а также мнения зарубежных и отечественных ученых об этих механизмах.

**Abstract.** This article describes the organizational and economic mechanisms of managing small business entities at the local level, as well as the opinions of foreign and local scientists on these mechanisms.

**Kalit so'zlar.** Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik (КБХТ), ijtimoiy zo'riqish, mexanizm, iqtisodiy mexanizm, soliq, boshqaruv, rivojlanish strategiyasi.

**Ключевые слова.** Малый бизнес и частное предпринимательство (МБЧП), социальная напряженность, механизм, экономический механизм, налог, менеджмент, стратегия развития.

**Key words.** Small business and private entrepreneurship (SBPE), social tension, mechanism, economic mechanism, tax, management, development strategy.

Kichik biznesni mahalliy darajada boshqarishning ilmiy-uslubiy asoslarini tadqiq etish oʻz navbatida mazkur jarayonning iqtisodiy mexanizmini koʻrib chiqishni taqozo etadi. "Tadbirkorlik faoliyati iqtisodiy holatni barqarorlashtirib, ijtimoiy zoʻriqishni pasaytirib, byudjetning soliq daromadlarini oshirar ekan, kichik biznesning rivojlanganlik darajasi ahamiyatli ravishda munitsipal tuzilmalardagi iqtisodiy va sotsial holatni belgilab beradi. Kichik biznes savdo, xizmat koʻrsatish sohalari, mayda seriyali sanoat ishlab chiqarishida muhim rol oʻynab, aholi ahamiyatli qismining bandligini ta'minlaydi"[1].

Har bir iqtisodiy faoliyat muayyan darajada iqtisodiy mexanizmga bogʻlangan boʻladi. Iqtisodiy mexanizmning mazmunini ochib berish avvalo "mexanizm" tushunchasining mohiyatini bayon etishdan boshlanadi.

Iqtisodiy adabiyotlarda mexanizm tushunchasi koʻplab olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Jumladan, D.M.Juravlev "Tizimning koʻplab elementlari oʻrtasidagi oʻzaro ta'sir jarayonlarining ifodasi sifatidagi "mexanizm" tushunchasi oʻz vaqtida texnika fanlaridan olingan boʻlib, mexanizm tushunchasi ostida mashina, apparat yoki asbobni harakatga keltiruvchi, ta'sirni uzatuvchi va energiyani oʻzgartiruvchi ichki tuzilmasi nazarda tutiladi. Umumiy holatda mexanizm kirish (energiya) va

chiqish (talab etilayotgan natija), o‘zaro ta’sir qiluvchi (yuklama) va boshqa elementlar (ish)ni harakatga keltiruvchi (energiyani uzatish)ning oldindan belgilangan parametrlariga ega bo‘lgan, muayyan tarzda o‘zaro bog‘langan alohida elementlarini namoyon etadi.

Texnik tizimlarga taqqoslaganda, ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarga nisbatan «mexanizm» atamasi jo‘shqinlik, o‘zgaruvchanlik, tarkibiy elementlarning bir turda bo‘lmasligi, dastlabki holatga qaytish imkonining mavjud emasligi va boshqa funksional tavsiflar bilan bog‘liq bo‘lgan qator xususiyatlarga ega”[2], deb ta’kidlaydi.

Bundan ko‘rinadiki, mexanizm – bu muayyan ichki tartibga ega bo‘lgan, hodisa yoki jarayonlarga kuch (ta’sir) beruvchi ichki elementlarning o‘zaro bog‘liqlik va ta’sirdagi harakatidir. Mexanizm tushunchasiga berilgan ta’riflar va izohlar pirovardida o‘zining mazmunan yaqinligi va shaklan o‘xshashligi bilan ajralib turadi. Bu boradagi qarashlar va ular asosidagi mulohazalarni quyidagi xulosa orqali ifodalash mumkin: “Biz “mexanizm” atamasining har qanday turlicha ta’riflari, manbalaridan foydalanishimizdan qat’iy nazar, u umumiy asosga ega: mexanizm – bu obyektni harakatga keltiruvchi ko‘plab o‘zaro bog‘liq elementlardir. Bu o‘rinda ikkita yondashuv ajralib turadi: mexanizm obyektning rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi elementlar majmui sifatida hamda obyektning rivojlanishini ta’minlovchi elementlarning o‘zaro aloqasi va o‘zaro ta’siri sifatida qaralishi mumkin”[3].

Lekin shuni e’tiborda tutish lozimki, mazkur tadqiqot doirasida bizni ko‘proq iqtisodiy mexanizm qiziqtiradi. A.N.Bichkova iqtisodiy mexanizmni quyidagicha ta’riflaydi: “Iqtisodiy mexanizm – bu maqsadli funksiyasi iqtisodiyotning rivojlanishida ratsional xo‘jalik yuritish va barqaror qonuniyatlarni shakllantirishdan iborat bo‘lgan subyektlarning o‘zaro ta’siri va boshqarish usullarining majmui”[3].

A.N.Bichkova[3] iqtisodiy mexanizm tushunchasini aniqlashga quyidagi uchta yondashuvni ajratib ko‘rsatadi:

1) ta’sir ko‘rsatish dastagi sifatidagi yondashuv; 2) subyektlarning o‘zaro ta’siri dastagi sifatidagi yondashuv; 3) o‘zaro bog‘liq iqtisodiy hodisalarning obyektiv tavsifdagi muayyan izchilligi sifatidagi yondashuv.

Fikrimizcha, kichik biznesni mahalliy darajada boshqarish iqtisodiy mexanizmi o‘z mazmun-mohiyatiga ko‘ra birinchi, ya’ni “ta’sir ko‘rsatish dastagi sifatidagi yondashuv”ga ko‘proq muvofiq keladi (1-jadval).

**1-jadval**

**Boshqaruv obyektiga ta’sir ko‘rsatish dastagi sifatidagi yondashuvni namoyon etuvchi iqtisodiy mexanizmning tarkibiy elementlari[3]**

| Tarkibiy element nomi | Qisqacha mazmuni |
|---|---|
| Mexanizm obyekti | Boshqaruv markazi tomonidan belgilangan yo‘nalish bo‘yicha amalga oshirilgan ta’sir ostida o‘zgaradigan boshqariluvchi element |
| Mexanizm markazi | Ta’sir ko‘rsatishni amalga oshiruvchi boshqaruvchi element |
| Mexanizm subyektlari | «Mexanizm» ishida ishtirok etuvchi predmet va amaliy jihatdan faoliyat tashuvchilari (individ yoki individlar guruhi) |
| Mexanizmning ishlash algoritmi | Boshqaruvchi ta’sir funksiyalari hamda boshqaruv maqsadlariga erishish usul va vositalarining majmui |
| | Obyektning rivojlanish bosqichini tavsiflovchi rejalashtirilgan natijalarning parametrlari bo‘yicha bayoni |
| | Mexanizmning “ishlashiga” ko‘maklashuvchi yoki to‘sqinlik qiluvchi shartlar yoki mexanizm “ishi”ning algoritmini o‘zgartirishga qodir bo‘lgan omillar |
| | Maqsadli samaradorlikka erishish imkonini beruvchi tahlilda qo‘llaniluvchi istisnolar yoki mexanizmni qo‘llashdagi cheklovlar |

Ta’rifdan ko‘rinadiki, iqtisodiy mexanizm tushunchasi ham umumiy tavsif kasb etadi. Mazkur tadqiqotimiz maqsadi iqtisodiy mexanizmning o‘zini emas, balki uni o‘ziga xos maxsus ko‘rinishi bo‘lgan boshqaruv mexanizmining mazmun-mohiyatini tadqiq etishni taqozo etadi. Zero, jahon iqtisodiyotida ham boshqaruv mexanizmini tadqiq etish bir qator asosiy yo‘nalishlar bo‘yicha amalga

oshirilmoqda. Bu borada D.M.Jo'raxonov quyidagilarni ta'kidlaydi: "Jahon amaliyotida biznesni boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari bo'lib, boshqaruvning kompleks mexanizmini shakllantirish, davlat va xo'jalik yuritish subyektlari o'rtasidagi munosabatlarni samarali tashkil etishning konseptual asoslarini yaratish, tashkiliy-iqtisodiy tizimni takomillashtirish hisoblanadi"[4].

Maqolada boshqaruv mexanizmining mazmun-mohiyati, ichki qonuniyatlari va amalga oshishining obyektiv asoslari to'g'risida fikr yuritilib, pirovardida mazkur tushuncha to'g'risida quyidagi xulosalarni ilgari surildi: "Shunday qilib, boshqarish mexanizmi – boshqaruv tizimi faoliyatini tashkil etish va tizim maqsadlariga yo'naltirish, tashkiliy-iqtisodiy tizim amal qilishini ta'minlovchi o'zaro aloqalar, shakl va vositalarni uyg'unlashtirish usuli. U boshqaruv obyekti va subyekti o'rtasidagi munosabatlarni muvofiqlashtiradi. Boshqaruv mexanizmi obyektlar faoliyatiga ta'sir ko'rsatadigan tarzda shakllangan bo'ladi"[4].

Har qanday boshqaruv tizimi muayyan mexanizmlar ta'siri ostida ishlaydi. Iqtisodiy lug'atlarda mexanizm tushunchasi harakat, voqelik, shuningdek, harakatlar tizimidagi izchillikni o'z o'zicha belgilovchi holat va jarayonlar ketma-ketligi sifatida qaraladi.

Mexanizm o'z ichiga iqtisodiy hodisalarning muayyan izchilligini oladi: uni tarkib toptiruvchi elementlar sifatida ham kiruvchi, ham chiquvchi hodisalar, shuningdek, ular o'rtasida ro'y beruvchi jarayonlarni oladi.

Mexanizm – bu iqtisodiy hodisalar natijasida vujudga keluvchi zarur o'zaro ta'sir va kommunikatsiyani ta'minlovchi tabiiy tizim. Shuningdek, mexanizm tushunchasiga ikki xil yondashuv mavjud:

a) tashkiliy-tuzilmaviy; b) funksional-tuzilmaviy.

Tashkiliy-tuzilmaviy yondashuv mexanizmni muayyan aniq hodisa va jarayonlarga tashkiliy asosni yaratish uchun xizmat qiluvchi elementlar majmui sifatida belgilaydi. Boshqa tomondan, funksional-tuzilmaviy yondashuv nafaqat uni tuzilmasining tashkiliy asosiga, balki uning dinamikasi, real funksional faoliyatiga yo'naltirilgan bo'ladi"[5].

Ye.N.Sishikovaga ko‘ra, “Boshqaruvning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi harakatchan, tashqi muhit omillari ta’sirini sezuvchan, uning o‘zgarishlariga moslasha oluvchi, doimiy ravishda rivojlanib boruvchi, samarali ishlab chiqarishni yuritish talablariga javob bera oladigan bo‘la olishi lozim”[6].

Boshqaruvning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi tashkiliy, iqtisodiy, ayrim hollarda quyi darajadagi texnologik tizimning o‘zaro bir-birini taqozo etuvchi sifatida asoslangan o‘zaro bog‘liq elementlar majmuini namoyon etadi. Tizimning quyi qismidagi har bir bo‘g‘in yoki elementning natijasi nisbatan yuqori bo‘g‘inlar uchun boshlang‘ich nuqta yoki manba bo‘lib xizmat qiladi. Bundan ko‘rinadiki, tadbirkorlik faoliyatining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini 2 ta blokka ajratish mumkin:

- o‘z ichiga ma’muriy-huquqiy tartibga solish, tashkiliy tuzilma, boshqaruvning funksiya va usullari, mehnatni tashkil etish, axborot ta’minoti va boshqalarni oluvchi tashkiliy mexanizm;
- o‘z ichiga rejalashtirish va prognozlashtirish, narxning tashkil topishi, moliyalashtirish va kreditlash, sug‘urta, motivatsiya va boshqalarni oluvchi iqtisodiy mexanizm (2-rasm).



**2-rasm. Tadbirkorlik faoliyatini boshqarish tashkiliy-iqtisodiy mexanizmining asosiy elementlari[7].**

Bizning fikrimizcha, boshqaruv mexanizmi 5 ta asosiy elementdan iborat bo‘ladi:

a) boshqaruvning obyekti va subyekti; b) maqsad va funksiyalari; c) boshqaruv organlari va tashkiliy tuzilmasi; d) usullari va tamoyillari; e) dastaklari[5].

A.Ye.Kremin o‘z tadqiqotlarida munisipal darajada kichik biznesni amal qilishini boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini chizma ko‘rinishida bayon etadi (3-rasm).

Rasmdagi chizmadan ko‘rinadiki, muallif boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini quyidagi asosiy bloklarga ajratadi:

1) boshqaruv subyektlari; 2) boshqarishning maqsadi, vazifalari; 3) boshqarishning asosiy tamoyillari; 4) obyektni boshqarish ta’minoti; 5) boshqaruv ta’siri shakllari; 6) boshqaruv ta’siri usullari; 7) boshqaruv dastaklari; 8) boshqaruv obyekti.

Fikrimizcha, boshqaruv mexanizmining mazkur chizmasidan foydalangan holda kichik biznesni mahalliy darajada boshqarish iqtisodiy mexanizmining tarkibiy tuzilmasini tahlil qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bu o‘rinda ta’sir ko‘rsatish dastagi sifatidagi mexanizm kichik biznesni mahalliy darajada boshqarish jarayonlarini tavsiflab beradi.

Eng avvalo, shunisi e’tiborliki, mazkur chizmada **boshqaruv subyektlari** Rossiya Federatsiyasining boshqaruv tuzilmasi xususiyatidan kelib chiqqan holda quyidagi uchta darajaga ajratilgan:

a) federal darajadagi boshqaruv subyektlari; b) mintaqa darajasidagi boshqaruv subyektlari; c) munisipal darajadagi boshqaruv subyektlari.

«**Federal darajadagi davlat boshqaruvi** – bu federal mulk obyektlari, butun mamlakat miqyosi, doirasida ahamiyatga ega bo‘lgan iqtisodiy jarayonlar, federal bo‘ysunuvidagi davlat tashkilotlari, federal darajadagi boshqa obyektlarga tegishli bo‘lgan umumdavlat boshqaruvi. Bu ayni vaqtda federal darajadagi

idoralarning subfederal va munisipal darajalardagi idoralarga boshqaruv ta’sirini ham anglatadi[9]. O‘zbekiston unitar davlat hisoblanganligi uchun uning hududidagi boshqaruv mexanizmida federal darajadagi boshqaruv o‘rniga mamlakat (milliy) darajadagi boshqaruv subyektlari maydonga chiqadi.






**3-rasm. Munisipal darajada kichik biznesni amal qilishini boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi[8]**

Shuningdek, O‘zbekistonning hududi nisbatan ixcham, kichikligi sababli mintaqa darajasidagi boshqaruv subyektlari ham amaliy ahamiyatga ega emas. Bu o‘rinda hudud, ya’ni viloyatlar darajasidagi boshqaruv subyektlari ko‘proq amaliy tavsif kasb etadi. Ayni paytda, hudud darajasidagi boshqaruv subyektlari o‘z mohiyatiga ko‘ra mahalliy (munisipal) boshqaruv subyektlari tushunchasi bilan deyarli bir xil mazmun kasb etadi.

Shu o‘rinda, ta’kidlash lozimki, yuqoridagi guruhlashda xo‘jalik yuritish subyektlarining eng quyi bo‘g‘ini – korxona darajasidagi boshqaruv subyektlari nazardan chetda qolgan.

“**Korxonani boshqarish** – korxonaning tarkibiy bo‘linmalari faoliyatining o‘zaro muvofiq harakatini va rejalashtirilgan natijaga erishishni ta’minlash maqsadida ularga doimiy va tizimli ta’sir ko‘rsatish (qarorlarni tayyorlash, qabul qilish va amalga oshirish). Korxonani boshqarish tizimi tashkilotning o‘zi va uning

iste’molchilari uchun quyidagi elementlarni muvofiqlashtirish yo‘li orqali zarur natijalarni ta’minlovchi ichki va tashqi o‘zaro ta’sirning yaxlitligiga asoslanadi:

a) maqsadlar; b) resurslar; c) korxona faoliyatining tarkiy qismlari va ularning o‘zaro ta’siri tamoyillari; d) kompetensiyalari (shu jumladan, boshqa tashkilot va shaxslar bilan o‘zaro ta’siri); e) kompetensiya va boshqaruv chegaralari (tashkiliy, huquqiy, texnologik va boshqa cheklovlar. Kompetensiyalarning bir qismini korxonaning o‘zi, boshqa qismini tashqi muhit tomonidan o‘rnatiladi)[10].

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, kichik biznesni mahalliy darajada boshqarish iqtisodiy mexanizmining tarkibiy tuzilmasidagi boshqaruv subyektlarini milliy (mamlakat), mahalliy (viloyat, tuman), korxona darajasiga ajratish maqsadga muvofiq.

Mazkur maqsadga erishish uchun kichik biznesni mahalliy darajada boshqarish vazifalari yoki funksiyalari ham aniq belgilangan bo‘lishi lozim. Mixaylushkin P.V., Barannikov A.A.: “Boshqarishning bozorga asoslangan modelida o‘ziga xos rolni boshqaruv funksiyalari egallab, ular yordamida korxonalarni boshqarish jarayonlari amalga oshiriladi. Boshqarishning asosiy funksiyalari quyidagilardan iborat: iqtisodiy tahlil, prognozlashtirish, rejalashtirish, tashkil etish, rag‘batlantirish, axborot, korxona, firmadagi ishlab chiqarish va uning natijalarini hisobga olish va nazorat qilish. Boshqarishning zamonaviy modelinining samarali amal qilishida korxonani boshqarish funksiyalarini bajaruvchi xodimlar va xizmatlardan iborat boshqaruv apparatisiz mumkin emas”[9] - deb ta’kidlaydi.

Fikrimizcha, boshqarishning yuqorida ta’kidlab o‘tilgan funksiyalari bilan bir qatorda quyidagi vazifalarning ham amalga oshirilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi:

- hududdagi kichik biznesning iqtisodiy salohiyatini aniq baholash va undan to‘liq foydalanish imkoniyatlarini ishga solish;

- kichik biznes subyektlarining joriy xo‘jalik faoliyatini to‘g‘ri rejalashtirishini ta’minlash va rag‘batlantirish;

- kichik biznes subyektlarining yirik ishlab chiqarish bilan o‘zaro samarali hamkorligini ta’minlash orqali hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta’minlash;

- kichik biznes subyektlarining istiqboldagi rivojlanish startegiyalarini ishlab chiqish va h.k.

Hududlardagi kichik tadbirkorlik subyektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazgunga qadar bo‘lgan faoliyat ko‘rsatishga layoqatlilik darajasini o‘rganish asosida aniqlangan to‘sqinlik omillarini tavsiya etilgan namunaviy yo‘nalishlar bo‘yicha bartaraf etish choralarining amalga oshirilishi pirovardida kichik biznes subyektlari faoliyat barqarorligining ta’minlanishiga olib keladi.

Yuqorida **obyektni boshqarishni ta’minlash**ning tashkiliy, moliyaviy, huquqiy, uslubiy va axborotga oid shakllari ko‘rsatib o‘tilgan bo‘lsa-da, ularning mazmuni va ta’minlash vositalari aniq ifodalab berilmagan. Ushbu shakllar **boshqaruv ta’siri shakllari** bilan bog‘lanib, ular quyidagi 3 ta asosiy guruhga ajratilgan:

1) davlat hokimiyati va o‘zini o‘zi boshqarishning barcha darajalaridagi rivojlanish strategiyasi;

2) davlat hokimiyati va o‘zini o‘zi boshqarishning barcha darajalaridagi rivojlanish dasturlari va kichik dasturlari;

3) kichik biznesni rivojlanishini tartibga soluvchi boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlar.

Shuningdek, **boshqaruv ta’siri usullari** 2 ta asosiy guruhga, ya’ni boshqaruv ta’sirining bevosita usullari va boshqaruv ta’sirining bilvosita usullariga ajratilgan bo‘lsa-da, ular umumiy holda iqtisodiy, ta’lim, huquqiy, axborot, tashkiliy shakldagi usullarga bog‘lanadi. Bu o‘rinda mazkur usullarning qaysilari bevosita, qaysilari esa bilvosita tavsifga egaligi mavhum bo‘lib qolgan.

Boshqaruv ta’siri usullarining yuqorida qayd etib o‘tilgan beshta shakli o‘ziga xos **boshqaruv dastaklari**ni hosil qiladi. Jumladan:

- **iqtisodiy**: davlat buyurtmalari; grantlar, subsidiyalar; soliq imtiyozlari; boshqalar;

- **ta’lim**: xodimlarni tadbirkorlik faoliyati yuritishga o‘qitish; salohiyatni ro‘yobga chiqarish; boshqalar;

- **huquqiy**: me’yoriy-huquqiy hujjatlar; qarorlar; boshqalar;

- **axborot**: ommaviy-axborot vositalari faoliyati; uyushma, ittifoq va boshqalarni tashkil etish; boshqalar;

- **tashkiliy**: forumlar o‘tkazish; ishbilarmonlik missiyalarini tashkil etish; kooperatsiya va boshqalar.

Pirovardida ushbu dastaklar orqali **boshqaruv obyekti**ga ta’sir o‘tkazilib, mazkur obyekt kichik tadbirkorlik subyektlari, ya’ni kichik korxonalar, dehqon (fermer) xo‘jaliklari va yakka tartibdagi tadbirkorlardan tarkib topishi belgilab berilgan.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Задумкин К.А., Подолякин О.В. Задачи и механизмы содействия развитию малого предпринимательства на муниципальном уровне. - Экономические и социальные перемены: факты, тенденции, прогноз 2 (6) 2009. – С. 62.

2. Журавлев Д.М. Организационно-экономический механизм управления устойчивым развитием региона // Креативная экономика. – 2019. – Том 13. – № 2. – С.249-260. doi:10.18334/ce.13.2.39905

3. Бычкова А.Н. Экономический механизм: определение, классификация и применение. - Вестник Омского университета. Серия «Экономика». 2010. № 4. С. 37-38-39-43.

4. Жўрахонов Д.М. Новый механизм управления бизнесом. “Экономика и социум”, №12(103)-2 2022. - www.iupr.ru. – С. 339-342.

5. Ибрагимов И.У. Организационно-экономический механизм управления малым бизнесом. “Экономика и социум”, №12(79) 2020. - www.iupr.ru. – С. 567-569.

6. Сыщикова Е.Н. Формирование организационно-экономического механизма управле-ния предприятием в современных условиях. https://cyberleninka.ru/article/n/formirovanie-organizatsionno-

ekonomicheskogomehanizma-upravleniya-predpriyatiem-v-sovremennyh-usloviyah

7. Сайпиддинов Ш.С., Камолиддинов М., Шарифбаев Р.Н. Организационно-экономические механизмы управления предпринимательской деятельностью. “Экономика и социум”, №6(85) ч.2, 2021. www.iupr.ru. -С. 225-226.

8. Кремин А.Е. Управление функционированием малого бизнеса на муниципальном уровне как инструмент развития экономики региона / А.Е. Кремин, К.А. Гулин // 9.Экономические и социальные перемены: факты. тенденции, прогноз. – 2017. – Т. 10. – № 4. – С. 94-110. DOI: 10.15838/esc/2017.4.52.5

10. Михайлушкин П.В., Баранников А.А. Основные уровни и органы государственного управления экономикой. - Научный журнал КубГАУ, №92(08), 2013. - http://ej.kubagro.ru/2013/08/pdf/10.pdf

11. Управление предприятием. - https://ru.wikipedia.org

**Masharipova Manzura Alimbayevna**
**“Ma’mun universiteti” Nodavlat ta’lim muassasasi,**
**Iqtisodiyot kafedrasi dotsenti.**
**Saparova Mohira Alisher qizi**
**Urganch davlat universiteti,Iqtisodiyot y`onalishi 3-bosqich talabasi**

## O`ZBEKISTONDA INKLYIZIV O`SISH VA BARQAROR RIVOJLANISH ASOSLARI

***Annotasiya:*** Ushbu maqolada O`zbekistonda boshqa mamlakatlardagi kabi inklyuziv o‘sishni ta’minlash orqali aholi turmush darajasini oshirish , kambag‘allikni qisqartirish hamda inklyuziv o‘sishning mohiyati keltiriladi.Shuningdek, mamlakatlar iqtisodiyotini taraqqiy ettirish masalalari bilan shug‘ullanadigan xalqaro tashkilotlarning ekspertlari tomonidan berilgan izohlar tadqiq qilinadi.

***Kalit so`zlar:***inklyuziv o‘sish, inklyuziv o‘sish konsepsiyasi, inklyuziv rivojlanish, kambag‘allikni qisqartirish, kambag‘allik chegarasi, uy xo‘jaliklari daromadlari, sog‘liqni saqlash xarajatlari.

***Abstract:*** This article presents the essence of improving the standard of living of the population , reducing poverty and inclusive growth in Uzbekistan by ensuring inclusive growth, as in other countries.Also, comments made by experts

from international organizations dealing with issues of progressive development of the economy of countries are researched.

***Keywords:*** inclusive growth, inclusive growth concept, Inclusive Development, Poverty Reduction, Poverty Line, household income, health care spending.

***Аннотация:*** В данной статье будет рассмотрена сущность инклюзивного роста , сокращения бедности и повышения уровня жизни населения путем обеспечения инклюзивного роста в Узбекистане, как и в других странах.Также исследуются комментарии, сделанные экспертами международных организаций, занимающихся вопросами развития экономики стран.

***Ключевые слова:*** инклюзивный рост, концепция инклюзивного роста, инклюзивное развитие, сокращение бедности, черта бедности, доход домохозяйства, расходы на здравоохранение.

## KIRISH

Bugungi kunda iqtisodiy o‘sish ko‘rsatkichi aholining real turmush darajasini aks ettirmaydi va rivojlangan hamda rivojlanayotgan mamlakatlar aholisi o‘rtasidagi tengsizlikka qarshi choralarni rag‘batlantirmaydi. Inklyuziv o‘sish konsepsiyasi to‘g‘risidagi nazariyalar ushbu muammoni hal etishga intiladi. Inklyuziv o‘sish aholining turmush darajasini yaxshilash, iqtisodiy holati, sog‘liqni saqlash va ta’lim, suv ta’minoti, boylikni adolatli qayta taqsimlanishi, ijtimoiy-iqtisodiy farovonlik va ularning iqtisodiy resurslarni oshirish, iqtisodiy imkoniyat, jamoa ishtirokini kuchaytirish, xavfsizlik, ijtimoiy muhofaza qilish, farovonlikning boshqa standartlari, ularning atrof-muhit ustidan ta’siri hamda albatta, hayot va oddiy turmush o‘rtasidagi farqni kamaytirishga xizmat qiladi[1].

Shuningdek, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot Dasturi (BMTTD) nuqtai nazaridan inklyuziv rivojlanish inson taraqqiyotini, shu qatorda rivojlanishning ekologik barqarorligidan (ya’ni iqlim o‘zgarishi, atrofmuhitning ifloslanishi, energiya yetishmasligi) va tabiiy ofatlardan qishloq jamoalarining rivojlanishi, uy xo‘jaliklari daromadlari, sog‘liqni saqlash xarajatlari, ta’lim va dam olish ko‘rsatkichlarini ijobiy o‘zgartiradi. Rivojlanish dasturining tahlilchilari o‘nlab dastlabki ta’riflardan ikkitasi eng qoniqarli degan xulosaga kelishdi: - Inklyuziv o‘sish- bu «nochor guruhlardagi tengsizlikni kamaytirish»ni o‘z ichiga oluvchi «o‘sish imkoniyatini diskriminatsiyasiz ta’minlaydigan diskriminatsiyasiz o‘sish»dir; - Inklyuziv o‘sish «foydada ishtirok etish va undan teng foydalanishni nazarda tutadi» [2].

Shu bilan birga bugungi kunda Birlashgan millatlar tashkiloti, xalqaro moliyaviy iqtisodiy tashkilotlar, nodavlat assotsiatsiyalarning faoliyatining bosh maqsadlaridan biri aholini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, kambag‘allikni

qisqartirish, aholi daromadlarini oshirish borasida aniq chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish hisoblanadi.Mamlakatimizda ham bu masalalar bo`yicha bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev ta’kidlab o‘tganlaridek, “...iqtisodiy islohotlarning pirovard maqsadi kambag‘allikni qisqartirish va aholi farovonligini oshirishdan iborat bo‘ladi. Ushbu strategik maqsadlarga hamma uchun teng imkoniyat yaratadigan yuqori iqtisodiy o‘sish hisobiga erishiladi.[3]

Darhaqiqat,mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirish bo‘yicha asosiy vazifalar 2026 yilgacha kambag‘allik darajasini ikki barobar qisqartirish maqsadidan kelib chiqadi. Bunda belgilangan maqsadlarga erishishning asosiy sharti sifatida makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiyotni rivojlantirish belgilangan.

Albatta, yuqorida qayd etilganidek, global miqyosda dunyo minbarlarining bosh mavzusiga aylanayotgan muammolardan biri bo‘lgan kambag‘allikni qisqartirishning to‘g‘ri va eng samarali usuli iqtisodiyotda band aholi sonini oshirish, ularga munosib va mehnat unumdorligi yuqori bo‘lgan to‘liq ish bilan band bo‘lishlikni ta’minlash, qishloq joylarida tadbirkorlik uchun shart-sharoitlarni yaratishdan iborat. Kambag‘allikni yuzaga keltiradigan bosh omil ham ishsizlik darajasining yuqoriligi, ishchi kuchi qatlamining bugungi zamon talabi darajasiga mos emasligi, inson kapitali qiymatining mehnat unumdorligi nuqtai nazaridan orqada qolayotganligida, deb baholash mumkin. Chunki kambag‘allik millatning sog‘ligi, mehnatga layoqati va ilmiy salohiyatiga putur yetkazadi. Shuningdek, uning oqibati natijasida davlat byudjetining pasayishi va siyosiy jarayonlarning keskinlashishiga sabab bo‘ladi.

**Asosiy qism**

So‘nggi o‘n yillikda O‘zbekiston iqtisodiyoti tez o‘sdi va aholining sezilarli qismi uchun kambag‘allik chegarasidan yuqori darajaga ko‘tarilishga imkon berdi. “2023 yilda jami 4,1 mln aholi, shundan 2,3 mln nafari doimiy va mavsumiy ish o‘rinlarida, 112,8 ming nafari haq to‘lanadigan jamoat ishlarida, 1,6 mln aholi o‘zini o‘zi band qilish hisobiga bandligini ta’minlashga erishildi.Shuningdek,hokim yordamchilari yordamida 241,3 ming nafar fuqarolarga ijara asosida yer maydonlari ajratildi.“20 ming tadbirkor – 500 ming malakali mutaxassis” dasturi doirasida 6745 ta tadbirkorlik sub’ekti bilan 455,0 ming nafar aholini badligini ta’minlash bo‘yicha hamkorlik shartnomalari imzolandi. [4].

Shuningdek,mamlakatimiz Prezidenti raisligida 2023 yil 15 mayda kambag‘allikni qisqartirish va aholi bandligini ta’minlashni yangi bosqichga ko‘tarish masalalariga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi. Ushbu videoselektorda ta’kidlanishicha, “har yili oilaviy tadbirkorlikka 13 trillion so‘m kredit va 1,5 trillion so‘m subsidiyalar ajratilmoqda”. Bu masala bo‘yicha oxirgi

Причем различие приоритетности, масштабности, характере решаемых проблем определяют различный по продолжительности, капиталоемкости, размерности уровень программ. В условиях модернизации программно-целевой подход становится связующим звеном между отраслевыми, территориальными и функциональным органами управления. Применительно к проблеме повышения эффективности ВЭС, он должен обеспечить нормальное, в рамках поставленных задач, протекание международной экономической интеграции суверенной республики с другими странами. В этой связи немаловажное значение приобретает определение требований, которые предъявляют программно-целевой подход к изучению проблемы повышения эффективности ВЭС. К их числу можно отнести следующие:

1. Выбор и обоснование проблем стимулирования ВЭС (отраслевого, межотраслевого, территориального и общереспубликанского уровня), требующих программной проработки. Как правило эти проблемы не могут быть решены в рамках отдельных министерств, ведомств, предприятий;

2. Разработка и обоснование совокупности целей повышения эффективности развития ВЭС с оценкой возможных результатов их достижения;

3. Определение важнейших направлений достижения целей повышения ВЭС;

4. Выбор факторов и условий, обеспечивающих реализацию выбранных направлений повышения эффективности внешнеэкономической деятельности Республики Узбекистан;

5. Анализ потребностей мирового рынка в товарной номенклатуре, изготавливаемой в регионе,

6. Изучение сложившихся мировых цен на экспортируемую и импортируемую регионом продукцию и выявление альтернативных вариантов их снижения;

7. Анализ состояния развития и размещения экспортного производства, использования импортной техники, технологии и выявление недостатков, причин, сдерживающих повышение их использования;

8. Оценка накопленного научного задела и проводимых разработок по импорто-замещению, развитию и размещению экспортного производства, использованию иностранных инвестиций, созданию и функционированию совместных и иностранных предприятий и др. форм ВЭС с оценкой показателей эффективности;

9. Сопоставление достигнутого и желаемого уровня стимулирования ВЭС региона;

10. Выявление совокупности проблем повышения эффективности ВЭС, с выделением наиболее приоритетных и актуальных.

**Литература:**

1. Указ Президента Республики Узбекистан № ПФ-158 «О СТРАТЕГИИ «УЗБЕКИСТАН - 2030»». от 11 сентября 2023 года. https://lex.uz/ru/docs/6600404

2. Визит Президента Ш.Мирзиёева в Хорезмскую область 29 февраля 2024 года. https://president.uz/ru/lists/view/7058

3. Б.Рузметов. Региональная экономика: опыт, проблемы, эффективность комплексного развития. Ташкент; «ФАН». 2002 г.

# SOME ISSUES OF THE FORMATION OF A COMPETITIVE TERRITORIAL ECONOMY IN THE CONTEXT OF INTEGRATION

**Sattorov S. A. Surxondaryo viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markaz "Aniq va tabiiy fanlar metodikasi" kafedrasi katta o`qituvchi.**
**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).**

**Abstract.** The article analyzes the need for the formation of a competitive regional economy in the context of integration and its features. The article also analyzes the classification of theories of factors and models of the regional economy.

**Аннотация.** В статье анализируется необходимость формирования конкурентоспособной региональной экономики в условиях интеграции и ее особенности. В статье также анализируется классификация теорий факторов и моделей региональной экономики.

**Key words**: regional policy, socio-economic development, key issues of economic development, statistical values.

**Ключевые слова**: региональная политика, социально-экономическое развитие, ключевые вопросы экономического развития, статистические значения.

It will be possible to realize that population growth and labor mobility are based not only on regions, but also on inequality and imbalances of global development. This is a huge problem that cannot be solved quickly. To solve this problem, scientific research and studies are required that provide an evidence-based component of the assessment of unexpected risk.

It should be noted that in practice, any global problem initially arises in a particular region and, if it is not prevented, can take on a global scale. It follows that when studying the processes of socio-economic development, it is advisable to study them primarily from a regional point of view.

A number of scientists argue that, in addition to industrial and ethnic education, in modern conditions it is advisable to fill the "territory" with a number of qualitative signs of a socio-economic nature. Including:

- the subject of socio-economic relations in the context of economic changes, economically and geographically different within the state;

- part of the political, territorial, and economic integrity of the state;

- The specifics of education and the specific socio-economic interests that develop in it are determined by the needs and functions that need to be implemented..

Judging by the ongoing reforms in the socio-economic development of the regions in the Republic of Uzbekistan, the emerging economic space within the country is determined by the fact that the regions are becoming independent economic entities. In such conditions, it is advisable to consider regional policy not as a way to overcome new and new shortcomings, but as a competition policy and a more comprehensive development policy.

The analysis of the interdependence of the theories of socio-economic development of regions, taking into account its economic nature, includes factors that contribute to the formation of economic subjectivity.

The analysis of the factors determining the growth of subjectivity of regions shows that they are mainly exogenous and have an external influence on the

region. These include, first of all, the globalization of the economy, the development and formation of the region. The main products of the region as an object of development are:

1) competitiveness of the subsystems of the region (social, economic, managerial, environmental, infrastructural, institutional, security);

2) competitiveness of products produced in the region;

3) competitive resources, potential and opportunities of the region.

Regional macroeconomics mainly analyzes the comparative economic characteristics of different regions within the national economy. Regional macroeconomics studies issues related to comparative economic growth, changes in the level of employment in the region and the movement of factors of production between regions. Unlike regional macroeconomics, microeconomics is more concerned with the problem of localization and interrelation of regional economic activity. It discusses the impact of time and distance on economic activity, and it does not work as a whole in the region. Consequently, when the subject of regional microeconomics deals with the theory of location, the term space economy is sometimes used as a synonym for regional economy, but in this case more attention is paid to the importance of space and distance than to the macro aspects.

The economic development of regions is not always accompanied by an improvement in living conditions and indicators of social development. In practice, the economic interests of economic entities, various sectors of material production, the population of regions and the social interests of society as a whole often do not coincide. In this regard, it can be noted that the weak scientific and technical level of production in the regions, limited financial, labor and material resources, low efficiency of their use and low level of labor organization, imperfect management and norms of economic law.

The result of these problems, in turn, is the deterioration of the natural environment, leading to a decrease in the socio-economic potential of the regions. Studies show that during the period of economic reforms and unforeseen

emergencies, such factors as the growth of interregional inequality in terms of different economic and social development influenced the sharp decline in real incomes and the growth of poverty. However, this increase in imbalances depends on the trends in nominal and real incomes, as well as on the degree of interdependence of poverty and the pace of development.

It is concluded that for the development of the economy of any region, the distribution of investments in the direction of energy security, low-cost infrastructure and environmental protection provides a number of advantages:

The release of resources for the development of households and effective investments by reducing energy and materials costs;

declining confidence in imports and the impact of weak energy supply on geopolitics;

providing the support needed for employment in the expanding "environmental industry";

encourage the pursuit of global environmental goals;

protecting valuable ecological resources and improving the quality of the habitat for future generations. The result offers jobs and economic development in the short term, energy security and technological innovation in the medium term, as well as a sustainable future for the next generation in the long term.

**List of used literature:**

1. Andreev, A.V. Fundamentals of regional economy: Textbook / A.V. Andreev, L. M. Borisova, E. V. Pluchevskaya. - Moscow: KNORUS, 2007 - 336 p.

2. Gavrilov A. Regional economy and management: Basic concepts and definitions of the regional economy [Electronic resource] / - Access mode: http://onby.ru/agavrilovekonomika/2/06;

3. Granberg, A. G. Fundamentals of regional economy: Textbook for universities. - Moscow: Higher School of Economics, 2000. - 495 p. ;V. I. Vidyapina, M. V. Stepanova Regional economics: Textbook / Ed. - Moscow: INFRA-M, 2008 - 686 p.

4. Lapaeva, M. G. Management of socio-economic development of the region in the conditions of the formation of the network economy: monograph [Text] / M. G. Lapaeva, I. N. Korabeynikov, E. N. Makeeva. - Orenburg: IPK GOU OSU, 2009. - 268 p.

5. P. N. Rosenstein-Rodan, "Problems of Industrialization of Eastern and South Eastern Europe," Economic Journal, vol. 53 (June-September 1943) https://books.google.co.uz/booksd=5OgMhu

6. Nurkse, Ragnar. 1953. Problems of Capital Formation in Underdeveloped Countries. Oxford: Oxford University Press. https://www.worldcat.org/title/problems-of-capital-formation.

7. Rostow W.W. The Take-Off into Self-Sustained Growth // The Economic Journal, Vol.66, N261.- March 1956. - P. 25-48. https://academic.oup.com/ej/article-abstract/66/261/25/5258964.

8. *Harvey Leibenstein, Economic Backwardness and Economic Growth* (New York: *Wiley, 1957*).

9. ILO activities in the post-war world (Part 2: 1960-1988) 1969. https://www.ilo.org/legacy/english/lib/century/

10. Thorbecke, E. (2006): The Evolution of the Development Doctrine 1950-2000, research paper No. 2006/155. World Institute for Development Economics Research. United Nations University.

## TIJORAT BANKLARIDA VALYUTA RISKLARI, UNING MOHIYATI VA TURLARI.

**Otajonov T. X., Xorazm viloyati Xonqa tumani, Bank va moliya akademiyasi talabasi**

**Annotatsiya.** Ushbu tezisda tijorat banklarida yuzaga keladigan valyuta risklarining mohiyati shuningdek valyuta risklarining turlari haqida ma'lumotlar keltirilgan. Keltirilgan ma'lumotlar asosida solishtirma tahlil amalga oshirilgan.

**Abstract.** This thesis provides information on the nature of currency risks that occur in commercial banks, as well as the types of currency risks. A comparative analysis was carried out on the basis of the given data.

**Аннотация.** В данной дипломной работе представлена информация о природе валютных рисков, возникающих в коммерческих банках, а также о видах валютных рисков. На основе приведенных данных был проведен сравнительный анализ.

**Kalit so'zlar.** Valyuta, valyuta risklari, valyuta kursi, tranzaksiya riski, iqtisodiy riski.

**Key words.** Currency, currency risks, exchange rate, transaction risk, economic risk.

**Ключевые слова.** Валюта, валютные риски, валютный курс, транзакционный риск, экономический риск.

Valyuta operatsiyalarining keng kulamda rivojlanishi tijorat banklariga ushbu bozorda erkin harakat qilishga va ayni vaqtda ularni tartibga solishga imkoniyat tug'diradi.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, milliy iqtisodiyotni faqat shu mamlakatda ishlab chiqarilgan mahsulotlar bilan barcha ehtiyojlarni qondirib bo'lmaydi. Demak, mamlakatlar o'rtasida eksport-import operatsiyalari albatta amalga oshishi yuz beradi.

O'zbekiston Respublikasi "Banklar va bank faoliyati to'g'risidagi" qonuniga binoan "Banklar o'z faoliyatida chet el valyutasini naqd pul va naqd bo'lmagan pul shaklida yuridik hamda jismoniy shaxslardan sotib olish va sotish operatsiyalarini amalga oshirishi" belgilab o'tilgan [1]. Ushbu faoliyatni amalga oshirish mobaynida banklarda valyuta ayriboshlash bilan bog'liq risklar paydo bo'lishi mumkin.

P.S. Rouz risklarga kengroq tushuncha berib, u bank risklarini quyidagi oltita asosiy turga ajratadi:

- kredit riski;

- foyda olmaslik riski;
- likvidlik riski;
- foiz riski;
- to‘lay olmaslik riski;
- bozor (raqobat, talab va taklif, inflatsiya va h.k.) riski.

Bank uchun ikkinchi darajada bo‘lgan risklar tarkibiga P.Rouz siyosiy, suyiste’mol va valyuta risklarini kiritadi [2].

Valyuta risklarining mavjudligi - valyuta bozorlarida valyuta operatsiyalar amalga oshirilishi, transmilliy korxonalarni barpo etish orqali bank operatsiyalari bozori baynalmilallashuvi, shu jumladan, ular faoliyatini diversifikatsiyalash bilan bog‘liq. Shu sababdan riskka bir qator omillar sezilarli ta’sir ko‘rsatadilar. Bularga misol qilib, geografik, siyosiy, iqtisodiy, huquqiy, demografik va boshqa omillarni ko‘rsatish mumkin. Valyuta riski deganda, tashqi iqtisodiy faoliyat jarayonida ayriboshlash kurslari o‘zgarishidan yoki boshqa turli valyuta operatsiyalari amalga oshirilishida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan yo‘qotishlar (yoki daromad olish) tushuniladi.

Valyuta risklari yuzaga kelishining asosiy sababi - valyuta kurslari o‘zgarishi hisoblanadi. Bunday o‘zgarishlar hamma shaxslarga jumladan, ishbilarmon firmalar va davlat tuzilmalariga ham ta’sir ko‘rsatadi. Ko‘pgina hollarda ularning faoliyati eksport-import operatsiyalari bilan bog‘liq va shu sababli kreditorlar va qarz oluvchilar, investorlar va chayqovchilar, xo’jalik sub’ektlari o‘z bizneslarini milliy valyutaga nisbatan xorijiy valyutalarda amalga oshirishni ma’qul ko‘radilar.

Valyuta riskiga - tashqi savdo, kredit, valyuta operatsiyalari, hamda fond va tovar birjalarida amalga oshirilayotgan operatsiyalarda milliy valyuta kursiga nisbatan xorijiy valyutani kursini o‘zgarishi bilan bog‘liq valyuta yo‘qotishlari xavfi kiritiladi [3].

Valyuta riskining hajmi valyutaning sotib olish qobiliyatining pasayishi bilan bog‘liq, shu sababli u bitim imzolangan va to‘lovni amalga oshirish muddati o‘rtasidagi vaqt oralig‘ining farqiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liq

Valyuta riski - chet el valyutasi va qimmatbaho metallarning ochiq pozitsiyalari bo‘yicha shu chet el valyutalari kurslari va qimmatbaho metallar baholarining o‘zgarishi natijasida bankda yuzaga keladigan moliyaviy yo‘qotish bilan bog‘liq tavakkalchilik.

Valyuta riskining uch turi o'z ichiga oladi:

1. Tranzaksiya riski - bu yurisdiktsiyalar o'rtasida moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirishda kompaniya duch keladigan xavf. Risk - bu bitimni amalga oshirishdan oldin valyuta kursining o'zgarishi. Asosan, tranzaksiya va hisob-kitob o'rtasidagi kechikish tranzaksiya xavfining manbai hisoblanadi. Tranzaksiya xavfini forvard shartnomalari va optsionlari yordamida kamaytirish mumkin.

2. Iqtisodiy riski, shuningdek, bashorat qilish xavfi sifatida ham tanilgan, bu kompaniyaning bozor qiymatiga valyuta kurslarining muqarrar ravishda o'zgarishi ta'siriga ta'sir qilish xavfi. Bunday xavf turi odatda geosiyosiy beqarorlik yoki hukumat qoidalari kabi makroiqtisodiy sharoitlar tomonidan yaratiladi.

3. Pul o‘tkazishda yuzaga keladigan risk  kompaniyaning bosh qarorgohi mamlakatda joylashgan, lekin chet el yurisdiktsiyasida biznes yuritayotgan va kompaniyaning moliyaviy natijalari uning milliy valyutasida ko'rsatilgan tavakkalchilikni anglatadi. Agar kompaniya o'z aktivlari, majburiyatlari yoki aktsiyalarining katta qismini chet el valyutasida ushlab tursa, tarjima xavfi yuqori bo'ladi (1-rasm).




**1-rasm. Valyuta riskining turlari**

Valyutani tartibga solish sohasidagi mavjud chora-tadbirlar ichki bozorni jahon bozorlaridagi raqobatga bardosh bera olmagan xorijiy mahsulotlarning endigina o‘z ishlab chiqarishini qayta qurayotgan o‘tish davri iqtisodiyotiga ega bo‘lgan mamlakatlarga oqib kelishidan himoya qilishga qaratilgan. Valyutani tartibga solish shartlari, shu jumladan, konvertatsiya tartib-qoidasi ayni shunday mollarning ko‘plab keltirilishiga to‘sqinlik qiladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, bozor iqtisodiyotiga o‘tish davrida O‘zbekiston Respublikasi Markaziy binkining monetar siyosati o‘ziga xos xususiyatlarga egadir. Erkin suzib yuruvchi valyuta kurslari tizimida Markaziy bankning pul-kredit va valyuta siyosatining iqtisodiyotga ta’siri kapitallarni eksport va import qilishni rag‘batlantirishda namoyon bo‘ladi. Buning mazmuni milliy valyuta kursini barqaror saqlab turish bilan belgilanadi. Milliy valyuta kursini barqaror ushlab turish uchun esa, hozirgi davrda O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankiga oltin-valyuta zaxiralarini boshqarish topshirilgan. Shunday qilib, iqtisodiyotni monetary siyosat orqali tartibga solish jarayonlarini va unda Markaziy bankning tutgan o‘rni va mavqeini tadqiq qilish, hozirgi vaqtda, O‘zbekiston Respublikasi uchun dolzarb masala hisoblanadi.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. https://lex.uz/acts/-2681
2. Роуз П. С. Банковский менеджмент. – М.: Дело ЛТД. 1995, стр.142
3. S.S. Togayev. Bank risklari. O`quv qo`llanma. SamISI. Samarqand 2019 y. 222-bet.

# ЎЗБЕКИСТОНДА БАНК СЕКТОРИНИ КЕНГАЙТИРИШДА РАҚАМЛИ ТРАНСФОРМАЦИЯ ЙЎНАЛИШЛАРИ

**Тадқ. Саттарова Д. Маъмун Университети НТМ**

**Аннотация.**Тадқиқотда банк тизимида инновацион технологияларни қўллашнинг назарий ва амалий асослари, унга таъсир этувчи омиллар,

мамлакат тижорат банклари томонидан бу йўналишда олиб борилаётган амалий чора-тадбирлар ёритилган.

**Аннотация.** В исследовании освещены теоретические и практические основы применения инновационных технологий в банковской системе, факторы, влияющие на это, а также практические меры, принимаемые в этом направлении коммерческими банками страны.

**Abstract.** The theoretical and practical foundations of the application of innovative technologies in the banking system, the factors affecting it, and the practical measures taken in this direction by the country's commercial banks are highlighted in the study.

**Калит сўзлар.** Банк, мижоз,инновация, рақамли иқтисодиёт, банк тизими, масофавий хизмат, трансформация.

**Ключевые слова.** Банк, клиент, инновации, цифровая экономика, банковская система, дистанционная обслуживание, трансформация.

**Key words.** Bank, client, innovation, digital economy, bank system, remote service, transformation.

Маълумки, банк сектори барча миллий пул-кредит тизимларининг асосий бўғинидир. Миллий тўлов тизими инфратузилмасини ривожлантириш, тўлов хизматларини тақдим этишда рақамли технологиялар ва инновацияларни қўллаш ғоят муҳим аҳамият касб этади.

Банк бизнесини янада такомиллаштириш мақсадида, кичик ва йирик молиявий технология компаниялари мижозларга кўрсатиладиган хизматларни яхшилаш учун "сунъий интеллект" ва рақамли технологиялардан кенг фойдаланилмокдалар. Замонавий технологиялар мунтазам такомиллашиб боргани сайин, табиийки, соҳанинг қонунчилик асослари ҳам мустаҳкамланиб бораверади.

Ўзбекистонда банк секторининг рақамли трансформацияси учун қулай шароитлар яратилмоқда. Бунинг натижасида йилдан йилга масофавий хизмат кўрсатиш каналларидан фойдаланувчи мижозлар сони ортиб бормоқда. Мамлакатимизда мобил ва интернет банкинг хизматларидан

фойдаланувчилар сони 2020 йил 1 январ холатига 10 153,4 мингтани ташкил этган булса, 2023 йил 1 январ холатига бу курсаткич карийб 3 баробарга ошиб, 30 001 мингтани ташкил этган.

Ўзбекистонда тижорат банкларининг мижозларга хизмат кўрсатишда рақамлаштириш жараёнларини жадаллашувига кўплаб омиллар ёрдам беради.

Мамлакатимизда кенг функционалликга эга замонавий, қулай мобил ва онлайн иловалар бугунги кунда кенг тарқалган. Республикамиз банклари томонидан мижозларга мобил иловаларни такдим этиш жаҳоннинг ривожланган мамлакатлари банклари қатори банк операцияларини амалга ошириш имконини бермоқда. Хизмат кўрсатиш йўналишига қараб, мижозларнинг аксарияти 50 фоизи масофавий банк хизматларидан (шундан 20% и интернет банкинг, 15 %и мобил банкинг ва 45 %и ҳар иккала платформадан) фойдаланади. Бугунги кунда иқтисодиётни рақамлаштириш шароитида банк хизматларининг янги технологиялар ёрдамида кўрсатилиши аллақачон даврнинг асосий талаби бўлиб ҳисобланади.

Банкларда инновацион хизматлар яратилишининг асосий мақсади бўлиб, янги мижозларни жалб қилиш, уларнинг талаб ва эҳтиёжларини қондириш ва шу билан бирга мавжуд мижозларни сақлаб қолишдан иборат. Ҳозирги кунда банкларда ҳисоб рақам очиш банк пластик картасини эмиссия қилиш олдингидек узоқ муддат талаб этмайди ва бир банк иш кунида ушбу амалиётларни бажариш мумкин.

Банклараро амалиётлар шу жумладан пул кўчириш амалиётлари бир неча дақиқаларда амалга ошмоқда. Ушбу амалиётларнинг бажарилиши тезлигининг ошиши мижозларга қулайликлар яратиб банкга бўлган ишончининг ошишига сабаб бўлди.

Шу сабабли банклар мижозларни сақлаб қолиш ва янги мижозларни жалб қилиш учун янги замонавий инновацион маҳсулотларни ишлаб чиқаришга харакат қилишмоқда. Бу борада жуда кўпчилик банклар, мижозларга қулайлик яратиш мақсадида, уларнинг банкга ташрифини

сезиларли даражада камайтириш учун масофавий хизматлар кўламини ошириб онлайн ариза топшириш, ҳисобрақам қолдиғини масофадан туриб бошқариш имкониятини берувчи иловалар сонини оширишга интилишмоқда. Банклар мижозларнинг биометрик маълумотларига асосланган ҳолда масофадан туриб уларни идентификация қилиш имконига эгадирлар. Бунинг натижасида эса банкда янги ҳисобрақам очишда мижоз ва банк ўртасида масофадан туриб шартнома тузиш имконияти беради.

Банклар инновацион хизматлар ҳажмини оширишлари учун мунтазам равишда янги ғоялар ва янги технологиялардан фойдаланишлари зарур бўлиб ҳисобланади. Тижорат салоҳиятига эга янги ғоя ва хизматларни таклиф этиш учун тижорат банклари доимий равишда трендларни доимий равишда кузатиб бориш, мижозлар талабини аниқлаш каби ҳал қилувчи омилларни ўрганиб, таҳлил қилиб боришлари лозим.

Тижорат банклари учун рақамли трансформациянинг асосий мақсади бу харажатларни камайтириш ва амалиётларни тезлаштиришдир. Анъанавий банк хизматларини рақамлаштириш орқали янги филиалларда маҳсулот ва хизматларни сотиш нархини 40-60%га камайтириш имконини беради. Инновацион ривожланишнинг энг муҳим йўналишларидан бири инновацион ечимларни ишлаб чиқиш ва жорий этиш, инновацияларни аутсорсинг қилиш ва ҳамкорликнинг бошқа шаклларида IT компаниялар билан ҳамкорликни ташкил этиш ҳисобланади.

Ҳозирда, банк сохасидаги ислохотларнинг асосий мақсади - тижорат банкларини мижоз учун ишлашга ўргатишдан иборатлигини инобатга олиб, аҳолида банк тизимига нисбатан ишончни шакллантириш ва банклар фаолиятига четдан аралашишга чек қуйиш долзарб масала хисобланади.

Фикримизча, Ўзбекистонда банк тизимини рақамлаштириш амалиётини янада такомиллаштириш учун қуйидаги тадбирларни амалга ошириш лозим:

1. Мамлакат тижорат банкларининг фаолиятига банк билан мижоз ўртасидаги муносабатларни тўлиқ рақамли майдонга олиб чиқиш имконини берадиган ва сунъий интеллект, булутли ҳисоблаш, улкан маълумотлар каби

замонавий рақамли технологиялардан фойдаланишга асосланган SupTech технологиясини жорий қилиш керак.

SupTech технологияси тижорат банкининг капиталини ва соф фоизли маржасини оптималлаштириш имконини беради ҳамда фаолиятидаги молиявий рискларни баҳолаш аниқлигини оширади.

Шунингдек, SupTech технологиясини қўллаган ҳолда банк хизматлари таннархига таъсир этаётган омилларнинг таъсир даражасини аниқлаш мумкин.

2. Банк амалиётига мультибанк иловаларини жорий қилиш орқали мижозларга ўз ҳисобрақамларини он-лайн кузатиш, тўлов операцияларини амалга ошириш учун ҳисобрақам танлаш, кредитлаш шартларини таққослаш имконини бериш керак.

Мультибанк иловалари банк мижозлари учун юқорида қайд этилган қулай имкониятларни такдим этгани ҳолда, тижорат банкига мижозларнинг молиявий операцияларига оид маълумотлардан фойдаланиш шаффофлигини ошириш имконини беради.

**Фойдаланилган адабиётлар:**

1. Tapskott Don. "Электронно-цифровое общество: Плюсы и минусы эпохы интеллекта. -Киев: ITN Press, 1999.

2. Don Tapscott, Alex Tapscott. Blockchain Revolution: How the Technology Behind Bitcoin is Changing Money, Business, and the World, 2016, 324 pages.

3. Друкер П. Бизнес и инновации. / пер.с.англ. - М.: ИД «Вильямс», 2009. -432 с.

4. Санто Б. Инновация как средство экономического развития. - М.: Прогресс.1990

5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПФ-5992-сонли “2020-2025 йилларга мўлжалланган Ўзбекистон Республикасининг банк тизимини ислоҳ қилиш стратегияси тўғрисида” ги Фармони. 2020 йил 12 май

# МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА ДАВЛАТ-ХУСУСИЙ ШЕРИКЛИК МУНОСАБАТЛАРИНИ АМАЛГА ОШИРИШ МАСАЛАЛАРИ

**С.Мадаминов, Урганч давлат университети ўқитувчиси**
**З.Абдикаримова, “Маъмун университети” Нодавлат таълим муассаси ўқитувчиси.**

**Аннотация.** Мазкур мақолада мактабгача таълим тизимида давлат-хусусий шерикликни амалга ошириш мақсади ва аҳамияти, шунингдек ушбу муносабатларни амалга оширишнинг муҳим компонентларига тўхталиб ўтилади.

**Abstract.** This article focuses on the purpose and importance of implementing public-private partnerships in the preschool education system, as well as the important components of implementing these relationships.

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются цель и важность реализации государственно-частного партнерства в системе дошкольного образования, а также важные составляющие реализации этих взаимоотношений.

**Калит сўзлар.** Давлат-хусусий шериклик, самарадорлик, таълим тизими, лойиҳа, инфратузилма.

**Key words.** Public-private partnership, efficiency, educational system, project, infrastructure.

**Ключевые слова.** Государственно-частное партнерство, эффективность, система образования, проект, инфраструктура.

Жамиятда таълимнинг адолатли ва сифатли таъминланиши ижтимоий-иқтисодий ривожланишнинг ажралмас қисми сифатида қаралади. Ҳозирги назарияларда таълим ва айниқса мактабгача таълимнинг иқтисодий ривожланишга таъсирини тушунтириш учун турли хил ёндашувлар мавжуд.

Мактабгача таълим халқ таълими тизимининг энг биринчи босқичидир. Сифатли шу билан биргаликда арзон мактабгача таълим тизимини таъминлаш инсон капиталини ривожлантиришда таълимнинг ролини кўрсатиб берадиган бошланғич нуқтадир. Инсон ривожланиши бўйича кўп сонли тадқиқотчилар фикрига кўра, мия ҳаётнинг дастлабки уч йилида энг тез ривожланиб боради. Боланинг когнитив, ижтимоий-эмоционал ва соғлом бўлиб ривожланишининг асоси шу йилларга боғлиқ бўлади.

Э.Вегас ва Л.Сантибанез фикрига кўра, мактабгача таълимнинг узоқ муддатли таъсири бўйича глобал тадқиқотлар бошланғич мактабларнинг умумий таълим натижаларига, келажакда ишда муваффақиятга эришишга, инсоннинг хулқ-атворидаги ижобий ўзгаришларга, шу билан биргаликда мактабгача таълим босқичидан ўтган болалар ўртасида жиноятчилик даражасининг паст даражада эканлигини кўрсатганини таъкидлайдилар[1].

К.Браун эса мактабгача таълимнинг шахс камолатидаги ўрнини қуйидагича ифодалайди: “Бу вақт давомида жисмоний, ижтимоий, ҳиссий, ахлоқий, когнитив ва коммуникатив ривожланиш соҳасида кўплаб динамик ўзгаришлар юз беради. Буларнинг барчаси болага дунёни, ўзини ва бошқа одамларни яхшироқ тушунишга ёрдам беради. Шунинг учун бу давр бошқа даврларга қараганда кўпроқ тарбиявий ва таълимий эътиборни талаб қилади[2].

Ж.Хекман боланинг дастлабки ривожланиш босқичини унинг кейинги билиш ва ўрганиш жараёнига таъсирини баҳолаб, мактабгача таълим бола тарбиясида етакчи ўринга эга эканлигини таъкидлайди[3]. У ҳаёт циклининг кейинги босқичларида таълим ва иқтисодий муваффақият ўртасидаги боғлиқликни намойиш этади ва ривожланишнинг дастлабки босқичларида, айниқса мактабгача ёшдаги даврга киритилган инвестициялар энг юқори даромадга эга эканлигини кўрсатади. Шу сабабдан ҳар бир мамлакат учун мактабгача таълим тизимини қўллаб-қувватлаш ва ривожлантириш жуда муҳим аҳамиятга эгадир. Кўплаб мамлакатларда аҳолини сифатли ва арзон мактабгача таълим хизматлари билан таъминлаш

шу билан биргаликда мактабгача таълим муассасалари инфратузилмаларини яратишда қатор муаммолар мавжуд. Мавжуд муаммоларни бартараф қилиш учун давлат-хусусий шерикчилик муносабатлари таълим тизимида янги куч бўлиб хизмат қилиши мумкин[4].

Давлат-хусусий шерикчилик муносабатлари мактабгача таълим тизимида давлат бюджетига ёрдамчи манба сифатида мактабгача таълим инфратузилмасини яратиш шу билан биргаликда бола парваришида юқори сифатли хизматларни етказиб бериш каби устувор аҳамиятга эгадир. Мактабгача таълим тизимида давлат-хусусий шерикчилик муносабатларини ташкил этишда қуйидаги масалаларга аҳамият қаратиш лозим:

- вазиятни ҳар томонлама ва холис таҳлил қилиш;
- томонлар манфаатларининг устуворлигини таҳлил қилиш;
- ҳудуд манфаатларини қондириш;
- қулайлик ва очиқлик;
- манзиллилик;
- ҳудудни ривожлантиришнинг узоқ муддатли стратегиясига эътибор қаратиш;
- имтиёзлар тизимини яратиш;
- шериклик доирасидаги фаолиятнинг ижтимоий-иқтисодий самарадорлигини ошириш;
- шерикчилик ҳаракатларининг ҳудуд аҳолиси тўлов қобилиятларига мутаносиблигини баҳолаш.

**Мактабгача таълим тизимида шерикчилик муносабатларини амалга оширишнинг муҳим компонентлари**

**Ҳуқуқий компонент.** ДХШ шартномаси, концессия ёки инвестиция шартномаларини тузишда лойиҳанинг асоси бўлган ҳуқуқий тузилишнинг амалдаги қонунчиликка мутаносиблигини таҳлил қилиш

**Молиявий компонент.** Лойиҳа бўйича молиявий муносабатларни ташкил қилиш, молиявий ресурсларни шакллантиришни ўз ичига олади. Бир сўз билан айтганда, лойиҳанинг молиявий моделини яратиш жараёнидир

**Техник компонент.** Лойиҳанинг мақсадга мувофиқлигини дастлабки баҳолашни ўз ичига олади ва бунда лойиҳа учун технологик эчимларни таҳлил қилиш, техник ва технологик хавфларни тақсимлаш, қурилишнинг муҳандислик таъминоти масалаларига аҳамият қаратилади.

**Бошқарув компоненти.** Мақсадга эришишга қаратилган жараёнлар ва ресурсларни бошқариш воситаларининг бирикмаси.

Хулоса қиладиган бўлсак мактабгача давридаги болаларни етарлича инфратузилма ва сифатли таълим билан қамраб олиш мамлакатлар бюджети учун оғриқли масала бўлиб қолиши мумкин. Ушбу муаммони бартараф этишда давлат-хусусий шерикчилик муносабатлари мамлакатлар учун жуда муҳим аҳамият касб этади. Давлаат-хусусий шерикчилик муносабатлари мамлакатлар мактабгача таълим тизимида инновация ва инвестицияларни жорий этилишининг янги манбаига айланиши мумкин.

**Фойдаланилган адабиётлар:**

1. Emiliana Vegas and Lucrecia Santibáñez. The Promise of Early Childhood Development in Latin America and the Caribbean. ©2010 The International Bank for Reconstruction and Development / The World Bank.

2.https://www.ourkids.net/pl-en/preschool741/6050.html

3. James Heckman. Skill Formation and the Economics of Investing in Disadvantaged Children. 2006. Science 312(5782):1900-2. DOI: 10.1126/science.1128898

4. A.Nabieva, U.Mikailova,V. Radsky Exploring Public-Private Partnership in Preschool Education Provision as a Contributor to Socio-Economic Development. https://ideas.repec.org/p/ekd/005741/6050.html

# АСПЕКТЫ ЭКСПОРТА ТОВАРОВ И УСЛУГ В ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКЕ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

**Саттаров Г. О. Независимый исследователь Академии Маъмуна**

**Аннотация.** Тезисы содержат анализ показателей, характеризующих развитие цифровой экономики Республики Узбекистан. Выявлена положительная динамика доли валовой добавленной стоимости, создаваемой в секторах информационной экономики и электронной коммерции, объема рыночных услуг, предоставляемых в сфере телекоммуникаций и информатизации, а также количества организаций, осуществляющих деятельность в сфере информационных технологий в период 2016-2024 гг. Экспорт товаров и услуг в сфере информационных технологий характеризуется стабильной положительной динамикой с резким ростом, превышающим планируемые значения, в 2022 году. Прогнозируется дальнейший рост экспорта при продолжении политики его поддержки в ближайшие годы.

**Ключевые слова.** Экспорт информационно-коммуникационных технологий, цифровизация, информационные технологии

Республика Узбекистан выбрала цифровизацию одним из важнейших приоритетов развития экономики. Экспорт цифровых товаров и услуг в

перспективе может стать значимым фактором конкурентоспособности Республики.

Значимости цифровизации в Узбекистане посвящены публикации исследователей-экономистов. Халилов Н.Х., Сафина Н.Т.[2] анализируют роль цифровизации в развитии социально-экономических систем в Республике Узбекистан. Эркинова Ф., Хаджаев Х.С.[3], Бобохужаев Ш.И., Отакузиева З.М.[4] анализируют проблемы, связанные с проведением реформ в Узбекистане в сфере формирования и развития цифровой экономики. Хамдамов Ш. провел теоретико-правовой анализ нормативно-правовых документов, являющихся правовой основой внедрения цифровизации и ее реализации в Узбекистане[5]. Рахимов А.В. анализирует ожидаемые результаты процесса внедрения инновационных ИТ-технологий в экономику Узбекистана[6].

В начале 2010 годов был положенно начало цифровизации Узбекистана. В 2012 году была принята «Комплексная программа развития национальной информационно-коммуникационной системы» до 2020 года, а в 2020 году принята стратегия «Цифровой Узбекистан – 2030». Цифровизация Республики осуществляется через развитие внутреннего рынка информационных продуктов и технологий, совершенствование системы электронного правительства, организацию систему ИТ- парков по всей стране, привлечение квалифицированных кадров и обучение специалистов.

---

[2] Халилов Н.Х., Сафина Н.Т. Роль цифровизации в развитии социально-экономических систем в Республике Узбекистан // Colloquium-journal. 2022. №15 (138)

[3] Эркинова, Ф. Особенности развития цифровой экономики в Узбекистане / Ф. Эркинова, Х. С. Хаджаев // Научный Лидер. – 2021. – № 6(8). – С. 46-50

[4] Бобохужаев Ш.И. , Отакузиева З.М. Развитие цифровой экономики в Узбекистане и проблемы внедрения ИКТ в предприятиях

[5] Хамдамов , Ш. 2023. Цифровизация и ее правовая основа в Узбекистане. Общество и инновации. 4, 6/S (авг. 2023), 121–124

[6] Рахимов А.В. Особенности цифровой экономики в Узбекистане // Умная цифровая экономика. 2022. №3. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/osobennosti-tsifrovoy-ekonomiki-v-uzbekistane

Политика цифровизации сегодня дает значимые результаты. Объем валовой добавленной стоимости в сфере цифровой экономики и электронной коммерции в 2022 году составил 27 755 млрд сум. Более 50% из них составляют услуги в сфере информационно-коммуникационных технологий (14 730 млрд сум), 35% – электронная коммерция (9 694 млрд сум), включающая реализацию продукции (товаров, работ, услуг) по договорам, заключенным с использованием информационных систем, в том числе посредством оферты, через биржи и аукционы, а также с использованием иных электронных торговых площадок. 15% приходится на сектор контента и средств массовой информации (1 929,9 млрд сум), производство информационно-коммуникационных технологий (820,3 млрд сум) и торговлю информационно-коммуникационными услугами (580,8 млрд сум).

Доля валовой добавленной стоимости, созданной в секторе информационной экономики и электронной коммерции, в ВВП увеличилась с 1,9 до 3,3% в период с 2015 по 2022 год. Кроме того, электронная коммерция, которая начала учитываться в Республике Узбекистан с 2019 года (0,1% на тот момент), увеличилась до 0,6% в 2021 году и 1,2% в 2022 году.

В период с 2015 по 2022 год объем оказанных рыночных услуг связи и информатизации увеличился в пять раз (с 5 181,5 в до 24 508,1 в фактических ценах, млрд. сум). По состоянию на 2022 год, 60% из них составляют телекоммуникационные услуги, 20% – услуги компьютерного программирования, консалтинг и другие сопутствующие услуги, 10% – услуги в области информации.

Одним из приоритетов Стратегии «Цифровой Узбекистан – 2030» является увеличения экспорта в сфере информационных технологий до 100 млн. долларов к 2023 году. Фактически в 2023 году экспорт IT-услуг во всех регионах Узбекистана превысил плановые значения и достиг 344 млн. долларов. Анализируя динамику экспорта IT-услуг Республики с 2010 по 2022 годы стоит отметить неоднородную динамику экспорта разных видов

IT-услуг. Например услуги информационных агентств экспортировались только в 2019 году. Их стоимость составила 85,3 млн. долларов.

Большую часть услуг на всем рассматриваемом периоде составляют телекоммуникационные услуги. Их доля на всем рассматриваемом периоде значительно превышает долю остальных видов услуг. С 2010 по 2020 годы она превышала 90%. В 2021 году она составляла 86%, а в 2022 году – всего 59%, так как в последние годы более активно начали развиваться и другие виды услуг.

До 2017 года в Узбекистане отсутствовал экспорт компьютерных услуг и программного обеспечения. В 2020 и 2021 году его доля составляла 3%, а в 2022 году резко возросла до 18%. Доля прочих компьютерных услуг на всем рассматриваемом периоде изменялась незначительно (от 1 до 5%), но в 2022 году составила 13%. Аналогичная ситуация и с прочими информационными услугами, доля которых на всем рассматриваемом периоде составляла от 1 до 3%, году выросла до 7%, а в 2022 году до 9%.

В целом наиболее стремительный прирост объемов экспорта IT-услуг к значению предыдущего года отмечается в 2011 году (87%), и в 2022 году (69%).

Аналогичная ситуация в экспорте услуг в сфере информационно-коммуникационных технологий, в 2022 году зафиксирован рост относительно предыдущего года в 2 раза. Значение телекоммуникационных услуг значительно не изменилось, услуг по созданию программного обеспечения составил 11,8 раз, по прочим компьютерным услугам – 5,4 раз, по прочим информационным услугам – 2,3 раз (Рис 1).

*Рисунок 1 – Динамика экспорта IT-услуг Узбекистана с 2010 по 2022 годы*[7]

[7] AKT xizmatlari eksporti. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. URL: https://stat.uz/ru/




В 2022 году отмечается резкий рост экспорта товаров в сфере информационно-коммуникационных технологий в 3,7 раз относительно предыдущего года до 83 566,7 тыс. долл. США. Большую долю экспорта составляют аппаратура электронная бытовая (52%) и компьютерное и периферийное оборудование (34%)[8] (Рис. 2).

*Рисунок 2 – Экспорт товаров в сфере информационно-коммуникационных технологий Узбекистана с 2010 по 2022 годы*




Рост экспорта товаров и услуг в сфере информационно-коммуникационных технологий является результатом деятельности

[8] AKT tovarlari eksporti (yillik). O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. URL: https://stat.uz/ru/

предприятий Республики. С 2016 по 2023 год отмечается стабильный рост количества действующих предприятий и организаций в области связи (с 6 370 до 12 204). По состоянию на 1 января 2024 года из их числа осуществляют деятельность в области программирования (15%), предоставления услуг беспроводной связи (12%), предоставление телекоммуникационных услуг (9%) (Рис. 3).

*Рисунок 3 – Действующие предприятия и организации по виду экономической деятельности «Информация и связь» в разрезе видов деятельности по состоянию на 1 января 2024 года*




Некоторые из указанных выше организаций являются резидентами IT-парка. На начало 2024 года количество резидентов IT-парка достигло 1,7 тысячи, в них работают 26 тысяч человек. Стратегией «Цифровой Узбекистан – 2030» предусмотрено дальнейшее увеличение числа резидентов в 10 раз, количества рабочих мест до 100 тысяч, а также доведение объема экспорта в отрасли до 5 млрд. долларов.

В целях стимулирования экспортной деятельности в сфере информационных технологий с 2023 года в Республике осуществляется реализация программ «Zero Risk» и «Local to Global». Первая направлена на

привлечение организаций-экспортеров IT-услуг в регионы. Участвующим компаниям предоставляют бесплатное использование неиспользуемых государственных объектов и техники на срок до одного года и компенсируют расходы на найм и повышение квалификации сотрудников до 50%.

Вторая программа направлена на помощь отечественным IT-компаниям в выходе на мировой рынок. Она предусматривает «экспортное наставничество» ведущих мировых экспертов, а также компенсацию транспортных расходов потенциальных клиентов и компенсацию расходов на участие в международных выставках.

Кроме того, для стимулирования роста экспорта осуществляется привлечение молодежи к изучению иностранных языков и информационных технологий, а также привлечение иностранных компаний в регионы Узбекистана. Действующие меры способствуют положительной динамике показателей экспорта в сфере информационных технологий в следующие годы.

**Источники:**

1. Халилов Н.Х., Сафина Н.Т. Роль цифровизации в развитии социально-экономических систем в Республике Узбекистан // Colloquium-journal. 2022. №15 (138)

2. Эркинова, Ф. Особенности развития цифровой экономики в Узбекистане / Ф. Эркинова, Х. С. Хаджаев // Научный Лидер. – 2021. – № 6(8). – С. 46-50

3. Бобохужаев Ш.И. , Отакузиева З.М. Развитие цифровой экономики в Узбекистане и проблемы внедрения ИКТ в предприятиях

4. Хамдамов, Ш. 2023. Цифровизация и ее правовая основа в Узбекистане. Общество и инновации. 4, 6/S (авг. 2023), 121–124

5. Рахимов А.В. Особенности цифровой экономики в Узбекистане // Умная цифровая экономика. 2022. №3

6. AKT tovarlari eksporti (yillik). O’zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. URL: https://stat.uz/ru/

7. AKT xizmatlari eksporti. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. URL: https://stat.uz/ru/

## Ижтимоий-иқтисодий ривожланиш манфаатларида инсон капитали самарадорлигини таҳлил қилиш ва прогнозлашнинг услубий жиҳатлари

Зарипов Хуршид Закир ўғли

УрДУ "Иқтисодиёт" кафедраси ўқитувчиси

xurshidbek.zokirovich@gmail.com

**Аннотация:** Мақолада Жаҳон банки услубияти бўйича Ўзбекистон инсон капиталини тавсифлайдиган кўрсаткичлари ва Ўзбекистонда инсон капиталини баҳолаш кўрсаткичлари ёритилган. Шунингдек, минтақани ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришда инсон капитали унинг ҳаёти давомида шаклланаши ва босқичлари тўғрисидаги назарий қарашлар ўрганилган.

**Калитли сўзлар:** Инсон капитали, Жаҳон банки услубияти, иқтисодий тафаккур, инсон капитали даражаси.

**Аннотация:** В статье описаны показатели, описывающие человеческий капитал Узбекистана по методологии Всемирного банка и показатели оценки человеческого капитала в Узбекистане. Также изучены теоретические взгляды на формирование и этапы человеческого капитала в социально-экономическом развитии региона на протяжении его жизнедеятельности.

**Ключевые слова:** Человеческий капитал, методология Всемирного банка, экономическое мышление, уровень человеческого капитала.

**Abstract:** The article describes the indicators that describe the human capital of Uzbekistan according to the methodology of the World Bank and the indicators for evaluating the human capital in Uzbekistan. Also, theoretical views on the formation and stages of human capital in the socio-economic development of the region during its life have been studied.

**Key words:** Human capital, World Bank methodology, economic thinking, level of human capital.

Жаҳон банки тадқиқотларига кўра, инсон капиталининг улуши дунё бойликларининг учдан икки қисмини ташкил этади ва инсон капитали мамлакатларнинг ривожланишида табиий ва саноат ресурсидан кўра муҳимроқ роль ўйнайди. Жаҳон банкининг Ўзбекистон Республикаси бўйича 2022 йилги ҳисоботида «одамлар ва уларнинг инсон капиталига эътибор қаратиш» тавсиялари берилган. Жаҳон банки экспертлари шунга эътибор қаратадики, ўз олдига «2030 йилга келиб даромад даражаси ўртачадан юқори мамлакатга айланиш ва 2026 йилгача қашшоқликни икки баравар қисқартириш» каби улкан мақсадларни қўйган ҳолда, Ўзбекистон таълим сифатидаги камчиликларни бартараф этиши; мактабгача ва олий таълим олиш имкониятини яхшилаши; соғлиқни сақлаш тизимининг самарадорлиги ва ҳаммабоплигини ошириши; мамлакат бўйлаб сув таъминоти хизматларини яхшилаши; қашшоқликни ўлчаш тизимини ва унга қарши курашиш сиёсатини такомиллаштириши; заиф гуруҳларни жалб қилишни рағбатлантирадиган меҳнат бозори сиёсатини ишлаб чиқиши; муҳтожлар учун ижтимоий ҳимоя тармоқларининг қамрови ва етарлилигини ошириши лозим.

Инсон капитали ҳудудни ривожлантиришда муҳим ресурс ҳисобланади. Инсон капиталини малакали бошқариш тез иқтисодий ўсишга ҳисса қўшиши мумкин. Бу ҳудуднинг инсон капитали ривожланишининг мавжуд даражасини баҳолаш зарурлигини асослаб беради. Инсон капитали даражаси тўғрисидаги маълумотларнинг мониторинги қонуниятларни аниқлаш, ривожланиш тенденцияларини шакллантириш, таъсир омилларини аниқлаш ва прогнозлар қилиш, шунингдек ривожланиш мақсадларини аниқлаш ва уларга эришиш учун ҳаракат дастурини шакллантириш имконини беради.

Инсон капиталининг белгиланган таркибий қисмларини баҳолаш учун тадқиқотчи 2015 йилдан 2022 йилгача динамикада экологик ҳолатни, таълим (6 кўрсаткич), соғлиқни сақлаш (7 кўрсаткич), бандлик (6 кўрсаткич), инновация (3 кўрсаткич), аҳоли таркиби (5 кўрсаткич) соҳаларини тавсифловчи бир қатор макроиқтисодий кўрсаткичларни таҳлил қилди. Ўзбекистон Республикасида соғлиқни сақлаш, таълим ва инновация фаолиятини тавсифловчи кўрсаткичлар бўйича ижобий динамика кузатилмоқда.

Д.Х.Вахабова (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Макроиқтисодий ва ҳудудий тадқиқотлар институти) ўзининг хорижий мамлакатлар билан таққослаганда Ўзбекистон Республикаси илмий-инновацион сектори жорий ҳолатига бағишланган тадқиқотида ЯИМ ўсиш суръати ва миллий инсон капиталининг ўсиш суръати ўртасида тўғридан-тўғри боғлиқлик борлигини аниқлади.[1]

Л.Н.Хазраткулова (Тошкент давлат иқтисодиёт университети қошидаги «Ўзбекистон иқтисодиёти ривожланишининг илмий асослари ва муаммолари» илмий-тадқиқотчилик маркази) «Ўзбекистон минтақаларининг инсон салоҳияти» тадқиқотида аниқлашича, Ўзбекистонда инсон тараққиёти индексининг секин барқарор ўсиши билан таълим даражаси қабул қилиб бўлмайдиган даражада пастлигича қолмоқда. Тадқиқот муаллифи БМТ услубиятига мувофиқ Ўзбекистон минтақалари учун инсон капиталининг ривожланиш индексини ҳисоблаб чиқди.[2]

Жаҳон банки 2018 йилдан бери дунё мамлакатларининг инсон капитали индексини ҳисоблаб келмоқда. Индекс инсон туғилишидан 18 ёшгача бўлган ривожланиш траекториясини таҳлил қилади. Кўрсаткичлар орасида боланинг 5 ёшга тўлиши эҳтимоли, бошланғич ва ўрта мактаб таълимининг кутилаётган давомийлиги (йилларда), одамларнинг 15 ёшдан 60 ёшгача яшаш эҳтимоли бор.Жаҳон банкининг 2020 йилги ҳисоб-китобига кўра, Ўзбекистон Республикасининг инсон капитали индекси 62 фоизни

ташкил этади. Бунда қизларда индекс қиймати ўғил болаларга қараганда юқори (63% ва 61%). Бундан ташқари, Ўзбекистон аҳоли жон бошига ЯИМ асосида прогноз қилинганидан юқори натижага эга.[3]

**1-жадвал**

**Жаҳон банки услубияти бўйича Ўзбекистон инсон капиталини тавсифлайдиган кўрсаткичлар**

| Кўрсаткич | Қиймати |
|---|---|
| боланинг 5 ёшга тўлиши эҳтимоли | 98% |
| мактабда ўқишнинг кутилаётган давомийлиги | 12 йил |
| ягона тест натижалари | 474 балл (баҳолаш оралиғи 300 дан 625 баллгача) |
| таълим сифатига қараб тузатиш киритилган мактабда ўқишнинг давомийлиги | 9,1 йил |
| катталар ёшдаги аҳолисининг омон қолиш даражаси (15 ёшдан 60 ёшгача) | 87% |
| ўсиш сусткашлиги бўлмаган 5 ёшгача бўлган болаларнинг улуши | 89% |

Бошқа мамлакатлар тадқиқотчилари ҳам инсон капиталини баҳолаш учун турли методологияларни таклиф қилишади. Масалан, В.В.Богатирева (Полоцк Давлат университети, Беларус Республикаси) бошчилигидаги тадқиқот гуруҳи корхона даражасида инсон капиталини кўпайтиришни молиявий бошқариш методологиясини таклиф этади (микроиқтисодий таҳлил).

Тадқиқотчилар инсон капитали самарадорлик индикаторлари сифатида қийматни баҳолаш, қараш, ривожлантириш ва сақлаш харажатларининг ўсиши, инвестициялар самарадорлик коэффициенти, қийматни баҳолашнинг ўсиш бирлигига «инсон капитали» ишлаб чиқариш омили ҳисобига ишлаб чиқарилган маҳсулотни сотишдан олинган тушумнинг ўсиши, молиявий натижанинг ўсиш суръати, инсон капиталига инвестициялардан соф дисконтланган даромад қиймати, дисконтланган қийматни баҳолашдан фойдаланишни таклиф қилади.[4]

Шунингдек, микродаражада инсон капиталини алоҳида шахс даражасида ҳам баҳолаш ва таҳлил қилиш мумкин. Бу ҳолатда баҳолаш предмети, юқорида айтиб ўтилганлардан ташқари, базавий ва ривожланган инсон капитали, шунингдек, номоддий актив сифатида инсон капитали ҳисобланади.[5]

Инсон капиталини баҳолашда кўриб чиқилаётган ёндашувларнинг кучли ва заиф томонларини ҳисобга олган ҳолда, Ўзбекистон Республикаси ҳудудларининг инсон капиталини баҳолашда қуйидаги баҳолаш кўрсаткичларидан фойдаланиш таклиф этилади.

**2-жадвал**

**Ўзбекистонда инсон капиталини баҳолаш кўрсаткичлари**

| № | Кўрсаткич | Хусусиятлар | Манба |
|---|---|---|---|
| 1. | Минтақа бюджет харажатлари умумий ҳажмида «Таълим» харажатлари улуши, % | Нисбий кўрсаткич. "Таълим" соҳасини ривожлантириш бўйича харажатларнинг вилоят бюджетидаги улушини тавсифлайди. У "Таълим" харажатларининг вилоят бюджети харажатларининг умумий ҳажмига нисбати сифатида ҳисобланади | Маҳаллий бюджетнинг асосий параметрлари (ҳар бир минтақа учун алоҳида) https://data.egov.uz/ |
| 2. | Минтақа бюджет харажатлари умумий | Нисбий кўрсаткич. "Соғлиқни сақлаш" соҳасини ривожлантириш бўйича | Маҳаллий бюджетнинг асосий параметрлари (ҳар бир |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | ҳажмида «Соғлиқни сақлаш» харажатлари улуши, % | харажатларнинг минтақа бюджетидаги улушини тавсифлайди. У "Соғлиқни сақлаш" харажатларининг вилоят бюджети харажатларининг умумий ҳажмига нисбати сифатида ҳисобланади | минтақа учун алоҳида) https://data.egov.uz/ |
| 4. | Минтақа аҳолисининг умумий даромадлари, минг сўм | Мутлақ кўрсаткич. Ижтимоий фондлар ҳисобидан аҳолига кўрсатиладиган бепул ёки имтиёзли хизматлар нархини ҳисобга олган ҳолда, уларни олишнинг барча манбалари бўйича вилоят аҳолисининг пул ва табиий даромадларининг умумий миқдорини тавсифлайди | Миллий ҳисоблар (йиллик). Миллий ҳисоблар. Очиқ маълумотлар. Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Статистика агентлиги. https://stat.uz/ru/ofitsialnaya-statistika/national-accounts |
| 5. | Минтақадаги кам таъминланган аҳоли улуши, % | Нисбий кўрсаткич. Уй хўжаликлари танлама тадқиқоти маълумотларига мувофиқ ҳисобланади. 2001-2020 йилларда Жаҳон банкининг тавсиясига биноан кунига 2100 килокалория асосида кам таъминланганлик бўйича ҳисоблаб чиқилган. 2021 йил учун Вазирлар Маҳкамасининг 2021 йил 27 августдаги 544-сонли қарорига биноан аҳоли даромадларини минимал истеъмол харажатлари миқдори билан таққослаш йўли билан ҳисоблаб чиқилган | Кам таъминланган аҳоли улуши. Аҳолининг турмуш даражаси. Очиқ маълумотлар. Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Статистика агентлиги. https://stat.uz/ru/ofitsialnaya-statistika/living-standards |
| 6. | Минтақа аҳолиси ҳар 1000 кишига туғилиш кўрсаткичлари коэффициенти, промилле | Нисбий кўрсаткич. Минтақа аҳолиси ҳар 1000 кишига йиллик туғилишлар сони сифатида ҳисобланади | Туғилиш кўрсаткичлари коэффициенти. Демография. Аҳолининг турмуш даражаси. Очиқ маълумотдар. Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Статистика агентлиги. https://stat.uz/ru/ofitsialnaya-statistika/demography |
| 7. | Минтақа аҳолиси ҳар 1000 кишига ўлим | Нисбий кўрсаткич. Минтақа аҳолиси ҳар 1000 кишига йиллик ўлимлар сони | Ўлим кўрсаткичлари коэффициенти. Демография. |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | кўрсаткичлари коэффициенти, промилле | сифатида ҳисобланади | Аҳолининг турмуш даражаси. Очиқ маълумотдар. Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Статистика агентлиги. https://stat.uz/ru/ofitsialnaya-statistika/demography |

Таклиф этилаётган кўрсаткичлар тўлиқроқ баҳолашга имкон беради, чунки улар минтақада инсон капиталининг шаклланишига таъсир қилувчи барча соҳаларга (соғлиқни сақлаш, таълим, демография, меҳнат бозори, ахборотлаштириш, турмуш даражаси, бюджет харажатлари) тегишли. Маълумотларнинг ишончлилиги ва тўлиқлиги манбалар Ўзбекистон Республикасининг расмий статистикаси (https://stat.uz/ru /) ва Ўзбекистон Республикаси очиқ маълумотлар портали (https://data.egov.uz /) эканлиги билан тасдиқланади.

Агар мақсад маълум бир минтақанинг инсон капиталининг ҳозирги даражасини баҳолаш бўлса, унда таклиф қилинган кўрсаткичлар рўйхати асосида тахмин қилинган давр қийматларини баҳолаш таклиф этилади.

Муайян вақт оралиғидаги кўрсаткичларнинг қийматларини таққослаш ва минтақанинг инсон капитали ривожланиш тенденциясини ёки минтақанинг ижтимоий-иқтисодий ривожланиш прогнозини яратиш учун динамикадаги кўрсаткичларнинг қийматларини баҳолаш мумкин. Қоидага кўра, ушбу манбалардаги маълумотлар сўнгги 20 йил учун тақдим этилади.

Икки ёки ундан ортиқ минтақаларда инсон капиталининг ривожланиш даражасини таққослаш учун ҳар бир минтақани тақдим этилган кўрсаткичлар рўйхати бўйича баҳолаш мумкин.

Шундай қилиб, алоҳида бир шахс, фирма, ҳудудий бирлик даражасида инсон капиталини таҳлил қилиш ва баҳолашда турли хил услубий

ёндашувлар мавжуд. Тадқиқотчилар минтақалар ва давлатларнинг ижтимоий-иқтисодий ривожланишини таҳлил қилиш учун инсон капитали даражасини тавсифловчи кўрсаткичлардан фойдаланадилар. Халқаро ташкилотлар интеграл кўрсаткичлар сифатида йиғма индекслардан, шунингдек, инсон капиталининг ривожланиш даражаси ва дунёнинг турли давлатлари ва минтақаларининг инсон салоҳиятини таққослаш имконини берувчи баҳолаш стандартларидан фойдаланишни таклиф қилмоқда.

## Фойдаланилган адабиётлар рўйхати


1. The Human Capital Project: Frequently Asked Questions. The world bank group. - URL: https://www.vsemirnyjbank.org/ru/publication/human-capital/brief/the-human-capital-project-frequently-asked-questions
2. Вахабова Д. Х. Оценка влияния интеллектуального капитала на экономический рост // Человеческий капитал и профессиональное образование.
3. Хазраткулова Л.Н. Человеческий потенциал регионов Узбекистана — исследование (02.11.2021)// Review.uz https://review.uz/post/chelovecheskiy-potencial-regionov-uzbekistana-issledovanie
4. “World Bank. 2020. The Human Capital Index 2020 Update: Human Capital in the Time of COVID-19. © World Bank, Washington, DC. http://hdl.handle.net/10986/34432 License: CC BY 3.0 IGO.”
5. Богатырёва В. В. Финансовое управление воспроизводством человеческого капитала в инновационной экономике : теория, методология, моделирование / В. В. Богатырёва. – Новополоцк: ПГУ, 2013. – 400 с.
6. Критский М.М. Человеческий капитал. Л.: Изд-во Ленингр. ун-та. 1991. Стукач Ф.В., Лалова Е.Ю. Формирование и оценка базового человеческого капитала сельского хозяйства // Омский научный вестник. № 4-111/2012

# KORXONALAR MOLIYAVIY FAOLIYATIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI MAZMUNI VA ULARDAN FOYDALANISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

**Kuziyev B.K., O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi Moliya va moliyaviy texnologiyalar mutaxassisligi 22-17-guruhi magistranti**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada korxonalar moliyaviy faoliyatida axborot texnologiyalari mazmuni va ulardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari yoritilgan.
**Kalit so'zlar:** Korxona, korxona faoliyati, faoliyat, moliyaviy faoliyat, soha.

Bugungi kunda korxonalarda moliyaviy faoliyati muhim o'rinni egallaydi. Shunisi muhimki, korxonaning tashkiliy va boshqaruv ishlarida korxona moliyaviy faoliyati alohida o'rin tutadi. Ishlab chiqarish faoliyatini moliyaviy qo'llab-quvvatlashning o'z vaqtida va to'liqligi, shuningdek korxonaning shakllanishi, davlat va boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlar oldidagi moliyaviy majburiyatlarning bajarilishi bevosita ushbu faoliyatga bog'liq bo'ladi. Korxonaning moliyaviy faoliyati - korxonalarning moliyaviy kafolatlangan ishlashi va ularning aniq maqsadlariga erishish uchun turli shakl va usullardan foydalanish tizimi, ya'ni korxonaning hayotiy faoliyatini ta'minlaydigan va uning natijalarini yaxshilaydigan korxona amaliy faoliyati majmuidir. Shundan kelib chiqib, korxonaning moliyaviy faoliyati quyidagi asosiy vazifalarni hal qilishga qaratilgan bo'ladi:

- joriy ishlab chiqarish ishlarini moliyaviy ta'minlash;

- daromad, foyda, daromadlilik va to'lov qobiliyatini oshirish uchun zaxiralarni qidirish;

- xo'jalik yurituvchi subyektlar, budjet va banklar oldidagi moliyaviy majburiyatlarni bajarish;

- ishlab chiqarish va ijtimoiy rivojlanishni moliyalashtirish hamda shaxsiy kapitalni rivojlantirish uchun zarur moliyaviy resurslarni safarbar qilish;

- moliyaviy resurslarning samarali, maqsadli taqsimlanishi va ishlatilishini nazorat qilish.

Moliyaviy faoliyatni amalga oshiruvchi korxonalar o'zlarining to'lov qobiliyatini ta'minlash, ishlab chiqarishni davom ettirish uchun yetarli resurslarga

ega bo‘lishi natijasida biznesni yaratilgan daromad olish uchun amalga oshiradilar. Korxona moliyaviy faoliyatining eng keng tarqalgan turlari tarkibiga yakuniy iste’molchi bilan ishlashga qaratilgan moliyaviy faoliyatni tahlil qilish, jumladan daromadlarni baholash, prognozlar, talab darajasi bo‘yicha tadqiqotlar olib borish, foydalaniladigan mahsulotlar va materiallarni yetkazib beruvchilarga to‘lovlarni amalga oshirish, soliqlarni to‘lash uchun moliyaviy mablag‘lar, shuningdek budjetga boshqa to‘lovlarni yuborish. xodimlarga ish haqi to‘lash, moliyaviy mablag‘larni kreditlar va ularning foizlari hisobiga yo‘naltirish hamda boshqa maqsadlar uchun moliyaviy to‘lovlarni amalga oshirish kabilar kiradi.

Korxonaning faoliyati turli yo‘nalishlarda talqin qilinib, ular tarkibida moliyaviy faoliyat alohida o‘rinni egallaydi (1-jadval).

**1-jadval**

**Korxona faoliyati yo‘nalishlari**

| Joriy (operatsion) | Sarmoya | Moliyaviy |
|---|---|---|
| bu korxonaning asosiy faoliyati, uni yaratishning maqsad va vazifalariga muvofiq, asosiy maqsad sifatida foyda olishga intiladi | bu foyda olish yoki boshqa foydali samaraga erishish uchun korxonaning kapital qo'yilmalari bilan bog'liq faoliyat | Bu qisqa muddatli moliyaviy investitsiyalar, uzoq va qisqa muddatli kreditlar va qarzlarni jalb qilish va boshqalar bilan bog'liq faoliyat |

Mazkur jadvalga asosan, korxona faoliyati joriy (operatsion), sarmoyaviy va moliyaviy shakllarda amalga oshiriladi.

Korxonaning tashqi va moliyaviy rejalari - pul operatsiyalari, ularni tahlil qilish va nazorat qilish natijasida olingan ba’zi iqtisodiy va boshqa natijalaridir. Uning ushbu tashqi va moliyaviy natijalarini olish muddati majburiy bo‘lib hisoblanadi. Bunday holatda oraliq maqsadlarni belgilash mumkin va ularning turlari ham hisobga olinadi. Korxonaning moliyaviy-iqtisodiy faoliyati natijalari noiqtisodiy va ichki iqtisodiy turlarga bo‘linishi mumkin.

Korxona moliyaviy faoliyatining iqtisodiy maqsadlari uning qiymatining oshishi yoki korxona yaqin kelajakda erishishi mumkin bo‘lgan boshqa moliyaviy natijalari bo‘lib qaraladi. Korxonada moliyaviy faoliyati iqtisodiy bo‘lmagan maqsadlar ham mavjud bo‘lib, unga korxona pullari bilan bog‘liq bo‘lmagan boshqa unsurlar kiradi. Bunlarga korxona ijtimoiy mavqeini o‘sishi, uning bozordagi ta’siri, tovar xabardorligi, mijozlar soni, sherik bo‘lishni istagan tashkilotlarning o‘sishi, yangi sotuvchilar, yetkazib beruvchilar bilan hamkorlik va boshqalar kiradi. Korxona moliyaviy faoliyatining maqsadlari qat’iy individualdir.

Chunki, ular korxonaning bozor, jamiyat va mijozlar orasidagi o‘ziga xos holati, konsepsiyasi va roliga bog‘liqdir. Ushbu omillarga asoslanib, har bir rahbar korxona moliyaviy faoliyati natijasida erishadigan maqsadini mustaqil ravishda hal qiladi.

Korxona moliyaviy faoliyatining maqsadlariga qarab, uning usullari tanlanadi. Ko‘pincha korxona moliyaviy faoliyati samaradorligiga xodimlarning ichki qadriyatlari ta’sir qiladi. Ammo, ularning ba’zilari oddiy ijrochi kabi ishni bajarish uchun emas, ya’ni barcha uchun foydali natijaga erishish uchun umumiy qarashlarni baham ko‘rishlari lozim. Har bir xodim korxona moliyaviy faoliyatining maqsadini tushunishi lozim. Ammo, mas’uliyatli lavozimlarda bo‘lgan xodimlar rahbarining intilishlarini aniq tushunishlari va ma’qullashlari lozim. Faqat shu tarzda natijani kafolatlaydigan muvofiqlashtirilgan ishlarga erishish mumkin.

Korxonalar moliyaviy faoliyati uchun axborot texnologiyalari va ularni qo‘llash muhim ahamiyatga ega bo‘ladi. Ushbu texnologiyadan foydalanish o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, turli sohalar majmuini o‘ziga qamrab oladi. Axborot texnologiyalari o‘zining yirik yo‘nalishiga ega bo‘lib, bu axborot texnologiyalari industriyasi sifatida uning tarkibini kompyuter, aloqa tizimi, ma’lumotlar ombori, bilimlar ombori va u bilan bog‘liq faoliyat sohalari tashkil qiladi [1].

Turli korxonalarda axborot texnologiyalari o‘ziga xos xususiyatlarga egaligi bilan ajralib turadi. Chunki, axborot texnologiyalari tashkiliy boshqaruv axborot tizimining asosiy tarkibiy qismi bo‘lib, korxona faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlari bilan bevosita bog‘liq. Shundan kelib chiqib, avtomatlashtirilgan axborot texnologiyalarini tashkil etish strategiyasini tanlash quyidagi omillar bilan belgilanadi;

- korxonani faoliyat sohasi;

- korxonani turi:

- ishlab chiqarish-xo‘jalik yoki boshqa faoliyat;

- korxonani boshqarish uchun qabul qilingan model;

- boshqaruvdagi yangi vazifalar:

- axborot infratuzilmasi va boshqalar.

Korxonalarda zamonaviy shakldagi axborot texnologiyalarini samarali taraqqiy qildirish uchun raqamli iqtisodiyotni shakllantirish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Raqamli iqtisodiyot ko‘p qirrali faoliyat bo‘lib, unda raqamli axborot va

bilimlar ishlab chiqarishning asosiy omili sifatida qo‘llaniladi, zaruriy faoliyat maydoni tariqasida zamonaviy axborot tarmog‘i iqtisodiyot strukturasini optimallashtirish va unumdorlikni oshirishning yetakchi omili tariqasida axborot-kommunikatsion texnologiyalari samarali qo‘llaniladi [2].

Korxonalar quyidagi guruhlarga bo‘linadi: kichik, o‘rta va yirik.

- *kichik*. Kichik korxonalarda faoliyatning turli sohalarida axborot texnologiyalari buxgalteriya hisobi muammolarini hal qilish, biznes-jarayonlar turlari bo‘yicha ma’lumotlarni to‘plash, kompaniya va telekommunikatsiya muhitini tashkil etish yo‘nalishi bo‘yicha axborot ma’lumotlar bazalarini yaratish bilan bog‘liq. Unda foydalanuvchilarni o‘zlari va boshqa korxonalar va tashkilotlar bilan bog‘lash amalga oshiriladi.

- *o‘rta*. O‘rta korxonalarda boshqaruv bo‘g‘ini uchun elektron hujjat aylanishining ishlashi va uni biznes jarayonlariga bog‘lash katta ahamiyatga ega. Bunday korxonalar uning faoliyati bilan bog‘liq hal qilinadigan funksional vazifalar doirasini kengaytirish, hujjatlarni turli shakllanda to‘plashga imkon beradigan avtomatlashtirilgan saqlash va axborot arxivlarini tashkil etish, ularning tuzilishi, qidirish imkoniyatlari, ruxsatsiz kirishdan olingan ma’lumotlarni himoya qilish kabilardan saqlash va ulardan foydalanishni tashkil etish shakllari imkoniyatlarini oshirish ma’lumotlaridan iborat bo‘lib, kirishni farqlash, qidiruv vositalarini kengaytirish, saqlash ierarxiyasi, tasniflash va boshqalarga ega bo‘ladi.

O‘rta korxonalar axborot texnologiyalarini tashkil etishdagi qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun korxonaning turli funksional bo‘linmalarida bir nechta serverlar qo‘llaniladi. Ushbu korxonalarning mahalliy kompyuter tarmog‘i ikki darajali kompyuter tarmog‘i bo‘lib, uning yuqori darajasida mahalliy serverlar o‘rtasida ma’lumot almashish uchun aloqa muhiti tashkil etilgan bo‘ladi. Pastki qismida esa har bir funksional bo‘linmani mahalliy kompyuter tarmoqlarini mahalliy serverga ulash, foydalanuvchilarga o‘zaro ma’lumot almashish va korporativ resurslardan foydalanish imkoniyatini ta’minlash amalga oshiriladi.

- *yirik*. Yirik korxonalarda axborot texnologiyalari telekommunikatsiya vositalari, ko‘p mashinali komplekslar, rivojlangan mijoz-server arxitekturasi va yuqori tezlikdagi korporativ kompyuter tarmoqlaridan foydalanishni o‘z ichiga olgan zamonaviy dasturiy-apparat kompleksi asosida qurilmoqda. Yirik korxonaning korporativ axborot texnologiyalari uch darajali ierarxik tuzilmalarga ega. Korxonaning hududiy jihatdan qayta yaratilgan bo‘linmalar tuzilishiga muvofiq tashkil etiladi. Ushbu tizimning markaziy serveri markaziy idoralarda, mahalliy serverlar esa bo‘linma va filiallarda, tarkibiy bo‘linmaning mahalliy

kompyuter tarmoqlarida tashkil etilgan mijozlar stansiyalarida va filialda esa korxona xodimlari o‘rtasida o‘rnatiladi.

Shunga asosan, korxonalarda axborot texnologiyalari resurs sifatida namoyon bo‘ladi (1-rasm).




**1-rasm. Axborot texnologiyalarini resurs sifatida namoyon bo‘lishi**

Korxonada axborot texnologiyalaridan foydalanishning maqsadi obyektlar va jarayonlarni boshqarishdagi muammolarni hal qilishdir. Hozirgi kunda korxonalarni boshqarish va ijtimoiy hayotning boshqa sohalarida axborot texnologiyalaridan foydalanishning rolini baholash murakkab ahamiyat kasb etadi. Inson resurslari mavjud bo‘lgan barcha sohalarda sezilarli o‘zgarishlar tendensiyasi mavjud. Korxona rahbarlari barcha jarayonlarni iloji boricha optimallashtirishga va olingan foydani oshirishga harakat qilmoqdalar.

Axborot texnologiyalari - jarayonlar, ma’lumotlarni qidirish, to‘plash, saqlash, qayta ishlash, taqdim etish, tarqatish usullari va bunday jarayonlar va usullarni amalga oshirish usullari; ma’lumotlarni yig‘ish, saqlash, qayta ishlash, uzatish va ulardan foydalanish funktsiyalarini bajarishda kompyuter texnologiyalaridan foydalanish usullari, usullari va usullari; ma’lumotlarni yig‘ish, qayta ishlash, qayta ishlash, qayta ishlash, qayta ishlash, qayta ishlash, saqlash va tarqatish majmuidir. Axborot texnologiyalari sohasi axborot tizimlarini yaratish, rivojlantirish va ulardan foydalanish bilan shug‘ullanadi.

Axborot texnologiyalari kompyuter texnologiyalari va boshqa yuqori texnologiyalar, eng yangi aloqa vositalari, dasturiy ta’minot va amaliy tajriba

sohasidagi zamonaviy yutuqlarga asoslanib, inson hayoti va zamonaviy jamiyatning barcha sohalarida vaqt, mehnat, energiya va moddiy resurslar sarfini kamaytirish uchun axborot jarayonini samarali tashkil etish muammolarini hal qilishga chaqiriladi. Axborot texnologiyalari o‘zaro ta’sir qiladi va ko‘pincha tarkibiy qism sifatida xizmat ko‘rsatish sohalari, boshqaruv sohalari, sanoat ishlab chiqarishi va ijtimoiy jarayonlarga kiradi.

Zamonaviy iqtisodiyotda axborot texnologiyalari muhim o‘rinni egallaydi. Jahon hamjamiyati rivojlanishining ushbu bosqichida kompyuter sanoatining barcha resurslari an’anaviy iqtisodiy jarayonlarni avtomatlashtirishga qaratilmoqda. Axborot iqtisodiyotida ko‘zda tutilgan elektron texnologiyalardan faol foydalanish jamoat tovarlari, ijtimoiy ishlab chiqarishni yanada qulayroq shaklda taqsimlash va iste’mol qilishga olib keladi. Axborot texnologiyalarining butun jamiyat, iqtisodiyot, ijtimoiy munosabatlar, madaniyat, ta’lim, psixologiya, tibbiyot va boshqa sohalarga ta’sir qiladi. Zamonaviy dunyoda ular har qanday korxonaning ajralmas qismi hisoblanadi. Kompyuter texnologiyalari aniq shakllangan biznes maqsadini amalga oshirish natijasidir. Axborot texnologiyalariga sarmoya kiritishdan oldin korxona ehtiyojlarini obyektiv o‘rganish va axborot tizimining zamonaviy korxonalar qiyofasini shakllantirish, ularning rivojlanish imkoniyatlari va istiqbollariga ta’sirini to‘liq baholash lozim bo‘ladi. Shu orqali korxonalar moliyaviy faoliyatida axborot texnologiyalari muhim o‘rinni egallab, korxona faoliyatini barqaror rivojlanishi ulardan samarali foydalanishga bevosita bog‘liq.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro ‘yxati:**

1. Djabbarova Z.S., Jumaniyazova R.Q. Turizm sohasida axborot texnologiyalarining tutgan o’rni. // “O‘zbekistonda milliy tadqiqotlar: Davriy anjumanlar” mavzusidagi respublika 36-ko‘p tarmoqli ilmiy masofaviy onlayn konferensiya materiallari to‘plami, 31 yanvar 2022 yil. - Toshkent: «Tadqiqot», 2022. - 27 b.

2. How big is China’s Digital economy? Bruegel, Working Paper, Issue 04, 17 May, 2018.

3. https://www.statista.com/outlook/fmo/corporate-finance/worldwide

# KORXONA FAOLIYATIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH BO‘YICHA TADQIQOTLAR MAZMUNI

**Kuziyev B.K., O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi Moliya va moliyaviy texnologiyalar mutaxassisligi 22-17-guruhi magistranti**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada korxona faoliyatida axborot texnologiyalaridan foydalanish bo‘yicha tadqiqotlar mazmuni yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** Korxona, korxona faoliyati, moliyaviy faoliyat, soha.

Korxonalar moliyaviy faoliyatida axborot texnologiyalarining mazmuni va ulardan foydalanish yuzasidan ko‘pgina tadqiqotlar olib borilgan. Bu holatni biz o‘rgangan nazariy va empirik adabiyotlar tahlilida ko‘rib chiqamiz. Korxonalar kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining shakli bo‘lib qaraladi. Hozirgi kunda mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish bo‘yicha belgilangan vazifalarni amalga oshirish mazkur soha faoliyatini moliyalashtirishni takomillashtirishga uzviy bog‘liqdir. Bunda kichik biznes korxonalari faoliyatini moliyalashtirishning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlab olish ayni muddaodir [1].

Korxonalar faoliyati xilma-xil va keng tarmoqli bo‘lib, ulardan muhim turi moliyaviy faoliyat bo‘lib hisoblanadi va faol tadqiqotlar olib borilgan. Moliyaviy faoliyat deganda korxonalarning mablag‘larni qarzga olish, qimmatli qog‘ozlarni chiqarish va sotish, xususiy kapitalni beg‘araz moliyaviy yordam, tekin olingan mulk, a’zolik badallari, grant, subsidiya va dotatsiyalar evaziga ko‘paytirish bilan bog‘liq munosabatlar majmuasi tushuniladi [2]. Korxonalar faoliyatini chuqur o‘rganish uchun uning faoliyatini tahlil qilish lozim. Bu borada ba’zi tadqiqotlar olib borilgan. Korxonalar moliyaviy holati tahlilining maqsadini belgilashni quyidagicha amalga oshirish mumkin:

- erishilgan moliyaviy natijani uning hajmi va nisbiy kattaligi nuqtai nazaridan baholash;

- qanday omillar ta’sirida shakllanganligini aniqlash;

- foydani oshirish imkoniyatlarini o‘rganish;

- korxona moliyaviy holatini mustahkamlashni ta’minlash.

Korxonalarning moliyaviy faoliyatini rivojlantirishga axborot-kommunikatsiya tizimi bevosita ta’sir ko‘rsatib, olib borilgan tadqiqotlarda yangi innovatsion no‘nalish bo‘lib hisoblanadi. Bugungi kunda mamlakatimizda aloqa va axborot-kommunikatsiya tizimi sohasini innovatsion yo‘nalish bo‘yicha istiqbolli rivojlantirish quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshmoqda [3]:

- telekommunikatsiyalar infratuzilmasi;
- statsionar va uyali aloqa;
- uyali aloqa bozori;
- internet tarmog‘i;
- axborot va ma’lumotlardan foydalanishning uz domen zonasi;
- axborot resurslari;
- axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida savodxonlik;
- axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishda ishonch va xavfsizlikni mustahkamlash;
- huquqiy-me’yoriy bazaning rivojlanishi;
- elektron hukumat va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlaridan davlat boshqaruvida foydalanish;
- interaktiv davlat xizmatlarini ko‘rsatish;
- elektron ta’lim;
- elektron sog‘liqni saqlash;
- elektron bandlik;
- ommaviy axborot vositalari.

Axborot-kommunikatsiya tizimlarini amaliyotga tadbiq qilish bo‘yicha ham tadqiqotlar olib borilgan. Axborot-kommunikatsiya tizimlari yuqori rahbariyatning intiluvchanligini oshirish, iqtisodiy faoliyatni o‘zaro hamkorlik asosida boshqarilishini tashkil qilish, boshqaruv jamoasining a’zolarini keng jalb qilish, jamoaning qatnashishini to‘la ta’minlash, a’zolarning shaxsiy ishtirokini ta’minlash, tizimlar va jarayonlarni takomillashtirish, ta’minotchilarni keng jalb qilish, boshqaruv tizimlarining sifatli faoliyat yuritishini ta’minlash, taktika va strategiya ishlab chiqish, rag‘batlantirish tizimini yaratish kabi chora-tadbirlarning amalga oshirilishini ta’minlaydi.

Korxonada axborot-texnologiyalaridan foydalanishda turli jarayonlar avtomatlashtiriladi va bu boradagi tadqiqotlar ham ushbu fikrimizni yaqqol tasdiqlaydi. Biznes-jarayonlarni avtomatlashtirishning asosiy maqsadi kompaniya faoliyati, ya’ni kontragentlar bilan tuzilgan shartnomalar, yetkazib beruvchilarga joylashtirilgan buyurtmalar, xaridorlardan olingan buyurtmalar, omborlardagi tovar-moddiy boyliklar qoldiqlari, debitorlik va kreditorlik qarzlari haqida tezkor, ishonchli ma’lumot olish hisoblanadi. Korxona va tashkilotlarni hisobga olishda mavjud texnologiyalaridan foydalanish yordamida bir zayldagi ishlar qisqartiriladi, xo‘jalik yurituvchi subyekt faoliyatini tashkil etish, tahlil qilish va nazorat qilish uchun vaqt ajratiladi. Korxonalarda axborot texnologiyalari asosida elektron

shaklda axborotlar uzatiladi. Bu borada amalga oshirilgan tadqiqotlar axborotlarning nechog‘liq ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi. Elektron tarmoqlar axborot uzatishda muhim hisoblanadi, tobora ko‘p tashkilotlar undan foydalanmoqdalar.

Korxonalar faoliyatida, xususan moliyaviy faoliyatida axborot texnologiyalari ko‘p bosqichli jarayon ekanligi ba’zi olib borilgan tadqiqotlarda o‘z aksini topadi. Korxonalar moliyaviy faoliyatiga axborot texnologiyalarini joriy etish quyidagi bosqichlarda amalga talab etiladi [4]:

- amalga oshirish metodikasini tanlash;
- axborot tizimini tanlash.

Tadqiqotlarga ko‘ra, axborot texnologiyalari turli vositalar orqali ko‘rsatilishi mumkin va bu borada korxonalar moliyaviy faoliyati boshqaruvida korporativ axborot texnologiyalari joriy etilib, turli usullar orqali amalga oshiriladi. Ularning tanlovi korxona maqsad va imkoniyatlariga (biznes-reja va boshqaruv tuzilmasining samaradorligi), shuningdek joriy etilayotgan axborot texnologiyalari xususiyatlariga bog‘liq bo‘lib, ular quyidagi turlarga bo‘linadi:

- axborot texnologiyalarini keng miqyosda joriy etish;
- axborot texnologiyalari modelini izchil qurish;
- “biznesning eng yaxshi amaliyoti tizimda” tamoyili asosida amalga oshirish.

Bugungi kunda korxonani boshqarishning avtomatlashtirilgan tizimlari sifatida foydalanish uchun ko‘p keng ko‘lamli dasturiy ta’minotlar mavjudligini boshqa tadqiqot ishlarida yaqqol kuzatishimiz mumkin. Dasturiy ta’minot tizimlarining har biri muayyan muammolarni hal qilish uchun mo‘ljallangan, o‘zining afzalliklari va kamchiliklariga ega. Biroq, korporativ axborot tizimlarining tatbiq etilishi muvaffaqiyatli emas, ya’ni jahon statistikasi ko‘rsatkichlari tasdiqlaydi. Axborot tizimlarini joriy etishdagi asosiy qiyinchiliklar quyidagi asosiy jihatlar bilan bog‘liq bo‘ladi:

- dasturchilar tomonidan belgilab qo‘yilgan tizimni imkoniyatlari va uning konfiguratsiyasi;

- korporativ axborot tizimlarini amalga oshirishga jalb qilingan mutaxassislarni tayyorlash darajasi;

- korxonaning amalga oshirishga tayyorlik darajasi va uning tuzilishining xususiyatlari.

Korxonalar faoliyatida axborot texnologiyalari turli bosqichlarda rivojlanib borishi yana boshqa bir tadqiqotlarda isbotlangan. Axborot texnologiyalari rivojlanishining zamonaviy bosqichida korporativ axborot tizimlarini yaratishning komponent texnologiyasi o‘ziga jalb etadi va istiqbolli yo‘nalish bo‘lib hisoblanadi. Hakiqatan ham, u o‘z kuchlari bilan tizimlarni ishlab chiqishga xos

bo‘lgan axborot tizimining zaruriy komponentlarini tanlashdagi o‘zgaruvchanlikni tijorat dasturiy maxsulotlariga xos bo‘lgan ko‘p karra foydalanib tekshirishlardan o‘tkazilgan kodning ishonchliligi va funksiyalarning to‘liqligi bilan birlashtiradi.

Xulosa shuki, korxonalarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini boshqarishdan asosiy maqsad qarorlarni qabul qilish jarayonlariga aloqasi bo‘lgan firma barcha xodimlarining axborot ehtiyojlarini qondirish shakli ekanligi quyidagi olib borilgan tadqiqotlarda keng namoyon bo‘ladi. U boshqarishning istalgan darajasida foydali bo‘lishi mumkin. Shunga muvofiq, korxonalarda avtomatlashtirilgan ofis yaratiladi. Avtomatlashtirilgan ofisning axborot-kommunikatsiya texnologiyalari - kommunikatsiya jarayonlarini korxona va tashqi muhit bilan axborot uzatish va u bilan ishlashning kompyuter tarmoqlari va boshqa zamonaviy vositalar negizida tashkil etish va qo‘llab-quvvatlashdir Shular bilan birga, tadqiq qilingan korxonalarda kompyuter tarmoqlari axborot texnologiyalarining namunasi bo‘lib hisoblanadi. Kompyuter tarmog‘i - aloqa liniyalari, tarmoq kartalari orqali birlashtirilgan va tarmoq operatsion tizimida ishlaydigan kompyuterlar va boshqa kompyuter uskunalari (faol tarmoq uskunalari, printerlar, skanerlar va boshqalar) yig‘indisidir.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**


1. **Juzbayev A. Kichik biznes korxonalari faoliyatini moliyalashtirishning o‘ziga xos xususiyatlari. // Biznes-ekspert, №2, 2020.** - 100 b.

2. Po‘latov X.O‘. Savdo korxonalarida moliyaviy faoliyati hisobining metodologik masalalari. // “Экономика и социум”, №6 (109), 2023. www.iupr.ru

3. Shakarov Q.A. Jamiyatni axborotlashtirish sharoitida iqtisodiy mezonning o‘rni va xususiyatlari. / “Axborot va telekommunikatsiya texnologiyalari muammolari mavzusidagi” respublika ilmiy-texnik konferensiyasining ma’ruzalar to‘plami, Toshkent, 2016-yil, 2-qism. - 475 b.

4. Alixonov M.P. Korxonalar moliyaviy faoliyatining iqtisodiy modelini tuzishda axborot texnologiyalardan foydalanish. // “Экономика и социум” №4(95)-2, 2022. - 42 b. www.iupr.ru

# 2-SEKSIYA MINTAQADA YASHIL IQTISODIYOTNI SHAKLLANTIRISH OMILLARI VA MAVJUD SHARTSHAROITLARI.

## МИНТАҚА ИҚТИСОДИЁТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА РАҚАМЛИ ВА ЯШИЛ ИҚТИСОДИЁТНИ АҲАМИЯТИ

**Абдуллаев И.С -Урганч Давлат университети Ижтимоий-иқтисодий фанлар факультети декани, иқтисодиёт фанлари доктори, профессор**

**Аннотация.** Ушбу тезисда минтақа иқтисодиётини ривожлантиришда рақамли ва яшил иқтисодиётни аҳамияти таҳлил қилиниб, барқарор ривожланишга эришиш учун рақамли иқтисодиёт тизимини рақамли инфратузилма, рақамли саноатлаштириш асосида такомиллаштириш бўйича таклиф берилган.

**Аннотация.** В данном тезисе анализируется значение цифровой и зеленой экономики в развитии региональной экономики, а также вносится предложение по совершенствованию системы цифровой экономики на основе цифровой инфраструктуры и цифровой индустриализации в целях достижения устойчивого развития.

**Abstract.** This thesis analyzes the importance of the digital and green economy in the development of the regional economy, and also makes a proposal to improve the digital economy system based on digital infrastructure and digital industrialization in order to achieve sustainable development.

Бугунги кунда жаҳон ва миллий иқтисодиётларнинг барқарор ривожланиши ва ўсишини таъминлашнинг устувор вазифаларидан бири яшил иқтисодиёт ва рақамлаштиришни жадал ривожлантириш ва амалий жиҳатларини ўрганиш, иқтисодиётни ривожлантиришга самарали, хавфсиз ўтиш воситаларини излашдан иборат. Рақамли" ва "яшил" иқтисодиётлар

дунёнинг етакчи давлатларининг экологик, ижтимоий-иқтисодий сиёсатининг устувор йўналишлари ҳисобланади.

Рақамли иқтисодиёт ривожланар экан, унинг яшил инновациялар ва энергия самарадорлигига таъсири ҳозирги тадқиқотлар марказига айланди. Рақамли технологияларни қабул қилиш ва глобаллашув узоқ муддатли яшил иқтисодий ўсишга таъсир қилувчи асосий омиллардир. Рақамли технологиялардан фойдаланиш ресурслар самарадорлигини ошириш, чиқиндиларни камайтириш ва алоқани кучайтириш, жараёнларни яхшилаш ва инновацияларни рағбатлантириш орқали яшил иқтисодий ўсиш учун янги имкониятлар яратиши мумкин. Ахборот асрида рақамли технологиялар тез суръатлар билан ўсиб бормоқда ва уларни қўллаш кенг диапозони кенгаймоқда. Натижада, рақамли иқтисодиёт ривожланиб инсоният жамияти учун иқтисодий ўсишнинг янги модели шаклланмоқда. Рақамли иқтисодиётни ривожланиши ишлаб чиқариш учун муҳим омил бўлиб шаффофликни таъминлашда, инновацияларни рағбатлантиришда, истеъмолни рағбатлантиришда, углерод чиқиндилари ва ифлосланишни камайтириш ва саноатни ўзгартиришда муҳим рол ўйнайди. Рақамли иқтисодиётнинг ривожланиши яшил инновацияларнинг барқарорлигига ҳам, энергия самарадорлигига ҳам маълум даражада таъсир кўрсатди. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022-2026 йилларга мўлжалланган “Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси” тўғрисидаги ПФ-60 сонли фармони доирасида мамлакатимиз тараққиётини белгиловчи 100 та мақсад ишлаб чиқилди. Ушбу стратегиянинг 25-мақсадида “Рақамли иқтисодиётни асосий «драйвер» соҳага айлантириб, унинг ҳажмини камида 2,5 баравар оширишга қаратилган ишларни олиб бориш.”[1] вазифаси қўйилган. Рақамли иқтисодиёт ривожланар экан барча омиллар тез айланиши ва тўпланиши мумкин ва инновациялар йиғиндиси таъсири ва яшил инновацияларга ресурсларни тақсимлашга ўзининг ижобий ҳиссасини қўшади. Рақамли иқтисодиётнинг ривожланиши саноат тузилмасини модернизация қилиш, ишлаб чиқариш омилларини узатиш ва технологик рақобатнинг кучайиши

каби кучли ўзгаришларни келтириб чиқаради, бу эса ўз-ўзини инновацияга, яшил инновациялар тизимини тузилмавий мослаштиришга ва бошқарувни янгилашга ёрдам беради, шу билан билвосита яшил иқтисодиётни янада ривожлантиради. Рақамли иқтисодиётнинг ўзига хос афзалликлари ва муҳим хусусиятлари яшил иқтисодиётнинг самарадорлигини оширишига, маълумотларни яратиш ва транзакция харажатларини камайтиришга, рақамли технологияларни жадал қўллаш орқали корхоналарга рақобатдош устунликларни ўрнатишга ёрдам беради. Рақамли иқтисодиёт очиқ ва чегарасиз бўлиб, минтақани рақамли иқтисодиётининг ривожланишида боғланган тармоқни ташкил қилади. 1990-йилларда Тапскотт ва Кастон (1994) рақамли иқтисодиёт интернет каби замонавий ахборот технологияларига асосланган иқтисодий фаолият эканлигини таъкидлаганлар[2].Рақамли иқтисодиёт рақамли билим ва маълумотни асосий ишлаб чиқариш омиллари сифатида қабул қилади ва анъанавий иқтисодиётнинг фазовий тарқалиш эффектига эгадир[3]. Бу илғор, барқарор иқтисодий шакл ва типик минтақавий ривожланиш модели, ақлли шаҳарларнинг узлуксиз қурилиши ва ривожланиши билан шаҳарлар ўртасидаги алоқалар ва ҳамкорлик янада яқинлашади ва шаҳар тизими тармоқли ривожланиш босқичига киради[4,5]. "Рақамли иқтисодиёт турли шаклларда ижтимоий ва иқтисодий муносабатлар моделини ўзгартиради - эҳтимол мавжуд сиёсатлар ўйнаган ролларни самарасиз қилади" [6]. Рақамли иқтисодиёт, самарали ахборот тармоқлари ва очиқ алмашиш муҳитини таъминлайди, бу эса фирмаларга инновацияларни осонлаштириш учун маҳсулдорликни ошириш ва қидирув харажатларини камайтириш имконини берувчи технологияларни олиш ва қўллаш имконини беради [7]. Бинобарин, рақамли иқтисодиёт узлуксиз ривожланиб борар экан, рақамли иқтисодиёт ва саноат яшил трансформацияси билан боғлиқ масалалар кўпчилик олимларнинг эътиборини тортди [8]. Рақамлаштириш ва барқарорлик иккита энг таъсирли тенденция бўлиб, иккаласи ҳам кўплаб тадқиқотларга сабаб бўлди. Рақамлаштиришни ривожлантириш жараёни барқарорлик мақсадини

назарда тутади ва рақамлаштириш ва барқарорлик бир-бирини бирлаштиради ва тарғиб қилади[9]. Маълумки, технологиялар мамлакатнинг иқтисодий ўсишига ёрдам беради, лекин айни пайтда жиддий экологик муаммоларни келтириб чиқаради. Корхоналар ва сиёсатчилар иқлим ўзгариши, чиқиндиларни бошқариш ва ифлосланиш каби муаммоларга дуч келишмоқда. Ижтимоий масъулиятли корхоналар жиддий глобал хавф туғдирадиган атроф-муҳит ифлосланишини камайтириш учун яшил инновацияларни тарғиб қилмоқдалар. Яшил инновациялар иқтисодий ўсиш ва атроф-муҳитни муҳофаза қилиш ўртасида яхши мувозанатга эришиш учун конструктив ечимдир. Рақамли иқтисодиёт ишлаб чиқариш фаолиятидаги тўсиқларни бартараф этиш учун рақамли билим ва маълумотларга эга кенг кўламли иқтисодий фаолиятни қамраб олган ҳолда корхоналар фаолиятини озиқлантиради ва рағбатлантирадиган рақамли технологиялар ва трансформациялар экологиясини ифодалайди. Бундан ташқари, у инновацион фаолиятни қўллаб-қувватлаш учун капитал, технология ва маркетинг жараёнларига ёрдам беради. Рақамли иқтисодий ривожланиш инновацион амалиётга йўналтирилган ишлаб чиқариш корхоналари ўртасида технологик тараққиётнинг алмашинуви ёрдамида яшил ривожланиш учун барқарор йўл очишга имкон яратади. Рақамли иқтисодиётни ривожлантиришнинг дастлабки босқичида шаҳарлар ўртасидаги ҳамкорликни кучайтириш, ақлли ишлаб чиқариш моделларини тарғиб қилиш, янги форматлар, механизмлар ва моделларни ўрганиш ва интеллектуал ишлаб чиқариш инновацион марказларини ташкил этиш керак. Барқарор ривожланишга эришиш учун рақамли иқтисодиёт тизимини рақамли инфратузилма, рақамли саноатлаштириш ва саноатни рақамлаштиришнинг учта даражасида такомиллаштириш лозим. Рақамлаштириш ақлли рақамли технологиялардан корпоратив транзаксия харажатларини яхшилаш ва идрок, бошқарув, жараёнлар ва бизнесни рақамлаштириш орқали ишлаб чиқариш харажатларини камайтириш, маълумотлар занжири, қиймат занжири, ички тармоқ уланишларини

автоматлаштириш ва корхона имкониятлари чегараларини оширишга хизмат қилади. Рақамли технологияларнинг юксалиши ишлаб чиқариш корхоналари учун яшил трансформацияга эришиш, операцион харажат муаммосини ва яшил трансформацияда дуч келадиган технологик ютуқ қийинчиликларини самарали ҳал қилиш учун янги имкониятлар яратади. Рақамли технологиялар ва рақамлаштириш корхоналарнинг яшил инновациялари ва барқарорлигига ижобий ҳисса қўшади. Рақамлаштириш йирик ва давлат корхоналарида молиявий чекловларни юмшатишга ва давлат субсидияларини жалб қилиш орқали яшил технологик тараққиётни рағбатлантиришга ижобий таъсир қилади. Иқтисодиётни рақамлаштириш ва яшил иқтисодиётни ривожлантириш ташкилий-ҳуқуқий шаклларини таҳлил қилиш зарур, бу эса минтақани барқарор ривожлантириш стратегиясини амалга ошириш самарадорлигини адекват баҳолаш имконини беради. Минтақавий, тармоқ комплекс дастурларини ишлаб чиқиш ва амалга ошириш билан бирга инсон капиталини бошқаришнинг янги механизмларини яратиш, инновацион фаолиятни рағбатлантириш яшил иқтисодиёт ва рақамлаштиришни жадал ривожлантиришни амалий жиҳатларини самарадорлигини оширади. Иқлим ўзгариши билан боғлиқ глобал хавотирларнинг кучайиши ҳукуматлар ва корхоналарни фаол жавоб беришга ва яшил иқтисодиётнинг барқарор ривожланиши учун ҳаракат қилишга ундамоқда. Яшил иқтисодиёт яшил ишлаб чиқариш ва кам углеродли технологияларни қўллаб-қувватлаш тизимини яратишга, кам углеродли энергия истеъмолига, ресурсларни қайта ишлашга, атроф-муҳитни муҳофаза қилишга ва тоза ишлаб чиқаришга ўтишни осонлаштиришга имкон беради. Яшил иқтисодиёт концепциясининг шаклланиши кўп жиҳатдан рақамлаштириш жараёнлари билан боғлиқ. Яшил иқтисодиёт барқарор иқтисодий ривожланиш моделидир Яшил ва рақамли иқтисодиётнинг янада ривожланиши ушбу соҳада кўплаб малакали кадрларнинг пайдо бўлиши билан бирга ҳозирги вақтда ушбу кадрларни самарали тайёрлаш учун шароитлар яратиш энг муҳим масала ҳисобланади.

**Фойдаланган адабиётлар рўйхати:**

1.Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022-2026 йилларгамўлжалланган “Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси” тўғрисидаги ПФ-60 сонли фармони

2. D. Tapscott, A. Caston. Paradigm shift: the new promise of information technology. Econ. Dev. J. Can. (1994), pp. 62-66

3. S.M. L audiyen, R. Pesch. Understanding the influyence of digitalization on service firm business model design: a qualitative-empirical analysis. Rev. Manag. Sci., 13 (2019), pp. 575-587.

4. L.W. Cong, D. Xiye, L. Zhang. Knowledge accumulation, privacy, and growth in a data economy.Manag. Sci., 67 (10) (2021), pp. 6480-6492

5. P.J. Taylor, M. Hoyler, R. Verbruggen. External urban relational process: introducing central flow theory to complement central place theory. Urban Stud., 47 (13) (2010), pp. 2803-2818

6. O. Batura, N.V. Gorp. Challenges for competition policy in a digitalised economy. (2016).

7. A. Fernández-Portillo, M. Almodóvar-González, R. Hernández-Mogollón

8. Impact of ICT development on economic growth. A study of OECD European Union countries

9. W. Pan, T. Xie, Z. Wang, L. Ma. Digital economy: an innovation driver for total factor productivity.

10. T. Schmaus, T. Gaugler, F. Tretter. Nachhaltigkeit durch digitalisierung? Humanökologische anfragen. GAIA - Ecological Perspectives for Science and Society, 29 (1) (2020), pp. 66-67, 10.14512/gaia.29.1.15

# МИНТАҚАДА “ЯШИЛ” ИҚТИСОДИЁТНИ ШАКЛЛАНТИРИШ ВА САНОАТ ТАРМОҚЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ (ҚОРАҚАЛПОҒИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ мисолида)

**Джумабаева Ш. Х.**
**Маъмун университети доценти, и.ф.ф.д.**

**Аннотация:** Мақолада “яшил” иқтисодий ўсишни рағбатлантириш, табиий ресурслардан оқилона фойдаланиш, “яшил” инвестицияларни жалб қилиш, экологик инқирознинг салбий таъсирини юмшатишга қаратилган Ўзбекистон Президентининг Қарорлари, шунингдек, Қорақалпоғистон табиий ресурслари ва унинг саноат ривожланишидаги аҳамияти, минтақанинг Ўзбекистон саноатида тутган ўрни, саноатнинг ривожланиши ҳамда саноат тармоқларини ривожлантиришнинг устувор йўналишлари баён этилган.

**Калит сўзлар:** “яшил” иқтисодиёт, минтақа, саноат маҳсулоти, истеъмол товари, ҳудуд, индекс, даража, ишлаб чиқариш, тармоқ.

“Яшил” иқтисодиётга ўтишнинг устувор йўналишларидан келиб чиқиб, жадаллашаётган саноатлаштириш ва аҳоли сонининг ортиши иқтисодиётнинг ресурсларга бўлган эҳтиёжини сезиларли даражада оширмоқда. Табиий ресурслардан самарасиз фойдаланиш, технологиялар янгиланишининг сустлиги, “яшил иқтисодиёт”ни ривожлантириш учун инновацион ечимларни жорий этишнинг етарли эмаслиги мамлакатни барқарор ривожлантириш соҳасидаги устувор миллий мақсадлар ва вазифаларга эришишга тўсқинлик қилмоқда.

Ўзбекистонда “яшил” иқтисодий ўсишни рағбатлантириш, табиий ресурслардан оқилона фойдаланиш, “яшил” инвестицияларни жалб қилиш, экологик инқирознинг салбий таъсирини юмшатиш мақсадида Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 5 октябрдаги ПҚ-4477-сон қарори билан 2019-2030 йиллар даврида Ўзбекистон Республикасининг «яшил»

иқтисодиётга ўтиш стратегияси тасдиқланди[2.]. 2020 йилда коронавирус (COVID-19) пандемияси туфайли юзага келган эпидемиологик вазият сабабли ушбу стратегияни амалга ошириш имконияти чекланди. Шу нуқтаи назардан Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 2 декабрдаги ПҚ-436-сон қарори билан 2030 йилгача Ўзбекистон Республикасида «яшил» иқтисодиётга ўтиш ва «яшил» ўсишни таъминлаш Дастури ишлаб чиқилди[3.]. Ушбу стратегия ва дастурлар асосида мамлакатда таркибий ўзгартиришларни чуқурлаштириш, иқтисодиётнинг базавий тармоқларини модернизациялаш ва диверсификациялаш ҳамда ҳудудларни барқарор ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришга қаратилган комплекс чора-тадбирлар амалга оширилмоқда.

Маълумки, саноатнинг шаклланишида табиий ресурслар алоҳида ўрин эгаллайди. Табиий ресурслар, бир томондан, саноат ишлаб чиқариши учун хом ашё вазифасини бажарса, иккинчи томондан, ишлаб чиқариш учун шароит бўлиб хизмат қилади ҳамда экспорт салоҳиятини оширишда асосий омил ҳисобланади[1.]. Қорақалпоғистон Республикаси саноатнинг ривожланиш даражасига кўра, бошқа минтақалардан анча орқада ҳисоблансада, лекин унинг айрим тармоқлари бўйича минтақа муносиб ўрин эгаллайди. Бу авваламбор ёқилғи-энергетика, кимё ва нефть-кимёси саноати тармоқларига тегишлидир.

Қорақалпоғистоннинг Мўйноқ, Қораўзак, Қўнғирот ва Хўжайли туманларида табиий ресурсларнинг жуда катта захиралари жойлашган. Минтақа тоғ-кон кимёси заҳираларига бой. Чимбой ва Қўнғирот туманлари атрофида сульфат-магнезий, тош ва ош тузларининг жуда катта заҳиралари жойлашган. Шунингдек, минтақанингУстюрт қисмини табиий газ ва айниқса нефть конларига бой эканлиги прогноз қилинмоқда. Қурилиш материаллари ишлаб чиқариш бўйича (оҳактош, ғишт-черепица, қурилиш ва силикат қуми заҳираси) ҳам заҳиралар саноат аҳамиятига эга[5. б.304.].. Бу эса минтақада кимё ва нефть-кимёси, нефть-газ, ёқилғи-энергетика ва қурилиш саноатларининг ривожланишига ижобий таъсир кўрсатди.

2023 йилда минтақа саноат тармоғида ЯҲМнинг 22,2% яратилди[7.]. Бу шуни кўрсатадики, минтақа иқтисодиёти индустриаллашган иқтисодиёт сари ривожланмоқда. Кейинги йилларда саноат тармоқларида банд аҳоли сони ҳам, салмоғи ҳам ортиб бормоқда. Жами банд аҳолининг 10%га яқини саноат соҳасида фаолият кўрсатдилар.

2023 йил Қорақалпоғистонда ялпи саноат маҳсулотларини ишлаб чиқаришнинг номинал ҳажми – 18803,1 млрд.сўмни, ўсиш суръати эса 101,1%ни ташкил этди. Ўзбекистонда тайёрланган жами саноат маҳсулотлари ҳажмининг 3,1% Қорақалпоғистонга тўғри келади. Минтақада аҳоли жон бошига саноат маҳсулотлари ишлаб чиқариш 9451,4 минг сўмни, саноат индекси эса 0,525 ташкил этди[7. б.75.].

Қорақалпоғистонда саноат ривожланишининг ҳудудий ўзига хос хусусияти шундан иборатки, минтақа ялпи саноат маҳсулотининг 50%дан ортиқроғи Нукус шаҳрига, 12%дан ортиғи Тахиятош туманига тўғри келди. Шунингдек, Қўнғирот (4,6%) ва Хўжайли (3,2%) туманларида саноат маҳсулотларини ишлаб чиқариш бироз ривожланган. Қолган ҳудудларнинг улуши паст[8. б.304.].. Бу эса саноат маҳсулоти ишлаб чиқариш бўйича юқори даражадаги ҳудудлараро фарқланиш мавжудлигини билдиради.

Маълумки, аҳолининг истеъмол молларига бўлган эҳтиёжини қондириш узлуксиз ривожланишни тақозо этади. Ишлаб чиқарилган жами саноат маҳсулотларининг 14,9%ни истеъмол товарлари ташкил этди[7. б.80.]. Истеъмоли молларини ишлаб чиқариш муҳим ижтимоий-иқтисодий кўрсаткич ҳисобланади. Аҳолининг истеъмол даражаси минтақа иқтисодий ривожланишининг ҳамда аҳоли турмуш фаровонлигининг кўзгуси ҳисобланади. Истеъмол моллари, бир томондан, иқтисодиёт барқарорлигининг кўрсаткичи сифатида ифодаланса, иккинчи томондан, муайян даражада давлат ижтимоий сиёсатининг оқибатларини кўрсатади.

2023 йил Қорақалпоғистонда 2805,2 млрд.сўмлик истеъмоли товарлари ишлаб чиқарилди ва у ўтган йилга нисбатн 102,8%га ўсган. Истеъмол товарларининг 83,7%ни озиқ-овқат товарлари, 16,3%ни эса ноозиқ-овқат

товарлари ташкил этди[7. б.90.]. Статистик маълумотларга кўра, ялпи саноат маҳсулотига нисбатан истеъмоли моллари ишлаб чиқариш ҳудудлар бўйича бирмунча текисроқ тақсимланган. Бунинг энг асосий сабаби, минтақанинг бошқа ҳудудларида ҳам истеъмол моллари ишлаб чиқарадиган корхоналар қуриб ишга туширилишидир.

2023 йилда минтақада саноат маҳсулотлари ишлаб чиқариш таркибида энг кўп улушни (86,3%) ишлаб чиқарадиган саноат маҳсулотлари эгаллади. Шунингдек, катта кўрсаткич электр, газ, буғ билан таъминлаш ва ҳавони кондициялаш корхоналарига (11,2%) тўғри келди. Жами саноат маҳсулотлари ишлаб чиқаришда тоғ-кон саноати ва очиқ конларни ишлаш корхоналарининг улуши 2,0%ни ҳамда сув билан таъминлаш, канализация тизими чиқиндиларни йиғиш ва утилизация қилиш корхоналари улуши 0,5% ташкил этди[7. б.84.]..

Минтақада 2611,5 млн.куб м. табиий газ, 4357,1 млн.кВт/с электр энергияси, 45,5 минг Гкал.иссиқлик энергияси, 237,1минг тонна оҳак тош, 268,3 минг тонна чақиқ тош (шебень) қазиб олинди. Минтақада кейинги 10 йилда табиий газ қазиб чиқариш 18,8%га қисқарди. Электр энергия ишлаб чиқариш эса 147%га ортди[8.]. Минтақага мамлакатда қазиб чиқарилаётган табиий газнинг 5%га яқинини, электр энергиясининг эса 7%га яқини тўғри келади.

Қайта ишлаш саноати томонидан ишлаб чиқарилган жами маҳсулотларнинг 51,9% кимё маҳсулотлари, резина ва пластмасса буюмлари ташкил этди. Шунингдек, 14,9%ни озиқ-овқат маҳсулотлари, ичимликлар ва тамаки маҳсулотлари ва 11,8%ни тўқимачилик маҳсулотлари, кийимлар, тери ва унга тегишли маҳсулотларни ишлаб чиқариш ташкил этди[8.]. Шунингдек, минтақада 3686,9 минг литр ароқ маҳсулотлари,92,5 минг тонна буғдой ва спельта уни, 10,7 минг тонна гуруч,11,4 минг тонна тозаланган пахта ёғи, 35,1 минг тонна пахта толаси ва 52,2 минг тонна пахта чигити,191 минг тонна динатрий карбонати, 354,5 минг тонна полиэтилен ва 97,6 минг тонна полипропилен ишлаб чиқарилди[8.].

Минтақадаги мавжуд имкониятлардан самарали фойдаланилмаганлиги натижасида енгил саноат маҳсулотлари ишлаб чиқариш ҳажми камайиб кетди. Маълумки, озиқ-овқат саноатининг асосий вазифаси минтақа аҳолисини турли хил ва юқори сифатли озиқ-овқат маҳсулотлари билан таъминлашдан иборат. Бугунги кунда тармоқнинг ривожланиш даражаси бу вазифани ҳал этиш имконини бермаяпти.

Минтақанинг саноат салоҳиятини оширишда хорижий инвестиция иштирокидаги корхоналарни ташкил этиш муҳим аҳамиятга эга. Қўшма корхоналар ташкил этиш ишчи кучи кўп бўлган Қорақалпоғистон учун ҳам алоҳида аҳамият касб этади. Хорижий инвестиция иштирокидаги корхоналарни саноатнинг қуйидаги тармоқларига жалб этиш мақсадга мувофиқ: минтақада пахта етиштириш ва меҳнат ресурслари кўплигини ҳисобга олиб пахтани қайта ишлаш ва тўқимачилик саноатига; минтақа аҳолисини озиқ-овқат маҳсулотлари билан таъминлашни яхшилаш ва қишлоқ хўжалик маҳсулотларини қайта ишлаш даражасини ошириш мақсадида озиқ-овқат саноатига; истеъмол бозорини сифатли ва арзон маҳсулотлар билан тўлдириш имкониятини яратиш мақсадида, истеъмол маҳсулотлари ишлаб чиқариш соҳасига; минтақанинг минерал хом ашё ва табиий ресурсларга бой эканлигини ҳисобга олиб янги конларни излаб топиш ва қазиб олиш соҳасига ва бошқаларга йўналтириш мақсадга мувофиқдир.

Минтақада саноат маҳсулотлари ишлаб чиқаришнинг мамлакатдаги мавқеини ошириш учун қуйидаги ишларни амалга ошириш мақсадга мувофиқдир: минерал хом ашё ресурслари заҳираларини излаб топиш ҳамда ишлаб чиқаришга жалб қилиш; қайта ишлаш корхоналарини хом ашёга яқин жойларда барпо этиш, қишлоқ жойларда янги техника ва технологияларни кириб келишини рағбатлантириш асосида янги ишчи ўринларини яратиш ва х.к.лар.

**Фойдаланган адабиётлар рўйхати:**

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 9 июндаги “Ҳудудларнинг саноат салоҳиятини оширишга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПФ-6244-сон Фармони.

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 5 октябрдаги “2019-2030 йиллар даврида Ўзбекистон Республикасининг «яшил» иқтисодиётга ўтиш стратегияси” ПҚ-4477-сон Қарори.

3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 2 декабрдаги “2030 йилгача Ўзбекистон Республикасининг “яшил” иқтисодиётга ўтишига қаратилган ислоҳотлар самарадорлигини ошириш бўйича чора-тадбирлар тўғрисида"ги ПҚ-436-сон Қарори.

4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги “2022-2026 йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида"ги ПФ-60-сон Фармони.

5. Солиев А.С. ва бошқалар. Минтақавий иқтисодиёт. – Т.: Университет, 2003. – 304 б.

6. Ўзбекистон худудларининг йиллик статистик тўплами 2010-2022. Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитаси.

7. Ўзбекистон Республикасининг ижтимоий-иқтисодий ҳолати 2023. Узстат.

8. Қорақалпоғистон Республикасини ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш паспорти. 2010-2022 йиллар. Статистик тўплам.

9. www.qrstat.uz/ru

# MINTAQADA YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI

**Aliyeva G.I. UrDU Menejment va marketing kafedrasi katta o`qituvchisi**

**Abdullayeva Yo.S. Menejment: MMB yo`nalishi 2-bosqich talabasi.**

**Annotatsiya.** Ushbu maqola O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotni rivojlantirish imkoniyatlariga bag‘ishlangan. Yashil iqtisodiyotni shakllantirish va rivojlantirish bo‘yicha xorijiy tajribalarni o‘rganish O‘zbekiston iqtisodiyotini barqaror rivojlanish va atrof-muhitni muhofaza qilish yo‘lida muvaffaqiyatli o‘zgartirish bo‘yicha ilg‘or tajriba va strategiyalarni aniqlash imkonini beradi.

**Аннотация.** Данная статья посвящена возможностям развития зеленой экономики в Узбекистане. Изучение зарубежного опыта формирования и развития зеленой экономики позволяет выявить лучшие практики и стратегии успешного изменения экономики Узбекистана в направлении устойчивого развития и защиты окружающей среды

**Abstract.** This article is devoted to the possibilities of developing the green economy in Uzbekistan. The study of foreign experience in the formation and development of the green economy allows to identify best practices and strategies for successfully changing the economy of Uzbekistan in the direction of sustainable development and environmental protection

**Kalit so`zlar.** yashil iqtisodiyit, ekologiya, barqaror rivojlanish, yalpi ichki mahsulot, atrof-muhit muhofazasi.

**Ключевые слова.** зеленая экономика, экология, устойчивое развитие, валовой внутренний продукт, охрана окружающей среды.

**Key words.** green economy, ecology, sustainable development, gross domestic product, environmental protection.

“Yashil iqtisodiyot”ga o'tish nafaqat alohida milliy iqtisodiyotni, balki butun sayyora barqarorligini belgilaydigan global tendensiyadir. An'anaviy rivojlanish modelining beqarorligi iqtisodiyotni transformatsiya qilishning yangi rivojlanish

kontseptsiyasini izlab topishga yo'l ochmoqda. Iqtisodiy o'sishning an'anaviy modelidan “yashil iqtisodiyot”ga o'tish nafaqat alohida milliy iqtisodiyotni, balki butun sayyora barqarorligini belgilaydigan global tendensiyadir. Hozirda “yashil o'sish” ko'plab davlatlarning maqsadi, global ekologik muammolarni hal qilishning muhim vositasi hisoblanadi.

Yashil iqtisodiyot - bu ekologik xavflarni va ekologik tanqislikni kamaytirishga qaratilgan va atrof-muhitni buzmasdan barqaror rivojlanishni maqsad qilgan iqtisodiyot. U ekologik iqtisodiyot bilan chambarchas bogʻliq, lekin koʻproq siyosiy jihatdan qoʻllaniladigan yoʻnalishga ega. Yashil Iqtisodiyot hisobotida taʼkidlanishicha, „yashil boʻlishi uchun iqtisodiyot nafaqat samarali, balki adolatli boʻlishi kerak. Adolatlilik global va mamlakat darajasidagi tenglik oʻlchovlarini tan olishni, xususan, past uglerodli, resurslarni tejaydigan va ijtimoiy jihatdan qamrab oluvchi iqtisodiyotga adolatli oʻtishni taʼminlashni nazarda tutadi. [1]

Birlashgan Millatlar Tashkiloti tavsiyasiga ko'ra, davlatlar o'z yalpi ichki mahsulotining hech bo'lmaganda 1 foizini “yashil iqtisodiyot”ni rivojlantirishga yo'naltirishi lozim. Bu ko'rsatkich AQSH, Shvetsiya, Italiya va boshqa iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda 1 foiz, Koreyada 3 foizni tashkil etmoqda. O’zbekiston Respublikasida ham ko’plab xorijiy davlatlardan “yashil iqtisodiyot” borasidagi tajribalar o’rganilib, “Yashillashtirish” sohasida ko’plab chora-tadbirlarni amalga oshirish ekosiyosat doirasida turgan eng muhim masalalardan biri hisoblanadi.

O’zbekiston keyingi yillarda yashil iqtisodiyot va ekologiya sohasida muvaffaqiyatlarga erishgan davlatdir. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan 2019-yilda O'zbekiston MDH davlatlari orasida birinchi bo'lib Global yashil o'sish institutiga a'zo bo'ldi. Yurtimiz Parij bitimi doirasida 2030-yilga qadar parnik gazlarni atmosferaga chiqarishni 10 foizga qisqartirish bo'yicha o'z zimmasiga olgan majburiyatlarni muntazam bajarib kelmoqda. Texnikalar, atrof-muhitni himoya qilish, algoritmik texnologiyalar va chiqindilarni qayta ishlar jarayonlarida faol ishlaydigan mutaxassislar O’zbekistonning iqtisodiy va ekologik

rivojlanishida katta o’rin tutadi. O’zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev “Yashil iqtisodiyot” konsepsiyasini rivojlantirishga e’tibor qaratgan holda, mamlakatimizda ilm-fan, innovatsiyalar, muhandislik va inshootlarni rivojlantirish maqsadida ko’plab loyihalar amalga oshirilmoqda.

Keyingi besh yillikda , O‘zbekiston qayta tiklanadigan energetika, xususan, quyosh va shamol energetikasini rivojlantirishda muvaffaqiyatlarga erishmoqda. Hukumat energiya manbalarini diversifikatsiya qilish va qazib olinadigan yoqilg'iga qaramlikni kamaytirish bo'yicha loyihalarga sarmoya kiritmoqda. Keng miqyosdagi quyosh va shamol stansiyalari, shuningdek, energiya samaradorligini oshirish tashabbuslari rejalashtirilgan. O‘zbekistonning qayta tiklanadigan energetika maqsadlari uning energetika sohasini modernizatsiya qilish va elektr energiyasiga o‘sib borayotgan talabni barqaror qondirish bo‘yicha kengroq strategiyasining bir qismidir. Mamlakat 2030 yilga borib energiya tarkibidagi qayta tiklanadigan manbalar ulushini 25 foizga oshirishni nazarda tutadi.[2]

O'zbekiston yashil iqtisodiyot uchun noyob imkoniyatlar va shart-sharoitlarga ega. Keng hudud, qulay geosiyosiy joylashuv, mavjud moliyaviy va tabiiy resurslar, bozorda tobora samarali va foydalanish mumkin bo'lgan yashil texnologiyalar taklifining o'sib borishi va boshqa omillar yangi imkoniyatlarni qo'llab-quvvatlamoqda. Iqtisodiyotning yashil rivojlanish tamoyillarini qo'llash nuqtai nazaridan islohot talab qiladigan eng muhim segmentlari chiqindilarni boshqarish sektori, energetika sanoati va suv iste'moli sektoridir.

Xulosa qilib aytish mumkinki, yashil iqtisodiyotni shakllantirish va rivojlantirish bo‘yicha imkoniyatlar mavjud, shu bilan birga bu boradagi xorijiy tajribalarni o‘rganish O‘zbekiston uchun barqaror rivojlanish va iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashish bo‘yicha o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlarga erishishda muhim ahamiyat kasb etadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. UNEP, 2011, Towards a Green Economy: Pathways to Sustainable Development and Poverty Eradication, www.unep.org/greeneconomy

2. «2019-2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining «Yashil iqtisodiyot» iqtisodiyotiga o'tish strategiyasini belgilash to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4477 sonli Qarori.

## УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ РЕГИОНОВ В УСЛОВИЯХ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ОГРАНИЧЕНИЙ

**Сеитова Л. П. Свободный соискатель**
**Научно-исследовательского центра “Научные основы и проблемы развития экономики Узбекистана” при ТГЭУ**

**Аннотация:** в статье рассмотрены современных тенденции развития экономики регионов в контексте устойчивого развития. Показаны теории и модели развития экономики регионов, которые базируются на использовании экологических факторов.

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada barqaror rivojlanish konsepsiyasi doirasida mintaqalarning zamonaviy rivojlanish tendensiyalari ko‘rib chiqilgan. Ekologik omillarga asoslangan mintaqalarni rivojlanish nazariyalari va modellari ko‘rsatilgan.

**Abstract** The article examines current trends in the development of regional economies in the context of sustainable development. The theory and model of regional economic development, which are based on the use of environmental factors, are shown.

**Ключевые слова.** Трансформация, теория, устойчивое развития, регион, климат, экология, окружающая среда, ресурсы, экономический рост, население.

**Klyuchevie slova.** Transformatsiya, nazariya, barqaror rivojlanish, mintaqa, iqlim, ekologiya, atrof muxit, resurslar, iqtisodiy o‘sish**,** aholi.

**Key words.** Transformation, theory, sustainable development, region,

climate, ecology, environment, resources, economic growth, population.

Глобальный характер наблюдаемых на планете климатических процессов не позволяет обеспечить надежные результаты от реализации политики и мер по ограничению выбросов парниковых газов, предпринимаемых на национальном уровне в границах отдельно взятых стран. В целях объединения усилий противостояния климатическим угрозам на международном уровне за истекший период были предприняты попытки согласовать общие подходы.

Узбекистан в 2019 году принял Стратегию по переходу на «зеленую» экономику вопросы изменения климата стали учитываться в программах и стратегиях развития, как на национальном так и региональном уровнях. Это подтверждается содержанием Стратегии развития Республики Узбекистан «Узбекистан – 2030», а также рядом отраслевых и региональных программ развития [1].

Один из наиболее активно цитируемых аналитиков по экологической безопасности – канадский ученый Т.Ф. Гомер-Диксон утверждает, что важнейшая проблема окружающей среды и безопасности – это возрастающий дефицит возобновляемых ресурсов, таких как пахотные земли, пресная вода и леса, которые необходимы для удовлетворения потребностей растущего населения. Экологический дефицит он считает основной причиной насилия[6]. Гомер-Диксон предлагает трехступенчатую логическую причинно-следственную связь экологической безопасности: ухудшение состояния окружающей среды в сочетании с перенаселенностью углубляет бедность и порождает гражданскую и межнациональную конкуренцию в отношении доступа к более дефицитным ресурсам.

К.Я. Кондратьев, К.С. Лосев выделяют следующие проблемы социально экономической и экологической динамики, угрожающие устойчивому и безопасному развитию планеты [3]:

высокие темпы роста экономики в развитых странах,

сопровождающиеся ростом глобальной дифференциации доходов и увеличением численности населения в развивающихся странах наряду со старением населения развитых стран;

существенное улучшение питания и повышение глобального урожая в три раза за период с 1950 г., осуществляемое ценой таких опасных экологических последствий, как падение уровня грунтовых вод, усиление загрязнения природных вод в результате интенсивного применения удобрений и пестицидов и роста урбанизации;

уменьшение биоразнообразия и нарушение механизмов биотической регуляции окружающей среды в результате изменения экологической обстановки, антропогенных воздействий на климат и слой озона.

Региональное устойчивое развитие обусловлено длительным сохранением условий для воспроизводства регионального потенциала. Однако, интенсивное промышленное освоение региона и изъятие природных ресурсов из традиционных секторов, не отвечает условиям устойчивого регионального развития. Следовательно, устойчивость определяется положительной динамикой факторов, формирующих социально-экономическую систему региона. Некоторые страны производят их больших объемах, чем другие. Только на семь крупнейших эмитентов (Китай, США, Индия, ЕС, Индонезия, Россия и Бразилия) в 2020 году приходилось около половины всех мировых выбросов парниковых газов [5] .

По результатам мониторинга и научных исследований, Межправительственная группа экспертов ООН по изменению климата (МГЭИК) сделала вывод, что изменение климата Земли в 2024 году происходит крайне интенсивно.

Состояние климатической системы планеты сказывается на ее поверхности, океанах, ледовых покровах и атмосфере. Некоторые из возникших тенденций уже необратимы, однако 234 эксперта из 66 стран мира не теряют надежды, что человечество в силах ограничить масштабы негативных перемен. Для улучшения качества воздуха и стабилизации

глобальной температуры необходимо ускорить отказ от ископаемого топлива и сократить выбросы в атмосферу вредных веществ, в том числе парниковых газов.

В современном мире концепция устойчивого развития (УР) приобретает все большую актуальность. Это обусловлено нарастающими социально-экологическими проблемами, такими как изменение климата, деградация окружающей среды, истощение природных ресурсов, рост социального неравенства и т.д.

Устойчивое развитие трактуется как:

экономический рост, обеспечивающий удовлетворение материальных и духовных потребностей настоящих и будущих поколений при сохранении равновесия экосистем;

стабильное социально-экономическое развитие, не разрушающее природной основы;

стабильное улучшение качества жизни населения.

Устойчивое развитие региона — это более широкое понятие комплексного регионального развития, которое основано на воспроизводственном подходе. В данном случае устойчивое развитие обуславливает переход к менеджменту всех экономических, социальных и природных процессов в регионе, которое предполагает решение проблемы размещения производства, тогда как экономическая система устойчивости регионального развития определена как «воспроизводственная экономика». По мнению Н.К Аимбетова при специализации и размещении производительных сил важное значение приобретают экологические ограничения[2].

Таким образом, согласно предложенной трактовки, в понимание сущности устойчивого развития включены следующие характеристики:

решение задач, связанных с развитием с учетом перспективы, с ориентацией на потребности ныне живущих граждан, но и будущих поколений;

сбалансированность экономической и социальной сфер, включающую обеспечение максимального использования в интересах населения тех ресурсов, которые дает экономическое развитие;

сбалансированность экономики и экологии, т.е. достижение такой степени развития, когда люди в результате своей производственной или иной экономической деятельности перестают разрушать среду обитания.

Устойчивое развитие региона, как субъекта специфических социально-экономических отношений, связанных с территориальной организацией общественного производства и представляющих собой особый структурный уровень общенациональной системы производственных отношений, должно означать сбалансирование социально-политической, правовой, природно-экологической и экономической подсистем[4].

Таким образом, что обеспечение достойного качества жизни людей, недопущение экологической и социальной деградации, ухудшения экологической обстановки являются ключевыми требованиями и для развития экономики в целом.

«Устойчивое развитие регионов – это одновременное обеспечение высоких темпов экономического роста, позволяющих удовлетворить современные потребности, и сохранить природные ресурсы, улучшить экологическую среду приумножить потенциал, с помощью использования инноваций, для будущих поколений».

**Список использованной литературы:**

1.Указ Президента Республики Узбекистан о стратегии “Узбекистан - 2030” от 11 сентября 2023 г., № УП-158

2. Аимбетов Н.К. Мураккаб экологик шароитда иқтисодий ва ижтимоий жараёнларни моделлаштириш. Т.: ТДИУ. Иқтисод фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати.2000, 22 б.

3.Кондратьев К.Я., Лосев К.С. Иллюзии и реальность стратегии устойчивого развития // Вестник Российской академии наук. 2012. Т. 72. № 7.

С. 592–601.

4.Татаркин А.И и др. Моделирование устойчивого развития как условие повышения экономической безопасности территории - Екатеринбург: Изд-во Урал.ун-та, 1999. - 276 с.

5. Шестой оценочный доклад Межправительственной группы экспертов ООН по изменению климата (МГЭИК), 13-19 марта 2023 г. URL: https://www.ipcc.ch/report/sixth-assessment-report-cycle

6.Homer-Dixon T.F. Environment, Scarcity, and Violence. Princeton, N.J.: Princeton University Press, 1999. 253 p.

## МИНТАҚАДА ҚАЙТА ТИКЛАНАДИГАН МАНБАЛАРГА ЎТИШНИНГ ЗАРУРИЯТИ.

**Хайдарова Ш. Д., Термиз иктисодиёт ва сервис университети, ўкитувчи.**

**Аннотация.** Мақолада глобаллашув асрида инсон тараққиёти ва инсониятнинг барқарор ривожланишни таъминлашдаги иқтисодий ёндашуви чекланган ресурслардан оқилона фойдаланишни назарда тутган ҳолда, табиат томонидан кутилиши мумкин бўлган табиий инқирозлар қаршисида тургани, бунинг натижасида, муттасил табиий ресурслар захираси камайиб бораётгани хусусида фикр юритилади.

**Аннотация.** В статье рассматривается тот факт, что в эпоху глобализации развитие человечества и экономический подход к обеспечению устойчивого развития человечества с учетом рационального использования ограниченных ресурсов сталкивается с закономерными кризисами, которые могут ожидаться природой, в результате из них запасы непрерывных природных ресурсов сокращаются.

**Abstract:** The article examines the fact that in the era of globalization, the development of mankind and the economic approach to ensuring the sustainable development of mankind, taking into account the rational use of limited resources,

faces natural crises that can be expected by nature, as a result of which the reserves of continuous natural resources are reduced.

Бугунги глобаллашув шароитида атроф-муҳит муҳофазаси масалалари сезиларли даражада мураккаб бўлган ижтимоий-иқтисодий муаммолардан бири эканлиги эътироф этилмокда. Ер юзидаги барча давлатлар олдида турган бугунги куннинг энг долзарб муаммоси табиий бойликлардан оқилона фойдаланиш, атроф муҳитга етказиладиган зарарларни камайтириш ва келажак авлодлар учун асраш ечимининг муқобил вариантларини топишдан иборатдир. Мамлакатлар ўз фуқароларининг фаровонлигини ошириш учун миллий бойлик орттиришга интилишмоқда, ҳамда иқтисодий ўсишга ҳаракат қилишмоқда. Ҳар қандай жадал иқтисодий ривожланиш эса табиий ресурлардан оқилона фойдаланишни талаб этади «Яшил иқтисодиёт»ни ривожланишини жадаллаштириш мамлакатдаги ижтимоий-иқтисодий муносабатларни ислоҳ этиш ва таркибий ўзгаришларни амалга ошириш жараёнларини тадқиқ этишда муҳим илмий-амалий аҳамиятга эга бўлган долзарб муаммолардан хисобланади.

Яшил иқтисодиётга ўтиш жараёни ҳар бир мамлакат учун алоҳида аҳамият касб етиб, табиий капитал, инсон капитали ва мамлакатнинг иқтисодий ривожланиш даражаси каби хусусиятларга бевосита боғлиқ ҳолда рўй беради.

Ўзбекистонда 2023 йилда газ қазиб олиш ҳажми ўтган шу даврга нисбатан 9,6 фоизга ёки 4,97 миллиард куб метрга камайганлигини билдиради. Бу эса тезроқ қайта тикланадиган энергия манбаларга ўтиш кераклигини исботлаб турибди




**1-расм. Ўзбекистонда сўнгги 5 йилда газ қазиб олиш ҳажми**

Эслатиб ўтамиз, Ўзбекистонда ишлаб чикарилаётган электр энергиясининг қарийб 80–85 фоизи газда ишлайдиган иссилиқ электр станцияларига тўғри келади, бироқ фотоэлектр станцияларининг янги қувватларини ишга тушириш билан уларнинг улуши камайиб бормокда.[1]




*2- расм Қуёш электр стансиялари томонидан ишлаб чиқарилган электр энергияси*




***3-расмда Иссиқлик электр марказлари ва иссиқлик электр станцияларининг жами ўрнатилган қуввати***

Ўзбекистонда яшил иқтисодиётнинг асосий йўналишларидан бири қайта тикланадиган энергия ҳисобланади. Бугунги кунда мамлакатимизда қуёш, шамол ва гидроэнергетика ресурслари учун катта салоҳият мавжудлиги ёқилғи-энергетикага қарамлигини камайтиришга имконият беради.

Республикамизда қайта тикланадиган энергия лойиҳаларини ривожлантиришни рағбатлантириш сиёсати ва маълум бир имтиёзларни амалга оширмоқда. Масалан, тарифлар ва солиқ имтиёзларининг амалга оширилиши энергетика соҳасида қайта тикланадиган энергия улушини оширишга хизмат қилмоқда. Натижада қазиб олинадиган ёқилғи-энергетикага қарамликни камайтириш ва иссиқхона газлари чиқиндиларини камайтиришга эришилмоқда.

Қайта тикланадиган энергия соҳасининг ривожланиши мамлакатимизнинг янада барқарор ва кам углеродли иқтисодиётга ўтиш борасидаги саъй-ҳаракатларида ҳал қилувчи роль ўйнайди. Юртимизда мазкур салоҳиятни эътироф этган ҳолда қайта тикланувчи энергия манбаларини ривожлантиришни рағбатлантириш ва жадаллаштириш бўйича турли чора-тадбирлар амалга оширилмоқда.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 17 февралдаги “2023 йилда қайта тикланувчи энергия манбаларини ва энергия тежовчи технологияларни жорий этишни жадаллаштириш чора-тадбирлари

тўғрисида”ги ПҚ 57 сонли қабул қилинди.Ушбу қарорда келтирилган вазифалар ижросини таъминлаш мақсадида 2023 йил охирида умумий қуввати 2,4 ГВт бўлган 6 та ноанъанваий электр станциялар қурилиб фойдаланишга топширилди. Навоий вилоятининг Томди туманида ишга туширилган 500 МВтлик “Шамол электр станцияси” ҳам шулар жумласидан.




***4-расм-Шамол электр станциялари томонидан ишлаб чиқарилган электр энергияси ҳажми***

Қуёш нури миллард йиллар давомида ер юзига тушиб барча тирик организмлар, ўсимликларнинг баҳра олиб яшаши, гуркираб ўсиши, ривожланишини таъминлаб бера олганлиги сабабли экологик тоза энергия манбаи этиб қабул қилинган. Содда қилиб айтганда, инсоният қуёш нуридан фойдаланишда ақл билан иш юритиши, ундан унумли фойдаланиши, қуёш нурини жамлаш, йўналтириб мақсадли фойдаланиш билан бирга ер юзида экологик мусаффоликка салбий таъсир етмайдиган технологияларни кашф этиши ва қўллаши керак [9]

Республикада бир йилда қуёш нури давомийлиги шимолда 2000 соатга етади ҳамда жанубий ҳудудларда 3000 соатдан ошади. Сутка давомида қуёш нур сочиши 7-10 соат, йиллик жами нурланиш шимолда 4800 МДж/м2 гача ўзгариб туради. Бу республика бўйича қуёш энергияси салоҳиятининг ўртача

[9] N. T. Toshpo‘latov, D. B. Qodirov QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARI fanidan O‘QUV QO‘LLANMA.132бет

қийматларини тавсифлайди, лекин аниқ ҳудуддаги қуёш энергияси ускунасининг ишлаш шароити ва техникавий имкониятлари ҳақида малумот бермайди. Шунга қарамай, қуёш энергиясининг техникавий салоҳияти республиканинг энергияга бўлган йиллик талабини тўрт баробар қоплайди, бу еса салоҳиятнинг қанчалик тўғри аниқланганлигидан далолат беарди.[2]

Қорақалпоғистон Ахборот агентлиги маълумотига кўра Қорақалпоғистонда 3 та йирик шамол электр станцияси қурилади. Президент қарори билан Қорақалпоғистон Республикасининг Қўнғирот туманида Саудия Арабистонининг «ACWA POWER» компанияси томонидан ҳар бирининг қуввати 500 МВт бўлган шамол электр станцияси, қуввати 100 МВт бўлган электр энергиясини сақлаш тизимини ҳамда ҳаво электр узатиш тармоғини барпо этиш бўйича лойиҳалар маъқулланди. Бунинг учун масъулияти чекланган жамият шаклидаги “Kungrad Wind-1”,“Kungrad Wind-2” ва “Kungrad Wind-3” қўшма корхоналари ташкил этилди. Инвестор ҳар бир лойиҳа доирасида сарф-ҳаражатларни ўз бўйнига олган ҳолда 667 млн долларлик тўғридан-тўғри сармоя жалб қилади. Ўзбекистон эса ишлаб чиқарилган электр энергиясини кафолатли сотиб олади. Инвестор шамол электр станциясини ягона тармоққа улаш учун подстанция қуради, электр симларини тортади. Сўнг уларни "Ўзбекистон миллий электр тармоқлари" АЖга топширади. Янги подстансия ва ҳаво электр узатиш тармоқлари учун сарфланган харажатлар 10 йил давомида қоплаб берилади.[10]

Қайта тикланадиган энергия соҳасининг ривожланиши учун мамлакатимизда кўплаб амалий ишлар бажарилмокда.

2025 йилгача Ўзбекистоннинг қайта тикланадиган энергия манбаларини ривожлантиришга давлат бюджетидан 314,1 миллиард сўм (81 миллион АҚШ доллари) ва 20,5 трлн сўм (5,3 млрд АҚШ доллари) хорижий инвестициялар шаклида сарфлаш режалаштирилган[3][11]

[10] https://kknews.uz/oz/185896.html
[11] Н.Ҳ.ҲАКИМОВ, О.М.АХМЕДОВ, А.А.АБДУМАЛИКОВ З.Б.ШАРИПОВА ЯШИЛ ИҚТИСОДИЁТ ВА ЭКОЛОГИЯ.59 бет

Бугунги кунда глобал миқёсда барқарор ривожланишга эътибор қаратилаётгани ва экологик муаммоларни ҳал етишнинг долзарблиги Ўзбекистоннинг халқаро сармоявий муҳитини чуқурроқ таҳлил қилишни тақозо етмоқда. Буни Янги Ўзбекистоннинг иқтисодий ўсиши ва атроф-муҳитни муҳофаза қилиш мувозанатини таъминловчи барқарор яшил иқтисодиётни рағбатлантиришга тобора кўпроқ эътибор қаратаётганида кўриш мумкин. Қайта тикланадиган энергия, тоза технологиялар ва барқарор қишлоқ хўжалиги учун улкан салоҳиятга ега бўлган мамлакат ўзининг яшил амбицияларига мос келадиган сармояларни жалб қилишга интилмоқда.

Бундан ташқари, Ўзбекистон барқарор ривожланишга кўмаклашиш ва яшил инвестицияларни жалб қилиш бўйича бир қанча ташаббусларни амалга оширди. Янги Ўзбекистоннинг Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг Барқарор Тараққиёт Мақсадларига (БРМ) содиқлиги қайта тикланадиган энергия манбаларини қабул қилиш ва екосаноат паркини барпо етиш каби турли сиёсий чора-тадбирлар орқали яққол намоён бўлмоқда. Бу саъй-ҳаракатлар екологик тоза лойиҳаларга қизиқувчи халқаро инвесторларнинг ижобий етиборини қозонди.

Маълумки, инсон ва табиат ҳаёти ўзаро уйғун. Табиий ресурслар инсонни озиқлантиради, кийинтиради. Биз ҳаётбахш неъматлардан самарали фойдаланиш орқали яшаш даражамиз ва фаровонлигимизни яхшилаб борамиз.

Аммо саноат, қишлоқ хўжалигининг ривожи, аҳоли сонининг кескин кўпайиши инсоният учун кўплаб экологик муаммоларнинг келиб чиқишига сабаб бўлмоқда. Боиси талаб ва эҳтиёжларни қондириш мақсадида чуқур ўйланмасдан қилинаётган ишлар туфайли табиий ўрмонлар қисқариб бормоқда, сув муаммоси, атроф-муҳитнинг бузилиши кузатиляпти.

Шиддат билан янгиланиб ва ўзгариб бораётган бугунги даврда «яшил» иқтисодиётга ўтиш муҳим ҳаётий эҳтиёжга айланди. Сайёрамизда шаҳарлар йириклашиб, аҳолиси 20–35 миллионли мегаполислар кўпайиб бормоқда. Бу энергоресурслар, айниқса, ёқилғига бўлган талабни кун сайин ошириб

бораётир. Инсон омили туфайли охирги юз йилда ер шарида экин экиладиган ер майдони тўртдан бир қисмга, ўрмонлар учдан икки қисмга қисқарди.

Шунингдек, охирги 50 йил ичида дунёда аҳоли жон бошига тўғри келадиган ичимлик суви 60 фоизга камайди. Ҳар йили саноатда фойдаланилган 150−160 км. куб сув дарёлар, кўлларга оқизилади. Турли фалокатлар, техник хатолар туфайли ҳар йили уммонларга 25−30 миллион тонна нефть тушади. Саноатда 1 тонна пўлат олиш учун 300 метр куб сув, 1 тонна қоғоз ишлаб чиқаришга 900 метр куб сув ишлатилади. Умумий сувнинг 70 фоизи қишлоқ хўжалигида, 20 фоизи саноатда ва 10 фоизи уй хўжаликларида сарфланади. Тахминларга кўра, 2030 йилга бориб сайёрамизнинг 47 фоиз аҳолиси сув танқислиги муаммоси билан юзма-юз бўлади.

Орол денгизининг бугунги ҳолати ушбу фикрни тасдиқлайди. Собиқ иттифоқ даврида пахта етиштиришни кўпайтириш мақсадида Орол денгизига бориб қуйиладиган Амударё ва Сирдарё сувлари чўлларни ўзлаштириш учун жалб этилди. Натижада, экологик мувозанат бузилди.

Хулоса килиб айтганда, «яшил» иқтисодиётга ўтиш хозирги куннинг энг долзарб муаммоли масалаларидан биридир. Мамлакатимизда “яшил иқтисодиёт” асосида барқарор ривожланишни таъминлашда Ўзбекистон Республикаси Президенти томонидан 2019 йил 4 октябрда тасдиқланган “2019–2030 йилларда Ўзбекистон Республикасини "яшил" иқтисодиётга ўтиш стратегияси” муҳим дастурий амал ҳисобланади. “Яшил иқтисодиёт”га ўтишнинг муҳим вазифалари қаторига иқтисодиётнинг энергия самарадорлигини ошириш ва табиий ресурсларни оқилона истеъмол қилиш асосий вазифамиз ҳисобланади.

**Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1. Вахабов А.В., Хажибакиев Ш.Х. Барқарор иқтисодий ривожланишни таъминлашда “яшил иқтисодиёт”нинг ўрни /“Жаҳонда барқарор иқтисодий ривожланиш концепцияларини амалга ошириш механизми ва дастаклари”

мавзусидаги республика илмий-амалий конференцияси материаллари тўплами. .: Тошкент. “Universitet”. 2018.

2. А.В.Вахабов, Ш.Х.Хажибакиев ва бошқалар. – “Яшил иқтисодиёт” Дарслик. Тошкент.: “Universitet”, 2020. -262 б.

3. 2030 йилгача Ўзбекистон Республикасининг «Яшил» иқтисодиётга ўтишига қаратилган ислоҳотлар самарадорлигини ошириш бўйича чора-тадбирлар тўғрисида Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарори, 02.12.2022 йилдаги ПҚ-436-сон

4. Н.Ҳ. Ҳакимов, О.М.Ахмедов, А.А.Абдумаликов З.Б.Шарипова Яшил иқтисодиёт ва экология. Дарслик.

5. И.Хотамов, М.Султонов, А.Ядгаров. Атроф- муҳит ва табиий ресурслар иқтисодиёти. «Innovatsion rivojlanish nashriyot matbaa uyi», 2021. 312 bet.

## MINTAQADA YASHIL IQTISODIYOTNI SHAKLLANTIRISHDA MEHNAT RESURSLARI OMILLARI

**Durumov T. G`., Urganch davlat universiteti tayanch doktoranti**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada biz yashil iqtisodiyotni shakllantirishda mehnat resurslari omili qanchalik muhimligiini xorij tajribalarini o´rgangan holda tahlil qilamiz.

**Аннотация.** В данной статье мы анализируем, насколько важен фактор трудовых ресурсов в формировании зеленой экономики, изучив зарубежный опыт.

**Abstract.** In this article, we analyze how important the factor of labor resources is in the formation of a green economy, having studied foreign experiences.

**Kalit so’zlar.** Ishchi kuchi, mehnat resurslari, kadrlar salohiyati, ishsizlik, tadbirkorlik, biznes, qishloq xo`jaligi sub`ektlari, agrar iqtisodiyot, yashil iqtisodiyot

**Ключевые слова.** Рабочая сила, трудовые ресурсы, кадровый потенциал, безработица, предпринимательство, бизнес, субъекты сельского хозяйства, аграрная экономика, зеленая экономика

**Key words.** Workforce, labor resources, personnel potential, unemployment, entrepreneurship, business, agricultural entities, agrarian economy, green economy.

Yashil iqtisodiyot - bu ekologik xavflarni va ekologik tanqislikni kamaytirishga qaratilgan va atrof-muhitni buzmasdan barqaror rivojlanishni maqsad qilgan iqtisodiyot. U ekologik iqtisodiyot bilan chambarchas bog‘liq, lekin ko‘proq siyosiy jihatdan qo‘llaniladigan yo‘nalishga ega. Yashil Iqtisodiyot Birlashgan Millatlar Tashkilotining Atrof-muhit dasturi hisobotida ta’kidlanishicha, „yashil bo‘lishi uchun iqtisodiyot nafaqat samarali, balki adolatli bo‘lishi kerak. Adolatlilik global va mamlakat darajasidagi tenglik o‘lchovlarini tan olishni, xususan, past uglerodli, resurslarni tejaydigan va ijtimoiy jihatdan qamrab oluvchi iqtisodiyotga adolatli o‘tishni ta’minlashni nazarda tutadi.

Shuningdek. ta’limga investitsiyalar kiritishni rag‘batlantirish, yetakchi xorijiy ta’lim muassasalari va ilmiy-tadqiqot markazlari bilan hamkorlikni rivojlantirish hisobiga “yashil” iqtisodiyotdagi mehnat bozori bilan bog‘liq kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini rivojlantirish chora tadbirlari amalga oshirilmoqda[1].

Yashil iqtisodiyotga o‘tish atrof-muhitni muhofaza qilish va resurslardan samarali foydalanishga ustuvor ahamiyat beradigan barqaror amaliyotlarga o‘tish demakdir. Ushbu maqolada biz yashil iqtisodiyotga o‘tish kontseptsiyasi, uning foydalari va xatarlari hamda biznesga o‘tish bilan bog‘liq o‘ziga xos fikrlarni o‘rganamiz.

Yashil iqtisodiyotga o'tish iqtisodiy o'sish va ijtimoiy farovonlikni rag'batlantirish bilan birga ekologik barqarorlikni ta'minlash uchun iqtisodiy modellar va siyosatlarni qayta belgilashni talab qiladi. Bu CO2 emissiyasini minimallashtirish, resurslarni tejash va qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirishga qaratilgan amaliyotlarni o'z ichiga oladi. Yashil iqtisodiyotga o‘tishga yondashuv iqtisodiy rivojlanish va atrof-muhit muhofazasi o‘rtasidagi uyg‘un muvozanatga erishishga qaratilgan.

Yashil iqtisodiyotning afzalliklari jiddiy va keng qamrovli. Birinchidan, u iqlim o'zgarishini yumshatish, ekotizimlarni himoya qilish va biologik xilma-xillikni himoya qilish orqali atrof-muhitga foyda keltiradi. Iqtisodiy nuqtai nazardan, yashil iqtisodiyotga o'tish katta foyda keltiradi. Qayta tiklanadigan energiya, yashil qurilish va chiqindilarni boshqarish kabi yashil sektorlar ish o'rinlari yaratish, iqtisodiy o'sish va uzoq muddatli farovonlikka hissa qo'shadi. Bundan tashqari, yashil iqtisodiyotga o‘tish kompaniyalar uchun resurslar samaradorligi va xarajatlarni tejashga yordam beradi. Energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish, barqaror ta'minot zanjiri amaliyotini qo'llash va resurslardan foydalanishni optimallashtirish operatsion xarajatlarni kamaytirishga olib kelishi mumkin. Chiqindilarni minimallashtirish, energiya sarfini optimallashtirish va aylanma iqtisod tamoyillarini amalga oshirish orqali kompaniyalar raqobatbardoshligini oshirish bilan birga sezilarli xarajatlarni tejashga erishiladi.

Yashil iqtisodiyotga o‘tishning foydalari katta bo‘lsa-da, ular bilan bog‘liq xavflarni tan olish va boshqarish muhimdir. Kompaniyaning yashil iqtisodiyotga o'tishi ba'zi xavflarni o'z ichiga oladi, masalan: barqaror texnologiyalarni joriy etish, xodimlarni qayta tayyorlash yoki mavjud infratuzilmani qayta jihozlash uchun yuqori dastlabki xarajatlar. Bu dastlabki to'siqlarni yengib o'tish uchun puxta rejalashtirish, strategik qarorlar va moliyaviy investitsiyalar talab etiladi.

Kichik biznesning ulkan salohiyati uni moddiy, moliyaviy va inson resurslari va kapitali qatori ishlab chiqarishning asosiy omillardan biri ekanligining ilmiy asoslari tadqiq qilingan[2, 194-bet].

Yashil iqtisodiyotga o‘tishda ta’lim tizimi muhim o‘rin tutadi – u nafaqat ertangi kunning malakali kadrlarini tayyorlaydi, balki butun umr davomida ta’lim olish va kattalar ta’limi nuqtai nazaridan ham dolzarbdir. Faqatgina o'sib borayotgan texnologiya tufayli, 2025 yilga kelib xodimlarning kamida 50 foizi qayta malaka oshirishga muhtoj bo'ladi[3, 4-bet].

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, yashil iqtisodiyotga o‘tish korxonalar, jamiyat va atrof-muhit uchun ko‘p foyda keltiradi. Barqaror amaliyotlarga o‘tish nafaqat atrof-muhitga ta’sirni yumshatibgina qolmay, balki iqtisodiy o‘sishni, yangi ish o‘rinlarini yaratish va innovatsiyalarni ham rag‘batlantiradi. O'tish xavfi va qiyinchiliklar bilan birga kelgan bo'lsa-da, proaktiv kompaniyalar strategik rejalashtirish, me'yoriy hujjatlarga rioya qilish va manfaatdor tomonlarni jalb qilish orqali ushbu xavflarni kamaytirishi mumkin. Shu bilan birga, siyosatchilar kompaniyalarni yanada barqaror kelajak sari ishlashga undaydigan asoslarni yaratish ustida qattiq ishlashlari muhim.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4477-son qarori

2. Mehnat iqtisodiyoti va inson kapitali № 2-2023

3. Green Jobs & Skills , GREEN TECH RADAR December 2023

## MAMLAKATIMIZDA YASHIL IQTISODIYOTNI SHAKLLANTIRISHNING ASOSIY MEXANIZMLARI

**Narziyeva D. M., Buxoro davlat universiteti Iqtisodiyot kafedrasi katta o’qituvchisi.**

**Madaminov A. U., BuxDu Iqtisodiyot va turizm fakulteti**

**3-1BBKT-21 guruhi talabasi.**

**Annotasiya.** Ushbu maqolada mamlakatimizda yashil iqtisodiyotni rivojlantirish va modernizatsiyalash chora-tadbirlari, sohada yaratilgan keng imkoniyatlar, shu bilan bir qatorda O’zbekistonda “Yashil iqtisodiyotni” rivojlantirishning samarali yo’llari doirasidagi asosiy yo’nalishlarning tahliliy ma’lumotlari keltirilgan.

**Kalit so’zlar.** “Yashil” iqtisodiyot, investitsiya, atrof-muhit, ekologik muammolar, tabiiy resurslar, strategiya.

Bugungi kunda butun dunyo iqlim o'zgarishlarini insoniyatga xavf tug'dirayotgan eng katta muammolar sifatida tan olmoqda. Ekologik muammolarni bartaraf etish, atrof-muhitni muhofaza qilishga katta e'tibor qaratilmoqda. Buning natijasida “Yashil Iqtisodiyot” ning borgan sari dolzarbligi va muhimlilik darjasi ortib bormoqda. Bu esa atrof-muhitga zarar yetkazmaslik va tabiy resurslarni saqlab qolishga nafi tegadigan tovarlar va xizmatlarni tashkil qilish va iste’molga yo’naltirishni o’z ichiga oladi.

Mamlakatimizda ham bu borada keng qamrovli amaliy ishlar olib borilmoqda.

Xususan, ushbu sohaga doir ko’plab normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Tugab qayta tiklanadigan resurslardan foydalanishga doir “Gidrometeorologiya faoliyati to'g'risida”gi qonun ishlab chiqildi, 2030-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining atrof muhitni muhofaza qilish konseptsiyasi bo'yicha 2019-2030 yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "Yashil iqtisodiyot"ga o'tish strategiyasi shular jumlasidandir.

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining, 2022-yil 2-dekabrdagi 2030-yilgacha O’zbekiston Respublikasining “Yashil iqtisodiyot”ga o’tishga qaratilgan islohatlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida”gi qarori mazkur jarayonlarning mantiqiy davomi sifatida Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida belgilangan vazifalarning o'z vaqtida ijrosini ta'minlash, “yashil” iqtisodiyotga o'tish strategiyasi doirasida “yashil” va inklyuziv iqtisodiy o'sishni ta'minlash borasidagi chora-tadbirlar samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi

energiya manbalaridan foydalanish hamda iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida resurslarni tejash yo'lidagi muhim tarixiy hujjat, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Xalqaro rivojlanish bo’yicha hamkorlar O’zbekistonga kam uglerodli rivojlanish loyihalarini tadbiq qilish, iqlimga chidamlilikni oshirish va tabiiy ofatlar xavfini kamaytirishda yordam bermoqdalar.

Yashil iqtisodiyotni rivojlantirishni takomillashtirish, barqarorlashtirish, atrof- muhitni muhofaza qilish va resurslardan samarali foydalanish, shu bilan bir qatorda iqtisodiy o’sish, iqtisodiy farovonlikni ta’minlovchi quyidagi asosiy yo’nalishlar va ular doirasida amaliyotlarni amalga oshirishni o‘z ichiga oladi:

- Yashil iqtisodiyotga o‘tishni qo‘llab-quvvatlash uchun uglerod narxini belgilash mexanizmlari, qayta tiklanadigan energiya subsidiyalari, eko-yorliqlash sxemalari va yashil xaridlar siyosati kabi turli siyosat vositalari amalga oshirildi. Tahlillarga ko’ra bu vositalar korxonalarga va iste’molchilarga amaliyotda yanada barqaror rivojlanishga va texnologiyalarni yanada samarali o’zgartirishga yordam berdi.

- Qayta tiklanadigan energiya, energiya tejaydigan binolar va barqaror qishloq xo‘jaligi kabi toza texnologiyalarga investitsiyalarning ko‘payishi issiqxona gazlari chiqindilari va atrof-muhitga ta’sirni kamaytirish bilan birga yangi iqtisodiy imkoniyatlar va ish o‘rinlarini yaratish ko‘rsatilgan.

- Chiqindilarni kamaytirish, qayta ishlash va uzoq umr ko‘rish uchun mahsulot dizayni kabi aylanma iqtisod amaliyotlarini qabul qilish iqtisodiy samaradorlikni oshirish bilan birga resurslarning kamayishi va chiqindilar hosil bo‘lishini kamaytirishga yordam beradi. Tadqiqotlarga ko’ra aylanma iqtisodga o’tish harajatlarni va reysurslarni tejaydi, biznes uchun yangi imkoniyatlarga yo’l ochib berishi mumkin.

- Ekologik, ijtimoiy va boshqaruv mezonlarini investitsiya qarorlariga integratsiyalashuvi so‘nggi yillarda jadal sur’atlarga ega bo‘lib, o‘z portfellarida barqarorlik omillarini hisobga olgan investorlar soni ortib bormoqda. Tadqiqotlarga ko‘ra, barqaror investitsiyalar raqobatbardosh moliyaviy daromad keltirishi, shu bilan birga ijobiy ekologik va ijtimoiy natijalarni berishi mumkin.

- Yashil iqtisodiyotga o‘tish qayta tiklanadigan energiya, yashil qurilish va barqaror transport kabi sohalarda yangi ish o‘rinlarini yaratish salohiyatiga ega. Tahlillarga ko‘ra, yashil ish o‘rinlari uchun malaka oshirish va ishchi kuchini o‘qitishga sarmoya kiritish iqtisodiy barqarorlikni oshirish, ijtimoiy inklyuziyani rivojlantirish va kam uglerodli iqtisodiyotga o‘tishni qo‘llab-quvvatlashi mumkin.

Umuman olganda, yashil iqtisodiyotni rivojlantirishning asosiy mexanizmini takomillashtirish bo‘yicha tahlil va natijalar barqarorlik tamoyillarini iqtisodiy siyosat va amaliyotga integratsiyalashuvi atrof-muhitni muhofaza qilish, iqtisodiy o‘sish va ijtimoiy taraqqiyot kabi ko‘plab afzalliklarga olib kelishi mumkinligini ko‘rsatadi. Barqarorlikka ustuvor ahamiyat beruvchi iqtisodiy rivojlanishga yaxlit yondashuvni qo‘llash orqali mamlakatlar hamma uchun yanada mustahkam va farovon kelajak qurishlari mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo’lsak, yashil iqtisodiyotga o’tish iqlim o’zgarishi va biologik xilma-xillikning yo’qolishiga sabab bo’ladi va resurslarning kamayib borishi kabi muammolarni hal qiladi. Shu bilan birga barqaror iqtisodiy rivojlanish va ijtimoiy farovonlikni rag‘batlantirish uchun muhim ahamiyatga ega. Yashil iqtisodiyotni rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmi barqaror o‘sish shu bilan bir qatorda barqarorlikni ta’minlash uchun siyosiy vositalar hisoblanadi. Investitsiya strategiyalari va innovatsion biznes modellarini birlashtirgan kompleks va integratsiyalashgan yondashuvni talab qiladi. Yashil iqtisodiyot yangi ish o’rinlar, innovatsiyalar, resurslarning samaradorligini oshirish va shu bilan bir qatorda atrof- muhitni muhofaza qilish nuqtai nazaridan ijobiy natijalar ko’rsatadi, yanada barqaror va kam uglerodli kelajakka o‘tishning iqtisodiy afzalliklarini qayd etadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 11.09.2023 yildagi PF-158-son

2. [Narzieva, D. M. "Fundamentals of Digital Marketing Development." Research and Publications 1.1 (2024): 180-184.]

3. [Каймова З. Туробова Х (2022). Ўзбекистонда биоиқтисодиётни ривожлантириш омиллари. Iqtisodiyot: tahlillar va prognozlar. 1(17). https://ifmr.uz/journals/14]

4. [Bebudovna, Boltaeva Shahnoz, and Narzieva Dilafiruz Mukhtorovna. "The cost-effectiveness of the use of water resources in agriculture." Вестник науки и образования 23-2 (101) (2020): 26-28.]

5. [Abdullayevna, Qayimova Zumrad, Qodirov Aziz Anvarovich, and Narziyeva Dilafiruz Muxtorovna. "Theoretical foundations of enhancing the competitiveness of the national economy." Gwalior management academy 87: 54.]

6. https://parliament.gov.uz/ru/news/ozbekiston-2030-strategiyasini amalga oshirishning-iqtisodiy-va-huquqiy-asoslari

## HUDUDLARNING INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISHDA TABIIY GEOGRAFIK SALOHIYATINING O‘RNI VA AHAMIYATI.

**O.Q.Akramova Buxoro muhandislik-texnologiya instituti doktoranti.**

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada Buxoro viloyati bo'yicha tabiiy resurs salohiyatining tavsifi berilgan. Shuningdek, tabiiy resurs salohiyatini baholash mezonlari ko’rsatilgan va uni baholashning zamonaviy usullari tavsiflangan. Ta'kidlanishicha, tabiiy resurslarning ekologik va iqtisodiy xususiyatlarini mamlakatning milliy boyligini baholashga kiritish maqsadga muvofiqdir.

**Аннотация.** В данной статье дается описание природно-ресурсного потенциала Бухарской области. Также указаны критерии оценки природно-ресурсного потенциала и описаны современные методы его оценки. Отмечается, что экологические и экономические характеристики природных ресурсов целесообразно включать в оценку национального богатства страны.

**Abstract.** This article describes the natural resource potential of the Bukhara region. The criteria for assessing the natural resource potential are also specified and modern methods of its assessment are described. It is noted that it is advisable

to include the environmental and economic characteristics of natural resources in the assessment of the national wealth of the country.

**Kalit so’zlar. T**abiiy resurslar salohiyati, tabiiy sharoitlar, tabiiy resurslar, konlar, mintaqalarning iqtisodiy rivojlanishi.

**Ключевые слова.** Природно-ресурсный потенциал, природные условия, природные ресурсы, месторождения, экономическое развитие регионов.

**Keywords.** Natural resource potential, natural conditions, natural resources, deposits, economic development of regions.

Bugun insoniyat yangi tahdidlar oldida turgani sir emas, albatta. Yer shari aholisi ko’payishni davom etmoqda, tabiiy resurslar zaxirasi esa muttasil ravishda qisqarib boryapti. Bunday disproporsiya dunyo mamlakatlarini tang ahvolga solmoqda. Shularni inobatga olib, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish zarurligi doirasida viloyatda qay darajadagi imkoniyatlar mavjudligi bo’yicha izlanishlar olib borishni joiz deb hisobladik.

Tadqiqotimizda Buxoro viloyatining shahar(tuman)larining tabiiy resurs salohiyati o'rganildi. Ushbu tadqiqotning maqsadi tabiiy resurs salohiyati Buxoro viloyatining iqtisodiy rivojlanishiga qanday ta'sir qilishini ko'rsatishdir. Ushbu tadqiqotning natijasi tabiiy resurs salohiyatining hududlarning iqtisodiy rivojlanishiga ta'siri qanday aks ettirilganligini aniqlashdir.

Hududlarning investitsion jozibadorligini oshirishda ularning tabiiy sharoiti va tabiiy resurslarining o’rni beqiyosdir. Tabiiy sharoiti qulay va tabiiy resurslar bilan ta’minlanganlik darajasi yuqori bo’lsa, investorlar o’z mab’lag’larini kiritishi uchun birlamchi asos bo’lib xizmat qiladi. Shuning uchun Buxoro viloyatining tabiiy-resurs salohiyatini o’rganish orqali, uning foydalanish mumkin bo’lgan imkoniyatlardan investitsion jozibadorligini oshirish maqsad qilib olindi. Odatda, ham tabiiy resurs salohiyat baholanayotganda nafaqat real borliq, balki imkoniyat ham nazarda tutiladi va bu imkoniyatlardan foydalanish hudud iqtisodiy rivojlanish istiqbollari asosida yotadi.

Joriy yilda Prezident Shavkat Mirziyoev raisligida bo'lib o'tgan videoselektor yig'ilishida “tumanni eng katta zaxirasi ham, imkoniyati ham – yer” deb bejizga aytilmadi.[1]. Dunyoda shunday hududlarga ega mamlakatlar borki, ular joylashgan hududda tabiiy resurslar umuman yo‘q yoki bo‘lsa ham juda oz miqdorda, shunga qaramasdan, rivojlangan mamlakatlar qatoriga kiradi. Masalan, Yaponiya, Janubiy Koreya, Singapur va boshqalar. Yer resurslari Buxoro viloyati uchun ham eng asosiy manba hisoblanadi. Chunki, O‘zbekiston viloyatlari ichida chegarasining kattaligi bo‘yicha Navoiy viloyatidan keyin ikkinchi o‘rinda turadi.

Hozirgi vaqtda Buxoro viloyatida qishloq xo'jaligida foydalaniladigan ekin yerlari 200100 gektarga teng bo'lib, ushbu yerlarda yalpi qishloq xo'jalik maxsulotlarini yetishtirish imkoniyati mavjud. Bu imkoniyatlardan har bir shahar(tuman) qay darajada foydalanayotganligini ularning tabiiy-geografik salohiyatini baholash (1-jadval) orqali aniqlaymiz.

1-jadval

Buxoro viloyatining tabiiy-geografik salohiyatini baholash tizimi[2]

| Ko'rsatkichlar | xususiyatlari | Hisoblash formulasi |
|---|---|---|
| Hudud maydonining ulushi ($IS_{1.1}$) | Hudud maydonining viloyat hududi maydonidagi ulushini ko'rsatadi | $IS_{12}=\frac{M_h}{M_v}$<br>$M_h$ −hudud maydoni,<br>$M_v$ −viloyat hududi maydoni |
| Ekin yerlari ulushi ($IS_{1.2}$) | Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarning umumiy yer maydonidagi ulushini ko'rsatadi | $IS_{13}=\frac{M_{q/x}}{M_h}$<br>$M_{q/x}$ −qishloq xo'jaligi ekin yerlari |

| | | |
|---|---|---|
| Aholi zichligi ($IS_{1.3}$) | 1 kv.km.ga to‘g‘ri keladigan aholi soni, kishi | Buxoro viloyati statistika boshqarmasi ma’lumotlarida berilgan |

Buxoro viloyat statistitika boshqarmasining ma’lumotlariga asoslanib hisoblash ishlari 1-jadval formulalari asosida amalga oshiriladi. Shahar(tuman)larning tabiiy-geografik salohiyati bo’yicha aniqlangan ko’rsatkichlar asosida baholash imkoniyatiga ega bo’lamiz.

**Foydalahilgan adabiyotlar ro‘yxati.**

1.https://xs.uz/uzkr/post/tumanning-eng-katta-zakhirasi-ham-imkoniyati-ham-er-prezident.

2.Adabiyotlar tahlili asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi.

## РОЛЬ ЗЕЛЕНОГО МАРКЕТИНГГА В ФОРМИРОВАНИИ ЗЕЛЕНОЙ ЭКОНОМИКИ

**Сапарова М. А.,Ургенчский государственный университет, студентка экономического факультета.**

**Аннотация.** В статье рассматривается сущность зеленого маркетинга как одного из инструментов в реализации принципов «зеленой» экономики.Также выделены основные концепции «зеленого» маркетинга которое помогает популяризовать экологическое сознание населения, повысить уровень продвижения и потребления экологических товаров на рынке.

**Abstract.** The article examines the essence of green marketing as one of the tools in the implementation of the principles of the "green" economy.The main concepts of "green" marketing are also highlighted, which helps to popularize the environmental consciousness of the population, increase the level of promotion and consumption of environmental goods on the market.

**Ключевые слова.** зеленая экономика,зеленый маркетинг, концепция, устойчивое развитие, стратегия.

**Keywords.** green economy,green marketing, concept, sustainable development, strategy.

Во время стремительного технического прогресса проблемы экологии встают перед обществом в новых проявлениях. Растут темпы потребления, что наносит непоправимый ущерб биосфере. И это уже не проблема отдельной страны, континента, это проблема всего человечества. Основные экологические вопросы, волнующие население планет- это чистый воздух и питьевая вода, сохранение плодородия почвы и потребление экологически чистых продуктов. Эти вопросы и пытается решить экологический или «зеленый» маркетинг.

Актуальность темы «зеленого» маркетинга заключается в том, что ее изучение и анализ помогает популяризовать экологическое сознание населения, повысить уровень продвижения и потребления экологических товаров на рынке, выявить вклад каждого предприятия и его страны в решение глобальных вопросов экологии.

«Зеленая» экономика (англ. “green” economics, ecological economics) – современный подход в экономической науке, целью которого является устойчивое развитие человечества, а обязательным условием – сохранение природной среды. «Зеленая» экономика – это экономика, которая приводит к повышению благосостояния человека и обеспечивает социальную справедливость при существенном сокращении экологических рисков и деградации окружающей среды[1].Также на сегоднешней день при переходе к новым условиям хозяйствования определение зеленого маркетинга должно базироваться на принципах «зеленой» экономики.

Однако здесь стоит оговориться о необходимости развития инновационного и инвестиционного потенциалов страны как обязательного условия реализации экологического маркетинга. Если говорить о сущности экологического маркетинга, то на данный момент времени не существует

устоявшегося определения. Но опираясь на классическое определение маркетинга, данное Филиппом Котлером, в соответствии с которым маркетинг-вид человеческой деятельности, направленной на удовлетворение нужд и потребностей посредством обмена [2], можно дать определение зеленому маркетингу. Последний можно представить как вид повышение лояльности потребителей, узнаваемости бренда и объёма продаж за счёт выпуска экологически чистой продукции или использования экологичных технологий производства.

Также, зеленый маркетинг становится жизнеспособной стратегией борьбы с изменением климата[3].Поскольку термин «устойчивое развитие» становится основной темой 21 века, ожидается, что «зеленый» маркетинг продолжит влиять на маркетинговую стратегию и практику в долгосрочной перспективе [4].

Для разработки современных концепций зеленого маркетинга целесообразно систематически анализировать его оценку. Ken Peattie, американский профессор маркетинга, разделил оценку зеленого маркетинга на три периода[5].

**Первый период.** «Экологический зеленый маркетинг» («Экологический зеленый маркетинг»). Зеленый маркетинг – это область, связанная с экологическими проблемами и включающая меры по решению экологических проблем. Зарождение экологического маркетинга связано с социальными и экологическими проблемами, возникшими в конце 60-х – начале 70-х годов. Бесконтрольная трата ограниченных природных ресурсов, от которых зависит все человечество посредством крупных сетей торговли и сферы услуг, привела к появлению концепций «экологического зеленого маркетинга». На этом этапе основное внимание уделяется переключению экологических проблем, таких как загрязнение воздуха, увеличение потребления запасов нефти, нефтяных отходов и воздействия синтетических пестицидов, на экологически чистые продукты.

**Второй период.** «Экологический зеленый маркетинг» («Экологический зеленый маркетинг»). Это концепция зеленого маркетинга, направленная на решение проблем, связанных с производством экологически чистой продукции, оказывающей положительное воздействие на окружающую среду. Эта фаза зеленого маркетинга охватила 1980-е и 1990-е годы, и этот период имеет решающее значение для эволюции зеленого маркетинга. Стихийные бедствия, произошедшие в этот период, и их негативные последствия по всему миру побудили потребителей задуматься о сохранении природы для будущих поколений. В частности, катастрофа в Бхопале 1984 года была признана крупнейшей химической катастрофой в мировой истории. Чернобыльская катастрофа в 1986 году, разлив нефти Exxon Valdes в 1989 году и разрушение озонового слоя в 1995 году — все это привело к фундаментальным изменениям в восприятии и поведении потребителей в отношении окружающей среды.

Фаза зеленого маркетинга важна для маркетологов и самого маркетинга. Потому что основное внимание должно быть сосредоточено не только на отраслях промышленности и наносимом ими ущербе, но и на влиянии продуктов, используемых в быту (чистящие средства, бумага, косметика) на окружающую среду. Поэтому второй этап зеленого маркетинга был очень важен для изменения потребительского поведения и расширения рынка экологически чистой продукции.

**Третий период.** «Устойчивый зеленый маркетинг» («Устойчивый зеленый маркетинг»). Устойчивый зеленый маркетинг появился после 2000-х годов. В этой концепции понимается рациональное использование природных ресурсов. В 2000 году Фуллер впервые определил термин «устойчивый зеленый маркетинг» как процесс планирования, реализации, контроля и ценообразования. Он разделил продукцию по трем критериям, а именно: средства, которые удовлетворяют потребности потребителей, достигают целей организации и развивают весь процесс, одновременно

защищая окружающую среду стратегии и определение стратегических рычагов [6].

В целом маркетинговые стратегии, сформированные в рамках этих концепций, направлены на изменение поведения клиентов в сторону экологичности и устойчивости.

«Зеленый» маркетинг зарекомендовал себя как относительно устойчивый к спаду сектор. «Зеленые» продукты, продолжают показывать устойчивые продажи даже в неблагоприятных условиях, что объясняет внедрение экологически чистых продуктов и услуг среди экологически сознательных потребителей независимо от экономического сценария.Так же, предпринимается ряд инициатив по продвижению «зеленого» маркетинга, в том числе маркетологи активно прибегают к интернет продвижению.

**Литература:**

1.Hachaturov A. E., Guseva T. V., Kretov I. I., Panin G. S. Environmental Marketing. Marketing v Rossii i za rubezhom [Marketing in Russia and abroad], 2000, no. 4 (in Russian).

2.Kotler Ph. Osnovy marketinga: kratkiy kurs [Marketing Basics: short course]. Moscow, Williams Publishing House, 2007. 656 p.

3.FuiYeng W., Yazdanifard R.Green marketing: A study of consumers' buying behavior in relation to green products //Global Journal of Management and Business Research: E Marketing. – 2015. – T. 15. – No. 5. – C. 16-23.

4.Ottman R.etal. Comorbidities of epilepsy: results from the Epilepsy Comorbidities and Health (EPIC) survey //Epi-lepsia.– 2011. – T. 52. – No. 2. – C. 308-315

5. Возиянов, Д.Э. Комплекс маркетинга и подходы к разработке отдельных элементов стратегии экосистемного цифрового маркетинга в предприятии розничной торговой сети / Д.Э. Возиянов // Торговля и рынок. – 2022. – Вып. 3 (63), Т.2. Ч.1. – С. 103-116.

# YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA TURIZMNING AHAMIYATI.

**Ruzmetov Shavkat – Buxgalteriya hisobi va audit kafedrasi o'qituvchisi**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda turizmning ahamiyati o'rganilgan. Malumotlar asosida yashil iqtisodiyotni rivojlantiruvchi turizmning turlari keltirilgan va xulosalar berilgan.

**Abstract.** This article examines the importance of tourism in the development of the green economy. Based on the data, the types of tourism that develop the green economy are presented and conclusions are given.

**Аннотация.** В данной статье рассматривается значение туризма в развитии зеленой экономики. На основе полученных данных представлены виды туризма, развивающие зеленую экономику, и сделаны выводы.

**Kalit so'zlar.** Yashil iqtisodiyot, turizm, ekoturizm, rekreatsion turizm, strategiya.

**Key words.** Green economy, tourism, ecotourism, recreational tourism, strategy.

**Ключевые слова.** Зеленая экономика, туризм, экотуризм, рекреационный туризм, стратегия

Turizm ko'plab mamlakatlarda eng daromadli iqtisodiy faoliyatdir. Turistik bozor xizmatlar bozoridir, chunki xizmatlar ayirboshlashning asosiy ob'ekti bo'lib, rivojlangan turistik bozorlarda umumiy savdoning 80% ni tashkil qiladi. Turistik xizmat - turist yoki sayyohning ehtiyojlarini ta'minlash va qondirishga qaratilgan, turizm maqsadlariga, turistik xizmat, turning, turistik mahsulotning tabiati va yo'nalishiga zid bo'lmagan xizmat ko'rsatish sohasidagi maqsadli harakatlar majmui[1]. Turistik xizmatlar xizmatni mahsulotdan ajratib turadigan to'rtta xususiyatga ega: nomoddiylik, ishlab chiqarish va iste'molning ajralmasligi, o'zgaruvchanlik va saqlash imkoniyati yo'qligi.

Turistlarning ehtiyojlari ehtiyojlarning ortib borishi va yuksalishi qonuniga muvofiq rivojlanadi. Ushbu qonunning mazmuni bizga shaxs (yoki jamiyat)ning rivojlanish darajasi va turizm xizmatlariga bo'lgan ehtiyoj o'rtasidagi ob'ektiv, to'g'ridan-to'g'ri va barqaror sabab-oqibat munosabatlari shaklida ko'rinadi.

Hozirgi turizm ham sanoat kabi turli ekologik, iqlim o’zgarishi va u bilan bog’liq muammolar mahalliy, mintaqaviy va global miqyosda namoyon bo’lib, insoniyat oldiga kechiktirib bo’lmaydigan vazifalarni qo’ymoqda. Shulardan eng muhimi iqtisodiyotda ekologik talablarni joriy etish, ya’ni “yashil” iqtisodiyotga o’tish hisoblanadi.

“Yashil” iqtisodiyot – bu ekologik xavf-xatarlarni kamaytirish, tabiiy resurslardan samarali foydalanish va atrof-muhitga zarar yetkazmasdan barqaror rivojlanishga qaratilgan iqtisodiyotdir. Bir so’z bilan “yashil” iqtisodiyotni kelajak iqtisodiyoti deb ham atash mumkin [2].

“Yashil” iqtisodiyotni rivojlantirishning quyidagi yo’nalishlari mavjud:

1. Qayta tiklanuvchi energiya manbalarini o‘zlashtirish;

2. Chiqindilarni qayta ishlash tizimi takomillashtirish;

3. Suv resurslarini boshqarish;

4. “Yashil” transportni shakllantirish;

5. Qishloq xo‘jaligida organik mahsulot yetishtirishni rivojlantirish;

6. Uy-joy kommunal xo‘jaligida energiya samaradorligini oshirish;

7. Ekotizimlarni saqlash, boshqaruv samaradorligini oshirish va ekoturizmni rivojlantirish;

8. “Yashil” texnologiyalarni yaratish va sotish.

“Yashil” iqtisodiyotni rivojlantirishning yo‘nalishlaridan biri bevosita ekotizimlar, ularni saqlash, samarali boshqarish hamda ekoturizmni rivojlantirish

ayniqsa ahamiyatlidir. Zero ekologik turizmni yashil iqtisodiyotning muhim bir tarmog‘i, tabiat bilan hamohang soha sifatida o‘rganishimiz mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktyabrdagi PQ-4477-son qarori bilan tasdiqlangan 2019–2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish Strategiyasida iqlim o‘zgarishi oqibatlariga moslashish va ularni yumshatish, tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish va tabiiy ekotizimlarni asrash bo‘yicha bir qator vazifalar keltirilgan. Shuningdek, 2030-yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi Milliy maqsad va vazifalarning 15-maqsadi “Quruqlik ekotizimlarini himoyalash va tiklash, ulardan oqilona foydalanishga ko‘maklashish, o‘rmonlardan oqilona foydalanish, cho‘llanishga qarshi kurashish, yerlarning yemirilishini to‘xtatish va ortga qaytarish, bioxilma-xillikning yo‘qolib ketish jarayonini to‘xtatish”dan iborat. Bu esa o‘z navbatida, hududlarning turistik-rekreatsion imkoniyatlaridan samarali foydalanish va ekoturizmni rivojlantirishtirish bilan bog‘liq.

Bugungi kunda ekoturizmning rivojlanish yo‘nalishlari va istiqbollari tabiat qonuniyatlari va geotizimlar barqarorligi bilan bog‘liq holda shakllanmoqda. Mamlakatimizning tabiiy-iqlim sharoiti, rekreatsion resurslari ekologik turizmni har bir hududga mos ravishda rivojlantirishga imkoniyat yaratadi. Bugungi kunda muhofaza etiladigan tabiiy hududlarda ekoturizmni tashkil etishga e’tibor qaratilmoqda. Ma’lumot o‘rnida ta’kidlash lozimki, yurtimizda 6 ta davlat qo‘riqxonasi, 1 ta majmua (landshaft) buyurtma qo‘riqxonasi, 5 ta davlat milliy tabiat bog‘i, 11 ta davlat tabiat yodgorliklari, 12 ta davlat buyurtma qo‘riqxonalari, 1 ta davlat tabiiy pitomnigi, 2 ta davlat biosfera rezervati, 1 ta milliy bog‘, shuningdek, 71 ta o‘rmon xo‘jaligi va 5 ta ov xo‘jaliklari mavjud [3].

Yuqoridagilardan kelib chiqib O‘zbekistonda “yashil” iqtisodiyot shakllanishi sharoitida ekologik turizmni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat deb hisoblash mumkin:

1) mamlakatimizdagi har bir hududning tabiiy sharoiti va imkoniyatlaridan kelib chiqib, ekoturistik master-rejalarni ishlab chiqish;

2) ekoturizmga “yashil” investitsiyalarni keng jalb qilish;

3) “Chorvoq” erkin turistik zonasi, “Zomin” turistik-rekreatsion zonalarida turizm infratuzilmasini takomillashtirish;

4) mamlakatimizdagi yirik ekoturistik maskanlarga xorijiy va mahalliy sayyohlar e’tiborini jalb qilish;

5) hududlarning tabiiy sharoiti va resurslaridan oqilona foydalangan holda aholi bandligini ta’minlash va kambag‘allikni qisqartirish;

6) ekoturistik maskanlarda raqamli texnologiyalardan foydalangan holda turistik xaritalar va belgilardan foydalanish;

7) ekoturistik maskanlarda atrof-muhit muhofazasiga jiddiy e’tibor qaratish va bu borada ekologik nazoratni kuchaytirish.

Xulosa sifatida aytadigan bo‘lsak, O‘zbekistonda “yashil” iqtisodiyotga o‘tishda va Barqaror rivojlanish sohasidagi Milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirishda ekologik turizmning o‘rni va ahamiyati yuqori. Tabiat bilan hamohang holda rivojlanadigan bu yo‘nalishda hali amalga oshirilishi kerak bo‘lgan ishlar talaygina, foydalanilmayotgan imkoniyatlar ham ko‘p. Shu jihatdan, ekoturizmni “yashil” iqtisodiyotning muhim bir tarmog‘i sifatida rivojlantirish, sohaga ilg‘or xorijiy tajribalarni va innovatsion texnologiyalarni jalb qilgan holda mamlakatimizning ekoturistik imidjini shakllantirish asosiy vazifalarimizdan biri hisoblanadi.

**Adabiyotlar**


1. Зорин И.В., Квартальное В.А. Толковый словарь туристских терминов. Москва-Афины, 2015, INFOGROUP
2. Vaxabov A.X. va boshqalar. Yashil iqtisodiyot. Darslik. –T.: “Universitet”, 2020. – 296 b.

3. Xaitboyev R. Ekologik turizm. Oʻquv qoʻllanma. –T.: “Barkamol fayz media”, 2018. – 248 b.

# 3-SEKSIYA MINTAQADA YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBALARI VA INNOVATSION JIHATLARI

## MAMLAKATDA YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI: XORIJIY TAJRIBA

**Raimboyeva M. D., UrDU “Iqtisodiyot” kafedrasi stajyor-oʻqituvchisi**

**Annotatsiya.** Ushbu ilmiy maqola atrof-muhit va mamlakat iqtisodiyotining oʻzaro aloqadorligi, iqtisodiy faoliyatlarning ekologiyaga ta’siri oqibatlari hamda uni yumshatish chora-tadbirlarining xorijiy tajribalariga bagʻishlanadi. Ilmiy maqolada “yashil iqtisodiyot”ni mamlakatda joriy qilish zarurati, uning mamlakat takror ishlab chiqarish jarayonidagi ahamiyati hamda rivojlangan mamlakatlar tajribasi kabi masalalar atroflicha tahlil qilingan va zaruriy xulosalar ishlab chiqilgan.

**Аннотация.** Данная научная статья посвящена взаимосвязи окружающей среды и экономики страны, последствиям экономической деятельности для окружающей среды, зарубежному опыту мер по смягчению последствий. В научной статье всесторонне анализируются вопросы необходимость внедрения «зеленой экономики» в стране, ее значение в воспроизводственном процессе страны и опыт развитых стран, а также разработаны заключения в этом направлении.

**Abstract.** The present article is dedicated to connection between environment and the country's economy, the consequences of economic activities on the environment, and foreign experiences of mitigation measures. The scientific article

analyzes issues of putting into practice “green economy” in the country, its importance of the country's reproduction process and the experience of developed countries as well as it brings forth the conclusions in this field.

**Kalit so‘zlar.** “Yashil iqtisodiyot”, ekologik muammolar, atrof-muhit xavfsizligi, BMT Atrof-muhit dasturi, yashil sektor, qayta tiklanadigan energiya, yashil moliya, barqaror o‘sish, yashil texnologiya va innovatsiya, yashil sanoat.

**Ключевые слова.** «Зеленая экономика», экологические проблемы, экологическая безопасность, Программа ООН по окружающей среде, зеленый сектор, возобновляемые источники энергии, зеленые финансы, устойчивый рост, зеленые технологии и инновации, зеленая промышленность.

**Key words.** “Green economy”, environmental problems, environmental security, UN Environment Program, green sector, renewable energy, green finance, sustainable growth, green technology and innovation, green industry.

Mamlakat iqtisodiyotida barqaror iqtisodiy o‘sishga erishish milliy iqtisodiyot rivojlanishi uchun xizmat qiladi, shuningdek mamlakat strategik dasturlarini amalga oshirishda ahamiyatga ega. Globallashuv chuqurlashib borayotgan sharoitda tabiiy resurslardan unumli foydalanish, samarador ishlab chiqarish texnologiyalarini joriy qilish, ekologiyaga zararli chiqindilarni hajmini kamaytirish va muqobil energiyalardan foydalanish dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Hozirgi kunda iqtisodiyotning ekologik vaziyatlarni yumshatishga qaratilgan yo‘nalishi yashil iqtisodiyot hisoblanadi. Yashil iqtisodiyot inson turmush tarzi farovonligi va jamiyatdagi tabiat qonunlariga amalga qilishga yo‘natirilgan, shu bilan birga ekologik xavflar va global ekologik muammolarni kamaytirishni o‘z ichiga oladi.

Global biznes vakili bo‘lgan Xalqaro Savdo Palatasi (ICC) yashil iqtisodiyotni: «Iqtisodiy o‘sish va ekologik mas’uliyat ijtimoiy rivojlanishdagi taraqqiyotni qo‘llab-quvvatlagan holda o‘zaro mustahkamlovchi rejimda birgalikda ishlaydigan iqtisodiyot» – deb ta’riflaydi[2].

Karl Burkart yashil iqtisodiyotni oltita asosiy sektorga asoslangan deb ta’riflagan: qayta tiklanadigan energiya, yashil binolar, barqaror transport, suvni boshqarish, chiqindilarni boshqarish, yerni boshqarish[1].

Yashil iqtisodiyot keng ko‘lamdagi siyosat va barqaror rivojlanishga erishishni qo‘llab-quvvatlash vositasi bo‘lib, iqtisodiy maqsadlarni ijtimoiy va ekologik maqsadlarga moslashtirishga urg‘u beradi. Yashil iqtisodiyot yangi samarador texnologiyalar salohiyatini oshiradi va yashil sektorlarning yangi rivojlanish yo‘lida dvigatel vazifasini bajaradi.




Manba: https://unctad.org/publication/world-investment-report-2023

**1-rasm. Qayta tiklanadigan energiyaga xalqaro investitsiyalar bo‘yicha top 10 mamlakat, 2015-2022-yy (hajmi mlrd. AQSh dollari va jamidagi ulushi %da)**

Qayta tiklanadigan energiyaga xorijiy investitsiyalar oqimi bo‘yicha eng yuqori darajada bo‘lgan 10 ta rivojlanayotgan mamlakatning aksariyatida qayta tiklanadigan energiya manbalariga kiritilgan yashil investitsiyalar xorijiy investitsiyalar umumiy hajmining o‘ndan biriga va to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar uchdan biriga to‘g‘ri keladi(1-rasm). Yashil sektorga kiritilayotgan investitsiya oqimining ortib borayotganligi yashil iqtisodiyotni rivojlanish omillarini o‘rganishning muhimligi ko‘rsatadi.

Yashil iqtisodiyot past uglerodli, tejamkor texnologiya va ijtimoiy inklyuziv sifatida tavsiflanadi. Yashil iqtisodiyotda ish bilan bandlik ortishi va daromadning o‘sishi, uglerod chiqindilari va ifloslanishini kamaytirish, energiya samaradorligini va resurslar tejamkorligini oshirish, shuningdek, biologik xilma-xillik yo‘qolishi va

ekotizim buzulishini oldini olish imkonini beruvchi iqtisodiy faoliyat hisoblanadi. Davlat yashil sektorlarni rivojlantirish dasturlari orqali korxonalar va mehnat resurslari faoliyati uchun qulay iqtisodiy muhit yaratadi[3].




Manba: https://www.statista.com/statistics/1245771/global-green-investment-by-region/

**2-rasm. Rivojlanayotgan mamlakatlarda 2020-2030-yillardagi yashil investitsiya imkoniyatlari, trln. AQSh dollari [4]**

2020-2030-yillarda yashil investitsiyalar yirik oqimi Uzoq Sharq va Tinch okeani mamlakatlari hissasiga to‘g‘ri kelishi prognoz qilinmoqda (2-rasm).

BMT Atrof-muhit dasturiga ko‘ra Braziliyaga tijorat muzlatgich kameralari uchun energiya samaradorligi standartlarini ishlab chiqish bo‘yicha islohotlarni amalga oshirdi va har yili karbonat angidrid chiqindilarini 11 million tonnaga kamaytirishga qaratilgan - bu mamlakatning elektr energiyasidan chiqadigan chiqindilarining 15 foiziga teng. Besh mamlakat - Angola, Qozog‘iston, Keniya, Ruminiya va Turkmaniston 2023-yilda Global metan Bitimiga qo‘shildi va jami 155 davlatni qamrab oldi. BMT Atrof-muhit Dasturi rasmiy sayti tahliliy materiali 2030 yilga borib global metan emissiyasini 30 foizga qisqartirishni maqsad qilgan. 80 dan ortiq mamlakatlarda energiya samaradorligi standartlarini ishlab chiqishda qo‘llab-quvvatlandi [5].

Yashil iqtisodiyotni joriy qilish bo‘yicha Xitoy yetakchi mamlakatlar guruhiga kiradi. 2024-yilda Yashil sanoat katalogi ishlab chiqilgan va Xitoyda yashil sektorlarni rivojlantirish bo‘yicha qo‘llab-quvvatlovchi siyosat amalga oshirish islohotlari amalga oshirilyapti. Xitoy bo‘ylab ekologik toza sanoatni

kengaytirishga qaratilgan sa'y-harakatlarini rivojlantirish uchun yashil moliya sektorining ahamiyati katta. Yashil sanoat katalogi energiyani tejash va uglerodni kamaytirish,

atrof-muhitni muhofaza qilish, muqobil energiya, yashil infratuzilmani yangilash, yashil xizmatlar, issiqxona gazlarini nazorat qilish, ifloslanishi kamaytirishga qaratilgan yangi usullarni joriy etishni o'z ichiga olgan[6].

Yashil iqtisodiyotga oid siyosat olib boruvchi va strategiyalar taklif qiluvchi xalqaro tashkilotlar: BMT Atrof-muhit Dasturi Kengashi, Yevropa Tiklanish va Taraqqiyot Banki yashil iqtisodiyotga oid siyosat dasturlari hisoblanadi. Ushbu xalqaro tashkilotlar global ekologik muammolarni yumshatishga qaratilgan siyosatni olib boruvchi asosiy dastakka aylanmoqda.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Atrof-muhit dasturi quyidagilarga qaratilgan:

• siyosatni ishlab chiqish;

• texnik tahlillar va bilim sig'imkorligi yuqori mahsulotlar ishlab chiqish;

• siyosat vositalari to'plami va yo'riqnomalari;

• moliyalashtirish mexanizmlari va yangi biznes modellari;

• Institutsional mustahkamlash:

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.**

1.Frederic P. Miller, Agnes F. Vandome, McBrewster John. Green economy. VDM Publishing, 2010. P. 6

2.https://ufia.uz/archives/2429 - O'zbekiston oziq-ovqat va sanoat agentligi rasmiy sayti ma'lumotlari

3.https://www.unep.org/regions/asia-and-pacific/regional-initiatives/supporting-resource-efficiency/green-economy - BMT Atrof-muhit Dasturi rasmiy sayti tahliliy materiali

4.https://www.statista.com/statistics/1245771/global-green-investment-by-region/

5.https://www.unep.org/resources/annual-report-2023 - BMT Atrof-muhit Dasturi rasmiy sayti yillik hisobot materiali

6.https://www.china-briefing.com/news/decoding-china-2024-green-industry-catalogue-key-takeaways/

## MINTAQADA YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH YO’NALISHLARI (GERMANIYA TAJRIBASI MISOLIDA)

**Karimboyev D.D. – Urganch Davlat Universiteti, Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar fakulteti, Marketing va Menejment kafedrasi, stajor-o’qituvchi**

**Radjapov O.A.– Urganch Davlat Universiteti, Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar fakulteti, Marketing va Menejment kafedrasi, stajor-o’qituvchi**

**Annotatsiya.** Ushbu tadqiqot barqaror iqtisodiyotni rivojlantirishda xorijiy mamlakatlarning turli yondashuvlarini o'rganadi. Rivojlangan mamlakatlarning amaliy tadqiqotlarini qiyosiy tahlil qilish orqali iqtisodiy o'sishni atrof-muhitni boshqarish va ijtimoiy tenglik bilan muvozanatlash uchun qo'llaniladigan strategiyalarni yoritish orqali barqaror iqtisodiyotga intilish bo'yicha o'rganilgan saboqlar taqdim etildi. Natijada barqaror iqtisodiy o‘zgarishlarni amalga oshirishda izchil siyosat ishlab chiqish, tarmoqlararo hamkorlik va jamoatchilik ishtiroki muhimligini ta’kidlaydi.

**Kalit so'zlar.** Barqaror iqtisodiyot, qayta tiklanadigan energiya, yashil texnologiya, siyosat asoslari, xalqaro amaliy tadqiqotlar.

**Аннотация.** Данном исследовании исследуются различные подходы зарубежных стран к развитию устойчивой экономики. Посредством сравнительного анализа тематических исследований в развитых странах представлены уроки, извлеченные в процессе достижения устойчивой экономики, с акцентом на стратегии, используемые для балансирования экономического роста с охраной окружающей среды и социальной справедливостью. В результате в нем подчеркивается важность последовательной разработки политики, межсекторального сотрудничества и участия общественности в реализации устойчивых экономических изменений.

**Ключевые слова.** устойчивая экономика, возобновляемые источники энергии, зеленые технологии, политические рамки, международные тематические исследования.

Barqaror rivojlanish, Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan ta'riflanganidek, kelajak avlodlarning o'z ehtiyojlarini qondirish qobiliyatiga putur etkazmasdan, hozirgi kun ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan. Germaniyaning barqaror rivojlanishga intilishi uning ulkan maqsadlari va turli sohalardagi innovatsion amaliyotlarida yaqqol namoyon bo‘ladi. Ushbu maqola Germaniyaning barqaror rivojlanish strategiyasining asosiy tarkibiy qismlarini ko'rib chiqadi va uning energiyaga o'tishini, chiqindilarni boshqarish tizimi va yashil texnologiya yutuqlarini quyidagi yo’nalishlar asosida ko'rib chiqadi [1].

-*Energiyaga o'tish (Energiewende):*Germaniyaning Energiewende kompaniyasi qazib olinadigan yoqilg'i va atom energetikasidan qayta tiklanadigan energiya manbalariga o'tish bo'yicha kashshof harakat hisoblanadi. 2000-yillarning boshida boshlangan siyosat asosi issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirish, energiya samaradorligini oshirish va qayta tiklanadigan energiyani rivojlantirishga qaratilgan. Germaniya hukumati energiya samaradorligini oshirish bo'yicha qator chora-tadbirlarni amalga oshirdi, jumladan, qurilish qoidalari, energiya

-*Qayta tiklanadigan energiya manbalarini kengaytirish:*Germaniya qayta tiklanadigan energiya, xususan, shamol, quyosh va biomassa quvvatlarini kengaytirishda sezilarli yutuqlarga erishdi. 2023 yil holatiga ko'ra, qayta tiklanadigan manbalar Germaniyaning elektr energiyasi iste'molining 40% dan ortig'ini tashkil qiladi. Mamlakatning qayta tiklanadigan energiya ishlab chiqaruvchilari uchun belgilangan narxlarda uzoq muddatli shartnomalar tuzishni kafolatlovchi tarif tizimi bu o‘sishda muhim rol o‘ynadi.

-*Yadro va ko'mirdan voz kechish:*Germaniyaning 2011-yildagi Fukusima fojiasi tufayli tezlashtirilgan 2022-yilgacha yadroviy energetikadan voz kechish qarori va 2038-yilga kelib ko‘mirda elektr energiyasi ishlab chiqarishni to‘xtatish majburiyati uning toza energiya kelajagiga sodiqligini ta’kidlaydi. Ushbu siyosatlar nafaqat yuqori xavfli va yuqori emissiyali energiya manbalariga bo'lgan ishonchni

kamaytirdi, balki qayta tiklanadigan energiya texnologiyalarida innovatsiyalarni ham rag'batlantirdi.

-*Chiqindilarni boshqarish:*Germaniyaning chiqindilarni boshqarish tizimi samaradorligi va samaradorligi bilan mashhur. Chiqindilarni kamaytirish, qayta ishlash va chiqindilarni barqaror yo'q qilishga urg'u beradigan keng qamrovli tizim tufayli mamlakat dunyodagi eng yuqori qayta ishlash ko'rsatkichlaridan biriga ega.Germaniyaning chiqindilarni boshqarishga yondashuvi chiqindilar ierarxiyasiga amal qiladi: oldini olish, qayta ishlatish, qayta ishlash, qayta tiklash va utilizatsiya qilish. Ushbu ierarxiya chiqindilarni ishlab chiqarishni minimallashtirish va resurslarni qayta tiklashni maksimal darajada oshirishga ustuvor ahamiyat beradi.

*Yashil texnologiya va innovatsiyalar:*Germaniyaning yashil texnologiya va innovatsiyalarga kiritgan sarmoyasi uni barqaror sanoat amaliyotida jahon yetakchisi sifatida joylashtirdi.Germaniya hukumati moliyalashtirish dasturlari va davlat-xususiy sheriklik orqali yashil texnologiyalar bo'yicha keng qamrovli tadqiqot va ishlanmalarni (R&D) qo'llab-quvvatlaydi. Asosiy e'tibor yo'nalishlari qayta tiklanadigan energiya texnologiyalari, energiya saqlash yechimlari va barqaror transportni o'z ichiga oladi. Hukumatning rag'batlantirishlari va qat'iy emissiya qoidalari bu o'zgarishni boshqaradi.Germaniya shahar barqarorligini oshirish uchun raqamli texnologiyalarni integratsiyalashgan holda aqlli shahar harakatining boshida turibdi. Tashabbuslar orasida aqlli tarmoqlar, energiya tejaydigan binolar va barqaror shahar mobilligi yechimlari mavjud. **Barqaror federal hukumat chora-tadbirlar dasturi -** bu nafaqat davlat sektorining zarur namunaviy funktsiyasi tomonidan qo'llab-quvvatlaydi,balki ularning faoliyati barqaror rivojlanish o'lchovlariga ham tegishli ta'sir ko'rsatadi. Barqaror rivojlanish uchun mas'uliyatni hisobga olish uchun federal hukumat 2021-yil 25-avgustda "Barqarorlikni ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar dasturi - 2021 yilga qadar ma'muriy harakatlarda barqarorlikni alohida tatbiq etish uchun keyingi rivojlanish" to'g'risida qaror qabul qildi.Birlashgan Millatlar Tashkilotining 17 global barqarorlik maqsadini (Barqaror rivojlanish maqsadlari - SDGs ) amalga oshirish

bo'yicha Germaniyaning chora-tadbirlarini uchta darajada belgilaydi, Germaniyada ta'sir ko'rsatadigan chora-tadbirlardan tashqari, Germaniyaning global ta'sirga ega bo'lgan chora-tadbirlarini ham o'z ichiga oladi. Ikki tomonlama hamkorlik (Germaniya bilan chora-tadbirlar) ko‘rinishida boshqa davlatlar tomonidan ham qo‘llab-quvvatlanmoqda. Shunday qilib, Germaniya 2030 yilgi kun tartibini o'zining SDGlari bilan har tomonlama amalga oshirishga sodiqligini va bu keng miqyosli vazifani o'z vazifasi sifatida qabul qilayotganini ko'rsatadi. **Boshqaruv konsepsiyasi -** barqarorlik strategiyasi nazariy siyosat hujjati emas, balki siyosat va jamiyat tomonidan barqaror harakatlar uchun amaliy yo'nalishdir. Uning markazida barqarorlikni boshqarish tizimi yotadi:




**1-shakl: Boshqaruv konsepsiyasi [2]**

2002 yildan boshlab strategiyada “Barqaror rivojlanish uchun boshqaruv qoidalari” deb ataladigan o‘n ikkita umumiy qoidalar mavjud bo‘lib, ularda barqaror rivojlanishni amalga oshirish uchun siyosat va jamiyat uchun harakatlar bo‘yicha umumiy tavsiyalar ishlab chiqilgan. 2018 yilda DNS yangilanganda ular oltita "Barqaror rivojlanish tamoyillari" bilan almashtirildi. Prinsiplar barqaror siyosat uchun asosiy talablarni o'z ichiga oladi. Ular barqaror rivojlanishning asosiy tamoyilini amaliyotga tatbiq etishga xizmat qiladi va jamiyatimiz va iqtisodiyotimizda zudlik bilan zarur bo'lgan o'zgarishlar fonida 2030 yilgacha Barqaror rivojlanish kun tartibiga asoslanadi:




**2-shakl: Barqaror rivojlanish** [3]

Xulosa: Germaniyaning barqaror rivojlanishga ko‘p qirrali yondashuvi boshqa davlatlar uchun namuna bo‘lib xizmat qiladi. Mamlakatning muvaffaqiyat uning keng qamrovli siyosat doirasi, innovatsiyalarga sodiqligi va barcha sohalardagi manfaatdor tomonlar bilan faol hamkorlikda yotadi. O'z strategiyalarini rivojlantirish va moslashtirishni davom ettirib, Germaniya barqaror rivojlanish nafaqat erishish mumkin, balki iqtisodiyot, atrof-muhit va butun jamiyat uchun ham foydali ekanligini ko'rsatadi. Boshqa davlatlar barqarorlik sari o'zlarining yo'llarini belgilash uchun Germaniya tajribasidan qimmatli saboq olishlari mumkin.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1.Bundesministerium für Wirtschaft va Energie. (2023) (https://www.bmwi.de)

2.Robert Helmrich,M.Schandock, ‘‘Environment, innovation, employment”, 03/2014

3. Ines Thobe, Dr. Ingo Wolter, “Arbeit und Qualifikation in der Green Economy” qo’llanmasi

# MINTAQADA YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH VA KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISHDA OSIYO MAMLAKATLARI TAJRIBALARIDAN FOYDALANISH

**Mayliyeva S. S., Urganch Ranch texnologiya universiteti “Iqtisodiyot va mashinosozlik” fakulteti “Iqtisodiyot” kafedrasi o‘qituvchisi. Urganch davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi.**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Osiyo mamlakatlarida olib borilgan tajribalarning O‘zbekiston Respublikasida qo‘llanilish istiqbollari va buning natijasida aholi jon boshiga umumiy daromadlarining oshib borishi jadval ma’lumotlarida berilgan.

**Аннотация.** В данной статье в табличных данных представлены перспективы применения экспериментов, проведенных в азиатских странах, в Республике Узбекистан и увеличения совокупного дохода на душу населения в результате.

**Abstract**. In this article, the prospects of the application of the experiments carried out in Asian countries in the Republic of Uzbekistan and the increase of the total income per capita as a result are given in table data.

**Kalit so‘zlar.** Kambag‘allik, aholi jon boshiga umumiy daromadlar, kambag‘allikni qisqartirishning Xitoy tajribasi, qashshoqlik.

**Ключевые слова**. Бедность, совокупный доход на душу населения, опыт Китая по сокращению бедности, бедность.

**Key words.** Poverty, total income per capita, China's experience of poverty reduction, poverty.

Bugungi kunga kelib, kambag‘allik jahon hamjamiyatining asosiy muammolaridan biri bo‘lib qolmoqda. Xalqaro mehnat federatsiyasining yillik hisobotida ta’kidlanganidek, dunyo bo‘ylab taxminan 1,1 milliard kishi qashshoqlikda yashaydi. Shuning uchun ham barcha davlatlardagi kabi yurtimizda ham ijtimoiy

yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyoti alohida ahamiyatga ega. Shu bilan birga biz Xitoy, Rossiya va Qozog‘iston Respublikalarining kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha amaliyotini o‘rganishimiz va uni yurtimizda joriy qilish orqali davlatning maqsadli dasturlari samaradorligini ya’ni kam ta’minlanganlar sonining qisqarishini ta’minlashimiz kerak bo‘ladi.

Kambag‘allik darajasi bo‘yicha bir qancha iqtisodchi olimlar tadqiqot ishlarini olib borishgan. Jumladan, klassik iqtisodchi olimlardan A Smit, T Maltus, JS Milp, K Marks,Temirchi va boshqalar zamonaviy iqtisodchi olimlardan esa B Ananda, A Atkinson, U Beverij, Ch Buta, J Foster kabi olimlar o‘zlarining ilmiy tadqiqot ishlarini olib borganlar.[1] O‘zbekistonda esa aholi turmush darajasi va daromadlari, kambag‘allikni qisqartirish, turmush sifati va uni baholash bo‘yicha Abdurahmonov Q.X., Bakiyeva I.A., Qurbonov S.P, Abduramanov X.X., Arabov N.U, Xolmuxamedov M. M, Zokirova N.Q, Dulyasova M.B lar tadqiqot ishlarini olib borishgan. [2]

Dunyo mamlakatlariga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, davlatning ijtimoiy himoya uchun ajratadigan xarajatlari ulushi turlicha bo‘lib, ularga quyidagilarni misol qilsak bo‘ladi. Jumladan, AQShda – 13 %, Kanada va Yangi Zellandiyada – 15 % va Yaponiyada taxminan 12 % va Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida esa xarajatlar ulushi 27,3 % ni tashkil qiladi. [3]

Mamlakatimizda esa, bugungi kunga kelib kambag‘allikni qisqartirishda Xitoy tajribasidan foydanilmoqda. Shu o‘rinda bir savol tug‘iladi. Kambag‘allikni kamaytirishda nima uchun Xitoy tajribasidan foydalanmoqchimiz? E’tibor qaratadigan bo‘lsak, 1978 yilda Xitoy aholisining 97,5 foizi kambag‘al bo‘lgan. [4] 2019 yilga kelib esa kambag‘allar ulushi 0,4 foizga tushgan, 2021 yilda esa umuman kambag‘al qolmagan. Kambag‘allikni tugatishning Xitoy usulida ikki omil asosiy ro‘l o‘ynagan. Qishloq xo‘jaligida 1 foiz o‘sish qishloqlarda kambag‘allikni 1,4 foiz qisqartira boshlagan. Xitoyning ilg‘or tajribasi asosida bizning mamlakatimizda ham kambag‘allikni kamaytirish bo‘yicha 18 yo‘nalishda manzilli loyiha tayyorlandi. Ular yordamida kambag‘allikni kamaytirish bo‘yicha umumxalq harakatining yangi bosqichida Xitoy tajribasi asosida har bir viloyatda

kambag‘allikdan chiqarish bo‘yicha alohida dastur amalga oshiriladi. Mana shu kabi ilg‘or chora tadbirlarning samarali natijasi o‘laroq, mamlakatimizdagi aholi jon boshiga umumiy daromadlarning hissasi yildan yilga oshib bormoqda. Buni quyidagi diagrammalar ma’lumotlaridan bilib olishimiz mumkin bo‘ladi.[5]

Ushbu 1-diagramma ma’lumotlariga ko‘ra esa 2023-yilda hududlar bo‘yicha aholi jon boshiga daromadlarning foiz hisobidagi ulushining yuqori ko‘rsatkichlari esa 16 % ko‘rsatkich bilan 1-o‘rinni yana Toshkent shahri, 11 % ko‘rsatkich bilan Navoiy viloyati 2-o‘rinni, 8 % ko‘rsatkich bilan esa Buxoro viloyati 3-o‘rinni egallab turibdi. Keyingi 4-o‘rinni 7 % ko‘rsatkich bilan Toshkent viloyati egallab turibdi. Eng oxirgi o‘rinlarda esa, 5 % ko‘rsatkichlar bilan Namangan viloyati 14-o‘rinni, undan oldingi 13-o‘rin va 12-o‘rinlarda Surxondaryo viloyati va Farg‘ona viloyatlari egallab turibdi.

**1-diagramma**




2023-yilda hududlar bo‘yicha aholi jon boshiga umumiy daromadlar (% hisobida)[12]

Ushbu 2-diagramma ma’lumotlarga ko‘ra Xorazm viloyatidagi aholi jon boshiga umumiy daromadlari oshganligining guvohi bo‘lishimiz mumkin. Ya’ni, Xorazm viloyatida 2022-yilda aholi jon boshiga umumiy daromadlari 16764,2 ming so‘mni tashkil qilgan bo‘lsa, ushbu ko‘rsatkich 2023-yilga kelib 18674,9 ming so‘mni tashkil qilgan. Ushbu ko‘rsatkichning oshishi natijasida aholining farovonligi ham oshib boradi. [6]

[12] Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi

2-diagramma




Xorazm viloyatidagi 2022-2023 yillardagi aholi jon boshiga umumiy daromadlari[13]

O‘zbekiston Respublikasida kam ta‘minlangan aholi ulushini minimallashtirishga qaratilgan xorijiy tajribani tahlil qilish va baholash asosida zarur resurslar bilan qo‘llab-quvvatlanadigan mintaqaviy mexanizmlarni uyg‘unlashtirish zarurati bilan kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha dasturiy maqsadli yondashuvlarni olib borish katta ahamiyatga ega. Ya’ni, jamiyatni rivojlantirish va aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini qo‘llab-quvvatlashning samarali tizimini tashkil etish kerak bo‘ladi. Bularning barchasi kambag‘allikning pasayishiga va buning natijasida esa aholi farovonligining oshishiga olib keladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**


1. T.M. Ziyayev, Sh.T. Israilova “Turmush farovonligi nazariyasi” T.2019 y.

2. O‘zbekiston Respublikasi davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari

3.O‘zbekiston kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi ma’lumotlari.

4.www.stat.uz

5.Xorazm.stat.uz


[13] Xorazm statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi

# YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING XORIJ TAJRIBALARI VA ULARNI MAMLAKAT IQTISODIYOTIGA TADBIQ QILISH YO'LLARI

**Normurodov Z. F., UrDU Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar fakulteti Turizm(faoliyat yo'nalishlari bo'yicha) yo'nalishi 3- bosqich talabasi.**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada kundan kunga dolzarb ahamiyat kasb etayotgan "yashil iqtisodiyot"ga bosqichma-bosqich o'tish va bu borada rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribalarini mutassil o'rganib chiqib, uni mamlakatimiz iqtisodiyotida qo'llash kabi muhim jihatlar o'rin olgan. Kalit so'zlar. Yashil iqtisodiyot, texnologiya, eko vas sof mahsulotlar, tabiiy energiya, ekologik tarmoq,innovatsion texnologiya.

**Аннотация**. В данной статье рассмотрены такие важные аспекты, как поэтапный переход к «зеленой экономике», которая с каждым днем становится все более важной, и применение ее в экономике нашей страны, после тщательного изучения опыта развитых зарубежных стран в этом отношении. Ключевые слова. Зеленая экономика, технологии, экологически чистые продукты, природная энергия, экологическая сеть, инновационные технологии.

**Abstract.** In this article, important aspects such as the step-by-step transition to the "green economy", which is becoming more and more important every day, and the detailed study of the experiences of developed foreign countries, and its application in the economy of our country, are presented.

Barcha rivojlanayotgan davlatlarda bo'lgani kabi O'zbekiston Respublikasida ham bozor munosabatlari sharoitid "yashil iqtisodiyot" oxirgi o'n yillikda jadal sur'atlar bilan rivojlanmoqda. Xususan, bundan asosiy ko'zlangan maqsad shuki, "yashil iqtisodiyot" tamoyillari asosida yangi texnologiyalarga egalik qilish va kelajakda undan yuqori darajada naf olish tushuniladi. Sanoatning ekologik

tarmoqlari, ekologik sof texnologiyalar rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotining ajralmas qismiga aylanib ulgurgan. Shuningdek, ekologik sof texnologiyalarning jahondagi 1/3 qismi YI mamlakatlariga to‘g‘ri keladi. Xalqaro patent tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, 2010-2019 yillarda: ϖ qayta tiklanadigan energiya sohasida olingan jami patentlar soni bo’yicha Yaponiya; ϖ geotermal energiya sohasi bo’yicha AQSH; ϖ shamol energiyasi bo’yicha Daniya kabi davlatlar ustunlik qilgan. Bundan ko’rish mumkinki, bozor munosabatlari rivojlangan mamlakatlarda qayta tiklanadigan energiya manbalarini o’zlashtirish uchun sarflanayotgan investitsiyalar boshqa qazib chiqariladigan yoqilg’i resurslariga sarflangan investitsiyalarga nisbatan yuqori daromad ketiruvchi soha bo’lib qolmoqda. Xalqaro energetika egentligi va London imperiya kolleji mutaxassislari tadqiqotlariga ko’ra Germaniya va Fransiya qayta tiklanadigan energiya manbalarini o’zlashtirish uchun 5 yil ichida sarflangan investitsiyalarnining ko’rsatkichi 178%ni tashkil qilgan [1]. Buyuk Britaniyada “yashil energetika”ga yo’naltirilgan investitsiyalar darajasi 75,4%ga, AQSHda esa 200,3% bo’lgani holda eng yuqori daromad manbayi sifatida qaraladigan bo’ldi. Shuningdek, COVID-19 pandemiyasi davrida “yashil iqtisodiyot” ko’rsatkichlari neft va gaz tarmoqlariga nisbatan barqaror soha ekanligi yaqqol o’z isbotini topgan. Pandemiya sharoitida aynan “yashil iqtisodiyot” tamoyillari dunyoning aksariyat taraqqiy etgan mamlakatlarida inqirozdan chiqish yo’li sifatida e’tirof etilgan. Bu borada bizning mamlakatimiz ham “yashil iqtisodiyot”ga o’tishning samarali usullarini ishlab chiqmoqda. Pirovardida, AQSH tajribasini qo’llash buning ilk ildizlaridan biri hisoblanadi. AQSHning “yashil iqtisodiyot” tajribasi quyidagilardan iborat [2]: a) 2013-yilda AQSH Kongresi byudjet tashkilotlarini qisqartirish choralari doiasida “yashil” tovarlar va xizmatlar sohasida ma’lumotlar to’plash dasturlarini moliyalashtirishni to’xtatish qonunlari asnosida xodimlar eng yangi ma’lumotlar tadbiq qilish va uning asoslarini o’rganishga jiddiy kirishganlar; b) 2035-yilga qadar mamlakatda ishlab chiqarilayotgan elektrenergiyaning 80%i “sof” energiya manbalaridan ta’minlanishi,”sof” ko’mir va tabiiy gaz, shamol va quyoshdan foydalanishni maksimallashtirish; c) 1970-yildan buyon “yashil

iqtisodiyot"ga bosqichli o'tish jarayoni va davlat tashkilotlariga energiyani xarid qilish majburiyatlari, soliqlar uchun 10%li imtiyozlar tadbiq qilinishi; d) "Energetika siyosti to'g'risida"gi qonunga to'liq rioya qilinishi va muqobil energiya turlarining bozorlarga kirib borishida har qanday to'siqlarning olib tashlanishi; e) 2005-yilda "Muqobil energiyani iste'mol qilish minmumi to'g'risida" yangilangan qonunining qabul qilinishi; f) "Yashil iqtisodiyot" mahsulotlarini uchun bozorlarni shakllantirish, qulay investitsiya muhitini yaratish, ilg'or "yashil texnologiyalar"ni amaliyotga joriy etishni qo'llab-quvvatlash va "yashil" tashabbusni mahalliy darajada rag'batlantririshga ustuvorliklar berish; Buning samarasi o'laroq, hozirgi davrda AQSH aholisining 7,5%i shamol energiyasi bilan ta'minlanadi. Xususan bu boradagi tajribalarni mamlakatimiz energetika vazirliklarining ishchi guruhlari o'rganib chiqmoqdalar. Shuningdek, YI(Yevropa ittifoqi)da "Energetika ittifoqi va iqlim" yo'nalishida Yevropani ekologik sof va hamma uchun foydalianish imkoni mavjud energiya bilan ta'minlash narazda tutadi. Jumladan: ϖ YIda "yashil iqtisodiyot"ga o'tish jarayoni 3 darajali boshqaruv tuzilmasiga ega ekanligi(umumyevropa, milliy, mintaqaviy); ϖ "Yevropa-2020"- rivojlanish strategiyasi va "Yevropa yashil bitimi"dasturlari mavjudliligi; ϖ Energetika bozori tarkibini boshqaruvining yangi usullari yordamida modernizatsiyalash, mahalliy resurslar va markazlashgan energiya tizimni integratsiyalash; ϖ Keng jamoatchilikni YI energetika xavfsizligi muammolarini hal etishga jalb etish; ϖ YIda ro'y berayotgan innovatsion o'zgarishlarni "yashil iqtisodiyot" manbalariga asoslangan holda xalqaro darajada ommalashtirish; ϖ "Yevropa yashil bitimi dasturi"ni keng ko'lamda joriy qilish; O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti rivojlanayotgan industrial-agrar davlat maqomida keng ko'lamli sohalar rivojini bosib o'tmoqda. "Yashil iqtisodiyot"ni muhim tarmoqlarini rivojlantirishda AQSH, YI, Yaponiya, Germaniya, Xitoy kabi davlatlar tajribalaridan unumli foydalanmoqda. Eng asosiy bosqichi 2005-yildan so'ng amalga oshira boshlan. Shuningdek, 2030-yilgacha mamlakatimiz rivojlangan davlatlar qatoridan joy olishi va "O'zbekiston-2030" strategiyasida "yashil iqtisodiyot" tarmog'ining qariyb 75%ga oshirish nazarda tutilgan. Bu

mamlakat loyihasida shubhasiz xorijiy rivojlangan davlatlar va ularning "yashil innovatsion texnologiyalari"dan samarali va unumli foydalanish nazarda tutadi.

**Foydalanilgan adabiyot ro'yxati:**


1. World Green Economy Report Inspiring innovations in business, financeandpolicy.http://worldgreeneconomy.org/wpcontent/uploads/2018/10 /report.pdf229 Europe 2020.
2. A European strategy for smart, sustainable and inclusive growth // European Commission. 2010. 3 March. URL: http://ec.europa.eu/research/era/docs/en/ ec-understanding-era-13.pdf230The European Green Deal Brussels.
3. World Green Economy Report Inspiring innovations in business, financeandpolicy.http://worldgreeneconomy.org/wpcontent/uploads/2018/10 /report.pdf229Europe 2020.
4. A European strategy for smart, sustainable and inclusive growth // European Commission. 2010. 3 March. URL: http://ec.europa.eu/research/era/docs/en/ ec-understanding-era-13.pdf230The European Green Deal Brussels.


## O'ZBEKISTON IQTISODIYOTINI IZCHIL RIVOJLANISHIDA INVESTITSIYALARNI JALB QILINISHINING O'RNI VA AHAMIYATI


***Xudoyqudolov H.A. – UrDU Buxgalteriya hisobi va audit kafedrasi o'qituvchisi***



***Annotatsiya:*** *Maqolada O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda faol investitsion siyosatning ahamiyati tahlil qilingan. Tahlil natijalari asosida investitsion siyosatni amalga oshirishga doir xulosalar berilgan.*



***Kalit so'zlar:*** *investitsiya, xorijiy investitsiyalar, investitsion siyosat, investitsiya dasturi, investitsiyalarning sof oqimi.*

***Annotation:*** *The article analyzes the importance of an active investment policy in the socio-economic development of Uzbekistan. Conclusions on the implementation of investment policy are given based on the results of the analysis.*

***Key words:*** *investment, foreign investments, investment policy, investment program, net flow of investments.*

***Аннотация:*** *В статье анализируется значение активной инвестиционной политики в социально-экономическом развитии Узбекистана. По результатам анализа сделаны выводы о реализации инвестиционной политики.*

***Ключевые слова:*** *инвестиции, иностранные инвестиции, инвестиционная политика, инвестиционная программа, чистый поток инвестиций.*

Bugungi kunda O'zbekiston ko'plab xorijiy mamlakatlar bilan madaniy, ma'naviy, ijtimoiy, iqtisodiy sohalarda o'zaro manfaatli va mustahkam hamkorlikni yo'lga qo'ygan. Jumladan mamlakatimizda so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlar asosan ishlab chiqarishni takomillashtirish, kengaytirish va rivojlantirish maqsadida mahalliy va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, aholini ish bilan ta'minlash, eksport hajmini kengaytirish, kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish va makroiqtisodiy barqarorlikka erishishga yo'naltirilgan bo'lib bu borada mamlakatimizda chet ellik investorlar ishonchini mustahkamlash uchun barcha shart-sharoitlar yaratilganligi muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

"Investitsiya" atamasi lotin tilidagi "invest" so'zidan kelib chiqqan bo'lib "qo'yish", "mablag'ni safarbar etish", "kapital qo'yilmasi" ma'nosini beradi. Keng ma'noda investitsiya mablag'ni ko'paytirib va qaytarib olish maqsadida kapitalni safarbar etishni bildiradi. Ko'pgina hollarda "investitsiya" tushunchasi iqtisodiy va boshqa faoliyat ob'ektlariga kiritiladigan moddiy va nomoddiy ne'matlar hamda ularga doir huquqlar tarzida ta'riflanadi. Investitsiya deganda barcha turdagi milliy va intelektual boyliklar tushunilib, ularni tadbirkorlik faoliyati ob'ektlariga yo'naltirilib daromad keltirishi yoki biror-bir ijobiy samaraga erishishi zarur.[1]

Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev quyidagi fikrlarni ta’kidlab o‘tganlar: “Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, qaysi davlat faol investitsiya siyosatini yuritgan bo‘lsa, o‘z iqtisodiyotining barqaror o‘sishiga erishgan. Shu sababli ham investitsiya–bu iqtisodiyot drayveri, o‘zbekcha aytganda, iqtisodiyotning yuragi, desak, mubolag‘a bo‘lmaydi”. O‘zbekiston Respublikasining “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi qonunini samarali ijro etilishi uchun investorlar bilan Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi, hokimliklar, xorijdagi diplomatik vakolatxonalar va tijorat banklari rahbarlari o‘rinbosarlaridan iborat bo‘lgan davlat hokimiyat organlari hamkorligining 4 bosqichli mexanizmi muvaffaqiyatli yo‘lga qo‘yilgan. Ushbu mexanizm investorlarning barcha so‘rovlariga tezkor javob qaytarish va qonunda nazarda tutilgan chora-tadbirlar amalga oshirilishining samaradorligini kerakli tarzda nazorat qilish imkonini beradi. [2]

Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan qabul qilingan “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonida olib borilayotgan islohotlar samarasini yanada oshirish, davlat va jamiyatning jadal va har tomonlama rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, mamlakatimizda adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, ta’lim sifatini oshirish, mamlakatimizda investitsiya muhitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirish kabi bir qator vazifalar belgilab qo‘yilgan. Ushbu taraqqiyot strategiyasida milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o‘sish sur’atlarini ta’minlashning asosiy maqsadlaridan biri bu –mamlakatda investitsiya mihitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirishdan iborat.[3]

Investitsiyalar har bir mamlakat iqtisodiyoti, ayniqsa rivojlanish yo’lidan jadal ilgarilab borayotgan bizning davlatimiz kabi davlatlar iqtisodiyotida muhim ahamiyatga ega. Shu sababli hukumatimiz tomonidan mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab faol investitsiya siyosatini olib borishga kirishildi. Olib borilayotgan ushbu investitsion siyosatning bosh maqsadi investitsiya jarayonlarini yangilashga va investorlarga qulay investitsion muhit shakllantirishga qaratilgandir.

So‘nggi bir necha yil ichida O‘zbekiston jadal iqtisodiy o‘zgarishlarni boshdan kechirdi va xalqaro hamjamiyatda biznes va investitsiyalar uchun turli xil to‘siqlarini bartaraf etishda ochiqlik, yangilanish va qat’iyatlilik ramzlaridan biri sifatida tobora ko‘proq namoyon bo‘lmoqda. Bu harakatlarning natijasi sifatida 2021-yilda mamlakatga to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalarning sof oqimi 2,3 mlrd dollarni tashkil etgan va 2022-yilda ko‘rsatkich 2,6 mlrd dollargacha o‘sgan bo‘lsa, 2023-yil oxirida u 425 mln dollarga — 2,2 mlrd dollargacha (-16 foiz) kamayganni ko‘rishimiz mumkin. To‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalarning YAIMga nisbati — 8,6 foizga yetdi (7,8 mlrd dollar).[4] (1-rasm)




**1-rasm (2018-2023 yillardagi to‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiyalar hajmi)**

Mamlakatimizning davlat investitsiya siyosati uzoq muddatli istiqbolga mo’ljallangan bo’lib, investorlarning samarali ishlashi uchun barcha zarur shart- sharoitlarni yaratib berishga qaratilgan.

Investitsiyaviy muhit bir qator omillarga bog’liq bo’lib, ularni shartli ravishda quyidagicha taqsimlashimiz mumkin bo’ladi:

–makroiqtisodiy;

–tashqi qarzlar;

–soliqlar va imtiyozlar;

–mamlakatda mavjud qonunchilik bazasi;

–axborot almashuv tizimining rivojlanganlik darajasi.

Ma’lumki, investorlik faoliyatini amalga oshirayotgan investor o’z kapitalini juda katta risk ostida joylashtiradi. Mamlakatda so’nggi yillarda kuzatilayotgan YaIMning o’sish ko’rsatkichlari yuqori bo’ladigan bo’lsa, bu hol o’z navbatida investorlar uchun tavakkalchilik darajasini muayyan miqdorda kamaytiradi va ular olishi mumkin bo’lgan foydani ma’lum ma’noda kafolatlaydi.

Mamlakatimizda xorijiy investitsiyalarni jalb qilish borasidagi imkoniyatlardan samarali foydalanishda quyidagilarga e’tibor qaratish maqsadga muvofiq bo’ladi:

–mamlakatdagi ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilma darajasini oshirish;

–xorijiy investitsiyani jalb etuvchi korxonaning tashqi bozorga chiqishda yetarli bilim va tajribaga ega bo’lishi, xalqaro bozordagi mavqeini ko’tarish;

–investitsiya jarayonida ishtirokchi tomonlarni o’zaro bir-birlari to’g’risidagi to’liq va ishonchli ma’lumotlar bilan ta’minlash.

Xulosa qilib aytganda, iqtisodiyotni modernizatsiyalashda investitsiya faoliyatini ko’proq amalga oshirish orqali mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish va aholi turmush farovonligini oshirish mumkin. Shuningdek, mamlakat iqtisodiyotiga kiritilayotgan investitsiyalarni kengroq jalb qilish, uni to’g’ri taqsimlash quyidagi ijobiy natijalarga olib keladi:

–ishlab chiqarishda zamon talabi asosida raqobatbardosh mahsulotlarga erishish hamda yangi bozorlarga chiqish;

–ishlab chiqarishning asosiy bo’g’ini bo’lmish kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’ektlarini rag’batlantirish;

–mavjud resurslardan tejamkorlik bilan oqilona foydalanish;

–iqtisodiyotda band bo’lgan aholi sonini ko’paytirish va shu orqali ishsizlar sonini kamaytirish;

–xorijiy investitsiyalarning ortishi sababli to’lov balansining

yaxshilanishi, milliy valyuta kursi qadrining o’sishini ta’minlash.

**Foydalanilgan adabiyotlar**


1. Haydarov O'. A “INVESTITSIYA” Darslik TOSHKENT «YANGI NASHR» 2022
2. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 25.12.2019 yildagi O‘RQ-598-son https://lex.uz/docs/-4664142
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son https://lex.uz/docs/-5841063?ONDATE2=21.04.2022&action=compare
4. Markaziy bank tomonidan e’lon qilingan to‘lov balansi bo‘yicha ma’lumotlardan kelib chiqadi. https://cbu.uz/oz/statistics/bop/1651170/

# 4-SEKSIYA MINTAQA IQTISODIYOTIDA YASHIL IQTISODIYOT RIVOJLANISHI HOLATINING EKONOMETRIK MODELLARI

## IQTISODIYOT SOHASIDA EKONOMETRIK TAHLILNI AMALGA OSHIRISH ZARURLIGI

**O‘rozov A. O., Urganch davlat universiteti Iqtisodiyot kafedrasi katta o‘qituvchisi**
**Madaminov S. K., Urganch davlat universiteti Iqtisodiyot kafedrasi stajor o`qituvchisi**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada iqtisodiyot sohasida ekonometrik tahlilning ahamiyati, muhimligi va uni qo‘llash va amalga oshirish zarurligi yoritilgan.

**Аннотация.** В данной статье подчеркивается важность, значение эконометрического анализа в области экономики и необходимость его применения и внедрения.

**Abstract.** This article highlights the importance, importance of econometric analysis in the field of economics and the necessity of its application and implementation.

**Kalit so‘zlar.** Iqtisodiyot, tahlil, ekonometrika, ekonometrik tahlil, fan, ma'lumot.

**Ключевые слова.** Экономика, анализ, эконометрика, эконометрический анализ, наука, информация.

**Key words.** Economics, analysis, econometrics, econometric analysis, science, information.

- tabiiy kapitalni saqlash va ko‘paytirish;
- ifloslanish darajasini kamaytirish;
- uglerod chiqindilari miqdorini kamaytirish;
- ekotizim xizmatlaridan foydalanish darajasini oshirish va bioxilma-xillikning yo‘qotilishini oldini olish;
- daromadlar va aholi bandligi darajasining ta'minlash, kambag‘allikni bartaraf qilish.

Demak “yashil iqtisodiyot” ekologik samaradorlikka, iqtisodiyotni dinamik rivojlanishiga ham aholining ijtimoiy farovonligiga erishish imkoniyatini yuzaga keltira oladi.

“Yashil iqtisodiyot”ni realizasiya qilish uchun quyidagi kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur bo‘ladi:

**1) ma'muriy usullar**

- tartibga solishning shartlarini batafsil va to‘laqonli ravishda amalga oshirilishiga majburlash (masalan, reglament va ko‘rsatmalarga, resurslardan foydalanish limitlariga, atrof-muhit ifloslanish me'yorlariga rioya qilinishini);
- xom-ashyo harakatining barcha zanjiri bo‘yicha, ya'ni tabiatdan olinishidan to realizasiya va iste'mol qilinishigacha nazorat qilib borish.

**2) iqtisodiy usullar**

- soliq yukini daromadlardan resurslardan norasional foydalanishga o‘tkazilishiga asoslangan samarali soliq tizimini shakllantirish va bunda tashqi ta'sirlarni ham hisobga olinishiga ham e'tibor qaratish;
- subsidiyalarni innovasion va ekologik afzalliklarga ega loyihalarni amalga oshirishda foydalanishga yo‘naltirish;
- davlat xaridlarini ekologik toza mahsulotlar xaridiga qaratish;

- “ruxsat” lar savdosini tartibga solish (masalan, uglevodorod chiqindilari kvotasi bozori);

- ekologik jihatdan istiqbolli loyihalarga kredit afzalliklarini berish;

- tabiiy kapital sarfini ko‘p talab qiladigan soha(miqyos)larda davlat sarflarini cheklash.

**3) me'yoriy-huquqiy xarakterdagi usullar**

- iqtisodiy tabiiy resurslardan ekologik foydalanishga qarartilgan qonuniy aktlarni ishlab chiqish va yo‘lga qo‘yish;

- ishlab chiqarish faoliyatidan keladigan ekologik zarar uchun javobgarlikni taqsimlash bo‘yicha me'yoriy-huquqiy asoslarni ishlab chiqish va yo‘lga qo‘yish.

**4) axborot ta'minoti usullari**

- axborot markazlarining samarali faoliyatini yo‘lga qo‘yish;

- ekologik va iqtisodiy monitoringni shakllantirish;

- ekologik menejment va audit sxemalarini targ‘ib qilish;

- barqaror rivojlanish borasidagi ilmiy-tadqiqot ishlarining amalga oshirilishini rag‘batlantirish;

- xodimlarning ekologik-iqtisodiy va ekologik-huquqiy vakolatlarini oshirish;

- ekologik marketingni rivojlantirish.

**5) “yashil iqtisodiyot” ga o‘tish jarayonida xalqaro etakchilik va xalqaro hamkorlikni mustahkamlash.**

“Yashil iqtisodiyot” ga o‘tish bugungi kunda nafaqat O‘zbekiston Respublikasida, balki boshqa mamlakatlar iqtisodiyotida ham ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning ustuvorliklaridan biri hisoblanadi. “Yashil iqtisodiyot” ga o‘tishning asosi “O‘zbekiston - 2030” strategiyasi hisoblanadi.

Respublikada “yashil iqtisodiyot” ga o‘tishning dastlabki asoslari sifatida o‘rta va uzoq muddatli davlat dasturlarining ishlab chiqilganligi, qonunchilikni xalqaro me'yorlarga moslashtirish, davlat boshqaruv tizimini rivojlantirish, atrof-muhit holati va ekologik statistika nazoratini kuchaytirish hamda ilmiy-tadqiqot va innovasion infratuzilmani rivojlantirish yuzasidan amalga oshirilayotgan ishlarni ajratib ko‘rsatish mumkin.

Me'yoriy baza keng miqyosdagi iqtisodiy va bozor instrumentlari kompleksini qo‘llash imkoniyatlariga ega hisoblanadi.

Ushbu shart-sharoitlar istiqbollarini, maqsadga muvofiqligini, xalqaro majburiyatlarni inobatga olgan holda O‘zbekiston Respublikasida “yashil iqtisodiyot” ni rivojlantirishning quyidagi ustuvor yo‘nalishlarini ajratib ko‘rsatish mumkin:

- *ifloslantiruvchi moddalar chiqindilarini, atmosferaga chiqariladigan “tashlama” gazlarini kamaytirishga, hamda respublika avtotransport sanoatining yangi yo‘nalishini rivojlantirishga, uning eksport salohiyatini oshirishga imkon beradigan elektr transporti (infratuzilmasi) ni va shahar “mobilligi” ni rivojlantirish;*

- *shahar magistral yo‘llaridagi transport yukini, turli darajadagi magistral yo‘llardagi transport tugunlarini (ikkilamchi, xalqa yo‘llar) qurilishini optimallashtirish;*

- *resurslar energiya samaradorligini oshirish;*

- *qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish salohiyatini oshirish, xususan biogaz, geo termal, gidro, shamol va boshqa energiya shakllaridan foydalanish salohiyatini oshirish;*

- *energiya tejamkor turar-joy binolari qurilishini rivojlantirish va yangi texnik echimlardan foydalanish asosida uy-joy fondining energiya samaradorligini oshirish;*

- *qishloq xo‘jaligida, atrof-muhitga salbiy ta'sir darajasini pasaytirishga imkon beradigan, hamda agrar mintaqalarda aholi bandligini oshirilishga imkon beradigan, organik ishlab chiqarishni rivojlantirish;*

- *birlamchi chiqindilardan foydalanish darajasini oshirish, maishiy chiqindilarni saralash stansiyalarida tirbandlikni kamaytirish, bunda chiqariladigan chiqindilar fraksiyalari miqdorini kengaytirish, aholini maishiy chiqindilarni alohida yig‘ish qoidalari to‘g‘risida xabardor qilish;*

*- milliy parklarga, qo‘riqxonalarga, buyurtmaxonalarga turistik marshrutlar va ekskursiyalarni uyushtirilishi bilan ajralib turadigan ekologik turizmni rivojlantirish.*

*Yuqoridagilarni inobatga olinishi O‘zbekiston Respublikasi va uning mintaqalarida "yashil iqtisodiyot" ni shakllantirish va rivojlantirish yuzasidan bir qator muayyan natijalarga erishish imkoniyatini yuzaga keltiradi, jumladan: atrof-muhit va atmosfera ifloslanish darajasini pasaytirish, atrof-muhitni himoya qilishga yo‘naltiriladigan investisiyalarning ko‘paytirilishiga imkon beradi*.

Xulosa qilib aytadigan o‘lsak, atrof-muhit ifloslanishi bilan bog‘liq bo‘lgan salbiy tashqi ta'sirlarning birlamchi darajadagi sababi – tabiiy kapitalga ahamiyatga molik darajada bosim o‘tkazadigan iqtisodiy tizimning o‘z hisoblanadi. Shuning uchun kam resurs talab qiladigan va tabiiy resurslardan samarali foydalanish imkoniyatini yuzaga keltira oladigan, takomillashgan yangi iqtisodiy tizimni shakllantirishga zaruriyat yuzaga keladi. Bunga misol sifatida aynan "yashil iqtisodiyot" ni keltirib o‘tish mumkin. U iqtisodiy o‘sishning, ijtimoiy integrasiyalashishning, inson farovonligi oshirilishining ildamlashishiga va butun eko tizimning normal faoliyat ko‘rsatishining ta'minlanishiga imkon beradi.

## Foydalanilgan adabiyotlar:


1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 2 dekabrdagi "2030 yilgacha O‘zbekiston Respublikasining «yashil» iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida" gi PQ-436-sonli Qarori. https://lex.uz/docs/6303230.

2. С.Ч.Джалалов, М.С.Мирзаева, С.С.Мирзаев. Атроф муҳит ва ресурслар иқтисоди. Ўқув қўлланма. Т.: 2009, ТИМИ босмахонаси. 230 б.

3. Исаджанов А. А. "Яшил иқтисодиёт": хусусиятлари ва ривожланиш омиллари. Иқтисодиёт ва таълим / 2020 № 1. 12-18 б.

4. Михайлова, М.А. Внешние эффекты: возникновение и проявления / М.А. Михайлова // Вестник Белорусского государственного экономического университета. - 2013. - № 4. - С. 12-16.

5. Вахабов А. В. Необходимость и приоритетные направления перехода к «зеленой экономике» в Узбекистане. Тезисы докладов международной конференции г. Ташкент, 20 апреля 2021 года. 3-12 с.

6. Коллективная монография под редакцией С. Н. Бобылёва, П. А. Кирюшина, О. В. Кудрявцевой. Зелёная экономика и цели устойчивого развития для России. — М.: Экономический факультет МГУ имени М. В. Ломоносова, 2019. — 284 с.

7. Рахманов Ш. И. Зеленый фактор экономического роста в Узбекистане (проблемы и перспективы). “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” (Economics and Innovative Technologies) ilmiy elektron jurnali. 295-300 б.

8. Аникин Ю.В. Проблемы перехода к устойчивому развитию и зеленой экономике. XI Международная конференция «Российские регионы в фокусе перемен». 666-675 с. https://elar.urfu.ru/bitstream/10995/48147/1/rrfp_2016_2_070.pdf.

9. «Зеленая экономика» как глобальная стратегия развития в посткризисном мире: Сб. обзоров / РАН. ИНИОН. Центр науч.-информ. исслед. глобал. и регионал. пробл. Отд. глобал. пробл.; Отв. ред. Животовская И.Г., Черноморова Т.В. – М., 2016. – 188 с. – (Сер.: Социал.-эконом. аспекты глобализации). https://inion.ru/site/assets/files/2523/2016_so_zelenaia_ ekonomika.pdf.

# МИНТАҚАВИЙ ТУЗИЛМАВИЙ СИЁСАТНИ АМАЛГА ОШИРИШ ЁНДАШУВЛАРИ

***Мадрахимов Кахрамон Эгамберганович***

***Маъмун университети НТМ***

***“Иктисодиёт” кафедраси доценти***

**Аннотация.** Ушбу мақолада минтақавий иқтисодий сиёсатни амалга ошириш зарурияти, аҳамияти, ўзига хос хусусиятлари ва ёндашувлари ёритилган.

**Аннотация.** В данной статье освещаются необходимость, важность, особенности и подходы к реализации региональной экономической политики.

**Abstract.** This article highlights the need, importance, specific features and approaches to the implementation of regional economic policy.

**Калит сўзлар.** Минтақавий сиёсат, минтақавий иқтисодий сиёсат, ёндашув, механизм, таркибий ўзгариш.

**Ключевые слова.** Региональная политика, региональная экономическая политика, подход, механизм, структурные изменения.

**Key words.** Regional policy, regional economic policy, approach, mechanism, structural change.

Миллий иқтисодиётнинг тараққиётида инновацион ривожланиш ва самарадорлик даражаси минтақавий иқтисодиёт билан бевосита боғлиқ ҳисобланади. Айнан, минтақавий иқтисодий мақсадли қиймат яратиш,

қарорлар ва ҳаракатлар, давлат ва сиёсий қарорларни ишлаб чиқиш ва амалга ошириш тартиби ҳамда давлат назорат тизимининг асосини ташкил қилади. Ихтисослашувни самарали ташкил қилиш ва янги саноат сиёсатини бошқариш йўналишлари минтақавий сиёсат ва таркибий ўзгаришларни рағбатлантирадиган инновацион стратегияларни ишлаб чиқишни талаб қилади. Бошқача айтганда, минтақавий сиёсат иқтисодий соҳаларни диверсификациялаш асосида янги саноат базаларини шакллантиришни қўллаб-қувватлашга йўналтирилиши лозим [1]. Минтақавий иқтисодий сиёсатни ишлаб чиқиш ва амалга оширишда ушбу муҳим жиҳатларни ҳисобга олиш ва миллий иқтисодиётни шакллантиришда инновацион ривожланишни таъминловчи йўналишларни қараб чиқиш лозим бўлади.

Минтақавий иқтисодий сиёсатни ташкил этиш ва унинг миллий иқтисодиёт ривожланишини таъминлашдаги роли ва таркибий ўзгаришларни амалга оширишда алоҳида ўрин тутади. Минтақавий сиёсатни шакллантиришда минтақавий устунликлардан аниқлаш ва улардан фойдаланиш масалалари эътиборга олинади [2]. Минтақавий сиёсатни ишлаб чиқишда инновацион бошқарув жараёнларини ҳудудийлаштириш масалаларини ҳам инобатга олиш лозим [3]. Ҳудудий ижтимоий-иқтисодий ривожланиш дастурини шакллантиришнинг бошқарув назариялари ва амалиёти муаммоларига ҳам эътибор қаратиш лозим [4]. Миллий иқтисодиётни барқарор ривожланишини таъминлашда ҳудудлар ўртасидаги турли номутаносибликларини бартараф этиш масалаларига ҳам алоҳида эҳтибор қаратилиши лозим [5]. Олимларнинг ушбу тадқиқот ёндашувларини таҳлил қилиш ва умумлаштиришда давлатнинг минтақавий сиёсатини тизимлаштиришга аниқ ёндашув, хусусан, минтақавий тузилмавий сиёсатни минтақавий сиёсатдаги ўрнини аниқлаш талаб этилади. Айрим олимлар давлатнинг таркибий сиёсатини алоҳида белгилаб, унинг асосий вазифалари мамлакат иқтисодиётини алоҳида тармоқлари, ҳудудлар ва муассасалар ўртасида юзага келадиган номутаносибликларни бартараф этиш ва миллий

иқтисодиётнинг мутаносиб тузилмасини шакллантиришдан иборат [6] эканлигини таъкидлайдилар.

Аввало, давлатни таркибий сиёсатини тармоқ, минтақавий ва институционал бўлимлар бўйича кўриб чиқилиб, унда тузилмавий сиёсатнинг минтақавий таркибий қисми марказий ҳокимият томонидан амалга ошириладиган тадбирларни ташкил этади. Маҳаллий давлат ҳокимияти органларининг уларнинг мақсади эса ижтимоий-иқтисодий ривожланишдаги номутаносибликларни бартараф этиш, ҳудудлар салоҳиятидан тўлиқроқ фойдаланиш ва мамлакатнинг қуйи салоҳиятга эга ҳудудларни ривожлантиришга кўмаклашишдан иборат бўлади. Амалга ошириладиган таркибий сиёсатда минтақавий жиҳат табиий ресурслар, ишлаб чиқарувчи кучлар, аҳолини жойлаштиришнинг объектив нотекислиги, мамлакат минтақасидаги аҳоли турмуш шароитининг мақбул даражаси ва сифатини таъминлаш зарурати билан боғлиқ бўлади.

Шунингдек, минтақашунос иқтисодчи олимлар давлатнинг минтақавий сиёсати доирасидаги таркибий сиёсатни минтақавий иқтисодий сиёсатнинг таркибий қисми сифатида қарайдилар. Улар минтақавий иқтисодий сиёсатни бюджет, солиқ, кредит, нарх, таркибий, инвестиция ва институционал сиёсатлар мажмуаси сифатида кўриб чиқилишини қайд этадилар [7]. Ушбу ёндашувларни ҳисобга олиб, минтақавий таркибий сиёсатни амалга ошириш миллий ва минтақавий даражада кўриб чиқилиши лозим. Биринчи ҳолатда давлат умумий тузилмавий сиёсат доирасида миллий миқёсдаги таркибий ўзгаришлар сиёсатини олиб боришини англатади. Иккинчи ҳолатда эса фақат давлатни хатти-ҳаракатларига нисбатан ҳудудлар даражасига қисқартирилиши тадқиқ қилинади.

Минтақавий иқтисодий тизимда эҳтиёжлар ва чекланган ресурслар ўртасидаги мавжуд қарама-қаршиликни аниқлаш ва уларни минтақа ижтимоий-иқтисодий ривожланишининг устувор йўналишларига эътибор қаратиш лозим. Бу эса мос равишда устувор йўналишларни танлаш орқали

таркибий сиёсатнинг мантиқий ва муҳим таркибий қисми эканини эътиборга олган ҳолда минтақавий таркибий сиёсатни амалга ошириш зарур. Миллий таркибий сиёсат таркибида минтақавий таркибий сиёсатни танлаш миллий иқтисодий жараённи амалга ошириш учун ҳудудларни мос шарт-шароитларига боғлиқлиги билан ифодаланади. Самарали минтақавий тузилмавий сиёсат устуворликларни танлашнинг мезонларини ҳисобга олиш, турли номутаносибликни бартараф этиш ва мезодаражадаги мувозанатни тиклаш учун турли воситаларни қўллашга асосланган бўлиши лозим. Шунга асосан, тармоқларни танлаш тартиби қуйидаги босқичлардан иборат бўлади:

- биринчи босқичда қатор муқобил вариантлардан ҳудуд иқтисодиёти таркиби ва унга мос умумий ривожланиш устуворликлари аниқланади;

- иккинчи босқичда ҳудудий ижтимоий-иқтисодий тизим хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда устувор йўналишлар белгиланади.

Устуворликни белгилаш босқичи тугагандан сўнг, қуйидаги босқичлар кетма-кет амалга оширилади:

- таркибий ўзгаришларнинг минтақавий узоқ муддатли индикатив режалари ва мақсадли дастурларини ишлаб чиқиш;

- ҳудудий ижтимоий-иқтисодий тизимнинг устувор йўналишларига мувофиқ тармоқлараро капитал трансферини рағбатлантириш чора-тадбирларини амалга ошириш;

- ҳудудий ижтимоий-иқтисодий тизимда иқтисодиётнинг истиқболсиз тармоқлари ва уларни тугатиш дастурларини амалга ошириш;

- таркибий ўзгаришлар йўналишларига мувофиқ кадрлар тайёрлаш ва улар учун қайта тайёрлаш дастурларини ишлаб чиқиш ва амалга ошириш.

Фикримизча, мавжуд ёндашувларга асосланган ҳолда минтақавий тузилмавий сиёсатни амалга ошириш механизми унинг тўлиқ ишлашини таъминлайдиган таркибий унсурлар тўпламини ўз ичига олади (1-расм).




**1-расм. Минтақавий таркибий сиёсатни амалга ошириш механизмининг таркибий қисмлари**

Ушбу расмга асосан, минтақавий таркибий сиёсатни амалга ошириш механизми таркиби турли восита ва усуллар мажмуини ўзига бирлаштиради. Ҳудудий тузилмавий сиёсатни амалга ошириш механизмининг асосий таркибий унсурлари қуйидагилардан иборат бўлади:

- ҳудудда таркибий ўзгаришларни амалга оширишни норматив-ҳуқуқий жиҳатдан таъминлаш;

- ҳудудда таркибий ўзгаришларни амалга оширишни молиявий қўллаб-қувватлаш;

- давлат таъсирининг зарур воситалари, усуллари ва шаклларини қўллаш, хусусан, ҳудудларни ривожлантириш дастурлари, уларни маҳаллий дастурларини ишлаб чиқиш ва амалга ошириш.

Юқорида келтирилган таркибий қисмлар ичида давлат томонидан тартибга солиш воситалари сифатида стратегик ва конъюнктурани алоҳида ажратиб кўрсатиш мумкин. Улар орасида рағбатлантирувчи воситалар алоҳида ўрин тутади. Таркибий силжишларни тартибга солиш усуллари эса

турли объектга таъсир қилиш даражасига кўра макроиқтисодий, устувор тармоқларни қўллаб-қувватлаш ва институционал усулларга бўлинади. Ушбу жараённи амалга оширишда муҳим чора-тадбирлар сифатида тўғридан-тўғри давлат инвестициялари ва субсидиялар бериш, дастурларни молиялаштириш учун минтақавий жамғармалар яратиш, хорижий ва маҳаллий хусусий капитални кенг жалб қилиш, имтиёзли давлат кредитлари ва солиққа тортиш, имтиёзлар, бюджетдан ташқари маблағлардан фойдаланиш ва бошқалар каби иқтисодий усулларни амалга ошириш лозим бўлади.

Хулоса шуки, минтақавий таркибий сиёсат бугунги кундаги минтақавий тизимларнинг ижтимоий-иқтисодий ривожланишини тартибга солишнинг воситасига айланди. Чунки, бозорнинг ўз-ўзини тартибга солиш очиқ шароитда самарали восита сифатида қаралади. Таркибий сиёсат механизми туфайли ҳудуднинг ижтимоий-иқтисодий ўсиши ва минтақа аҳолиси турмуш даражасини ошириш мақсадида ички салоҳиятни фаоллаштириш ва минтақавий тизимни ривожлантириш муаммоларини ҳал қилишга эришиш мумкин. Бундай сиёсат бошқарувнинг тармоқ ва маҳаллий усулларидан фарқ қилиб, ҳудуднинг ижтимоий-иқтисодий тизим захираларидан самарали фойдаланиш воситасига айланиши зарур. Шу боис, минтақавий таркибий сиёсат минтақанинг ички ижтимоий-иқтисодий сиёсати унсури сифатида минтақани ривожлантириш вазифаларидан келиб чиқадиган ва вақт ўтиши билан тузатилиши мумкин бўлган вазифалар, мақсадлар ва йўналишлар бўлиб ҳисобланади.

**Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1. Foray D. (2015). Smart specialization: Opportunities and Challenges for Regional Innovation Policies. Abingdon: Routledge.

2. Asheim A, Boschma R and Cooke P (2011). Constructing Regional Advantage: Platform Policies Based on Related Variety and Differentiated Knowledge Bases. Regional Studies 45(7). – pp. 893-904.

3. Stroeva O., Sibirskaya E., Khokhlova O., Oveshnikova L. (2014). Regionalization of the innovation management process, Life Sci J. No.11(8s). -pp. 297-301.

4. Yakushkina T. (2011) The formation of the social and economic regional development program, The problems of the management theory and practice, No.4., - pp. 66-7.

5. Решетило В.П. Синергия становления и развития региональных экономических систем: монография. / В.П.Решетило; Харк. нац. акад. город. хоз-ва. – Х., 2009.

6. Панова В. Парадигма "нового регионализма" в Европейском Союзе. // Вече, 2008, №14 [Электронный ресурс]. - Режим доступа: http: //www.viche.info/journal/1022/

7. Папп В.В. Структурные процессы в экономике региональных общественных систем: теория, методология, практика: монография. Институт региональных исследований; [отв. ред. Л.Т. Шевчук]. – Львов, 2009. - 340 с.

## HUDUDIY RIVOJLANISH KO'RSATKICHLARINI HISOBLASHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI

**Abdullayev Farxod Ozodovich**
*O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi Urganch hududiy filiali direktori*

***Annotasiya:*** *Hududiy rivojlanish ko'rsatkichlarini hisoblash va ularni tahlil qilish milly iqtisodiyotining bugungi holatini baholash, muammoli yo'nalishlarni aniqlash va tegishli rivojlanish strategiyasini ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada mamlakat iqtisodiy holatini baholashda ko'pincha foydalaniladigan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning asosiy ko'rsatkichlarini, shuningdek, iqtisodiyotning barqaror va barqaror rivojlanishini ta'minlashdagi ahamiyatini ko'rib chiqamiz.*

***Kalit so`zlar:*** *viloyat, hudud, barqaror rivojlanish, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, indikatorlar, iqtisodiy o`sish.*

***Abstract:*** *Calculating regional development indicators and analyzing them is important in assessing the current state of the national economy, identifying problem areas, and developing an appropriate development strategy. In this article, we will consider the main indicators of socio-economic development, which are often used to assess the economic situation of the country, as well as their importance in ensuring stable and sustainable development of the economy.*

***Keywords:*** *region, region, sustainable development, socio-economic development, indicators, economic growth.*

O‘zbekistonda hududiy iqtisodiyotni rivojlantirish va uni boshqarish, hududlarning iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanish masalalari iqtisodchi olimlarning bu boradagi ilmiy qiziqishlari sohasi bo‘lib kelmoqda. Jumladan, hududiy sanoat majmualarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini modellashtirish, mintaqalarni kompleks rivojlantirish, ishlab chiqaruvchi kuchlarni hududiy joylashtirish va boshqarish, mamlakat mintaqalari raqobatdoshligini oshirishning metodo-logik asoslarini takomillashtirish singari masalalar O‘zbekistonlik iqtisodchi olimlardan Mahalliy olimlar Gulyamov S.S.[3], Sadikov A.[4], Ruzmetov B.[5], Axmedov T.[6], Imamov Sh.[7], Qayumov A.A., Nazarova X.M.[8], Nazarov Sh.H.[9], Siddiqov A.J.[10], Yakubov I.O. [11] va boshqalarning ilmiy izlanishlarida keng o‘rin olgan. Biz ushbu maqolada O‘zbekistonda hududiy rivojlanishni boshqarishga kompleks yondashuv zarurligi ta’kidlanadi va mamlakatning barcha hududlari barqaror rivojlanishini ta’minlash bo‘yicha yanada tadqiq qilish va samarali siyosatni ishlab chiqishga qaratilgan.

Maqolada huhdlarda iqtisodiy o‘sish dinamikasi, ishlab chiqarishning tarmoq strukturasidagi o‘zgarishlar va boshqa ko`rsatkichlar tahlil qilingan. Asosiy e'tibor turli darajadagi hududiy rivojlanish tendentsiyalarining sabablarini aniqlashga qaratilgan.

Aniqlanishicha, tahlil qilinayotgan davrda YaHM o‘sishining yuqori sur’atlari Jizzax, Samarqand va Surxondaryo viloyatlarida kuzatilib, xizmat ko‘rsatish sohasi iqtisodiy o‘sishning asosiy omiliga aylangan. Qishloq xo'jaligi ustunlik qilgan hududlarda iqtisodiy o'sish sur'atlari o'rtacha yoki past bo'lgan. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish tahlili iqtisodiy o‘sishning ijobiy tendensiyalariga qaramasdan, hududlar o‘rtasidagi tafovut ortib borayotganini ko‘rsatdi. Masalan, aholi jon

boshiga YaHMning maksimal va minimal qiymatlari oʻrtasidagi tafovut tahlil qilinayotgan davrda 1995 yildagi 2,3 barobardan 2019 yilda 4,7 baravarga oshdi. Hududlar rivojlanish dinamikasiga ta’sir etuvchi asosiy omillar iqtisodiyotdagi tarkibiy oʻzgarishlarni oʻzgartirish darajasining pastligi, bu esa iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirishda hududlar salohiyatidan toʻliq foydalanilmaslikka olib kelmoqda.

Oʻzbekistonning barcha hududlari barqaror rivojlanishini ta’minlash uchun har tomonlama tahlil qilishga mahalliy olimlar M.Ikromov hamda A.F.Abdullaev o`z ilmiy ishlarida e’tibor qaratishgan. Ularning qayd etishicha 2008 yilda jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi tufayli murakkablashgan, biroq tashqi savdo aylanmasi tuzilmasini diversifikatsiya qilish va inqirozga qarshi choralar dasturini amalga oshirish tufayli Oʻzbekiston nisbatan barqarorlikka erishgan. Mualliflar taraqqiyotning muhim yoʻnalishi tarmoqlar va hududlarni modernizatsiya qilish, ularning raqobatbardoshligini oshirish va eksport salohiyatini rivojlantirish ekanini alohida ta’kidladi.

Dunyoda hududlarni rivojlantirishning bir qancha modellari mavjud boʻlib, ularning har biri ma’lum tamoyil va strategiyalarga asoslanadi. Eng keng tarqalgan modellardan ba'zilari:

1. Sanoat modeli: Bu model mintaqadagi sanoat sektorini rivojlantirishga qaratilgan. Sanoat parklarini barpo etish, ishlab chiqarish korxonalarini rivojlantirish uchun investitsiyalarni jalb qilish, ish oʻrinlari yaratish va infratuzilmani rivojlantirish asosiy strategiyalardan iborat.

2. Turizm modeli: Bu model mintaqaning asosiy daromad manbai sifatida turizmni rivojlantirishga asoslangan. Strategiyalar turizm infratuzilmasini rivojlantirish, turistik diqqatga sazovor joylarni targʻib qilish va turistlarni jalb qilish dasturlarini ishlab chiqishni oʻz ichiga oladi.

3. Agrar model: Bu model qishloq xoʻjaligi va qishloq rivojlanishiga urgʻu beradi. Asosiy strategiyalar qatoriga qishloq xoʻjaligini isloh qilish, qishloq xoʻjaligi texnologiyalarini rivojlantirish, fermer xoʻjaliklarini qoʻllab-quvvatlash va qishloq hamjamiyatini rivojlantirish kiradi.

4. Innovatsion model: Bu model mintaqada innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirishga qaratilgan. Asosiy strategiyalar qatoriga innovatsion markazlar va parklar yaratish, startap va kichik biznesni qoʻllab-quvvatlash, ilmiy tadqiqotlar va texnologik ta’limni rivojlantirish kiradi.

5. Barqaror model: Bu model barqaror rivojlanishga, jumladan, ijtimoiy, ekologik va iqtisodiy jihatlarga qaratilgan. Asosiy strategiyalar qatoriga ekologik toza texnologiyalarni rivojlantirish, ta'lim va sog'liqni saqlashni qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy himoyani yaratish kiradi.

Ushbu modellar mintaqaning o'ziga xos sharoitlari va ehtiyojlariga qarab birlashtirilishi yoki moslashtirilishi mumkin. Ularning har biri o'zining afzalliklari va kamchiliklariga ega va modelni tanlash ma'lum bir mintaqaning maqsadlari va rivojlanish strategiyalariga bog'liq. Hududiy rivojlanishning jahon tajribasi turli modellar va strategiyalar bilan ifodalanadi. Ba'zi davlatlar resurslar va investitsiyalarning teng taqsimlanishini ta'minlab, o'zlarining barcha hududlarini teng ravishda rivojlantirishga intilishadi. Boshqalar esa infratuzilma, ta'lim va innovatsiyalarga sarmoya kiritib, o'sish uchun eng katta salohiyatga ega bo'lgan asosiy hududlarga sa'y-harakatlarini jamlashni ma'qul ko'radi.

Hududiy rivojlanish modellari xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, qulay biznes muhitini yaratish, kichik va o'rta biznesni rivojlantirish, innovatsiyalar va texnologiyalarni rivojlantirishga ko'maklashishga qaratilgan strategiyalarni o'z ichiga olishi mumkin.

Hududlarning iqtisodiy salohiyatini baholash usullari va modellarini ishlab chiqish, iqtisodiy o'sishga ta'sir etuvchi omillarni tahlil qilish, shuningdek, barqaror rivojlanish sohasidagi tadqiqotlar, jumladan, loyihalarning atrof-muhitga ta'sirini baholash hududiy rivojlanish sohasidagi ilmiy yutuqlardan iborat. va jamoat farovonligi.

Bunda har bir hududning geografik joylashuvi, resurslarning mavjudligi, ijtimoiy-iqtisodiy infratuzilmasi, aholining ta'lim darajasi va boshqa ko'plab omillar kabi xususiyatlari hisobga olinadi. Natijada, hududiy rivojlanish tadqiqotlari odamlar hayotini yaxshilash va dunyoning turli burchaklarida iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish uchun samarali siyosat va tavsiyalarni ishlab chiqishi mumkin.

Shuningdek, A.K.Mirsaidova va J.A.Sharafutdinovalar tomonidan 2020-yilda yozilgan "Hududiy iqtisodiy tizimlarni rivojlantirish strategiyasi" nomli kitobda iqtisodiyotni rivojlanishining turli jihatlarini ko'rib chiqadilar. Rivojlanish strategiyasini amalga oshirish, jumladan, hududlar salohiyatini baholash, muammolar va istiqbollarni tahlil qilish, shuningdek, iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishning asosiy yo'nalishlari va mexanizmlarini aniqlash.Kitobda hududlarning iqtisodiy rivojlanishini boshqarishning asosiy masalalari, xususan investitsiyalar, innovatsiyalar, inson kapitali va infratuzilmani rivojlantirish.Ish

hududiy iqtisodiyot sohasidagi tadqiqotchilar uchun ham, hududiy rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish va amalga oshirishda ishtirok etayotgan amaliyotchi menejerlar va davlat xizmatchilari uchun ham qiziqish uyg‘otadi.

Kitob hududiy iqtisodiyot sohasidagi akademik tadqiqotlar uchun ham, hududiy rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish va amalga oshirish uchun mas'ul bo'lgan rahbarlar va davlat organlari faoliyatida amaliy qo'llash uchun ham foydali bo'lishi mumkin. Mualliflarning tahliliy yondashuvi va amaliy e’tibori ushbu kitobni hududiy rivojlanish bo‘yicha o‘z bilimlarini oshirish va ushbu sohada strategik boshqaruv samaradorligini oshirishga intilayotgan barcha manfaatdor tomonlar uchun qimmatli manbaga aylantiradi.

Tadqiqot metodologiyasi tahlilidan ko‘rinib turibdiki, O‘zbekistonda hududlarni rivojlantirish davlatning makroiqtisodiy barqarorlikka erishish, barqaror iqtisodiy o‘sish sur’atlari va aholi turmushini yaxshilashga qaratilgan strategiya va dasturlari bilan chambarchas bog‘liq. Bu jarayonda sanoatni modernizatsiya qilish, infratuzilmani mustahkamlash, xorijiy sarmoyalarni jalb etishga qaratilgan davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanayotgani muhim ahamiyat kasb etmoqda. Hududlar iqtisodiyotini rivojlantirishda xususiy sektorning ishtiroki ham muhim omil hisoblanadi. Xususiylashtirish va monopoliyadan chiqarish jarayonlari, shuningdek, kichik biznes va tadbirkorlikni faol rivojlantirish iqtisodiyotning rang-barangligi va raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilmoqda. O‘zbekistonda hududiy rivojlanish iqtisodiyotning turli tarmoqlari va tarmoqlarini mustahkamlashga mutanosib yondashuvni ham o‘z ichiga oladi, bu esa butun mamlakat bo‘ylab yagona fazoviy rivojlanishni yaratishga xizmat qiladi. Umuman olganda, O‘zbekiston hududlarining muvaffaqiyatli rivojlanishi barqaror rivojlanishga erishish va aholi turmush sifatini yaxshilash uchun davlat aralashuvi, strategik rejalashtirish va iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirish muhimligini tasdiqlaydi.

Hududiy rivojlanish ko'rsatkichlari - bu muayyan hududning iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik va institutsional rivojlanish darajasini baholash uchun foydalaniladigan miqdoriy va sifat ko'rsatkichlari. Ular turli mintaqalarning holatini aniqlash, muammoli hududlarni aniqlash va rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish uchun ularni tahlil qilish va solishtirishga yordam beradi. Ko'rsatkichlar aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot darajasi, ishsizlik, ta'lim darajasi, sog'liqni saqlashdan foydalanish imkoniyati, jinoyatchilik darajasi, atrof-muhit tozaligi, korruptsiya darajasi, infratuzilma va texnologik rivojlanishga investitsiyalar, kichik va o'rta biznesning ulushi kabi ko'rsatkichlarni o'z ichiga olishi mumkin. iqtisodiyot va boshqalar. Hududiy rivojlanish ko'rsatkichlari

hududiy rivojlanish darajasida rejalashtirish va qarorlar qabul qilishda muhim rol o'ynaydi. Ular hukumatlar va tashkilotlarga rivojlanishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilashda, mintaqa resurslari va salohiyatini aniqlashda, amalga oshirilayotgan dastur va tadbirlar samaradorligini baholashda yordam beradi. Hududiy rivojlanishning asosiy ko'rsatkichlari orasida quyidagi toifalarni ajratib ko'rsatish mumkin:

1. Iqtisodiy ko'rsatkichlar: aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot darajasi, investisiyalar hajmi, ishlab chiqarish ko'rsatkichlari, ishsizlik darajasi, kichik va o'rta biznesning iqtisodiyotdagi ulushi, inflyatsiya darajasi va boshqalar.

2. Ijtimoiy ko'rsatkichlar: ta'lim darajasi, sog'liqni saqlashdan foydalanish imkoniyati, qashshoqlik va ijtimoiy ta'minot darajasi, jinoyatchilik darajasi, hayot sifati, demografik ko'rsatkichlar va boshqalar kabi jihatlarni qamrab oladi.

3. Ekologik ko'rsatkichlar: atrof-muhit holati, havo va suvning ifloslanish darajasi, zararli moddalarning chiqindilari hajmi, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish darajasi va boshqalar.

4. Institutsional ko‘rsatkichlar: boshqaruv sifati, korrupsiya darajasi, davlat organlari faoliyati samaradorligi, huquqiy tizimning rivojlanishi va investitsiya muhiti va hududiy hokimiyat organlari faoliyatining umumiy samaradorligiga ta’sir etuvchi boshqa jihatlarni aks ettiradi.

Ushbu ko‘rsatkichlarni tushunish va tahlil qilish hududning bugungi holati va rivojlanish salohiyatini baholash, uning afzalliklari va zaif tomonlarini aniqlash, aholi turmush darajasini oshirish, investisiyalarni jalb etish, infratuzilmani rivojlantirish va barqaror rivojlanishni ta’minlash bo‘yicha maqsadli chora-tadbirlar ishlab chiqish imkonini beradi. Bundan tashqari, amalga oshirilayotgan dasturlar va rivojlanish strategiyalari samaradorligini monitoring qilish va baholashda hududiy rivojlanish ko‘rsatkichlari muhim o‘rin tutadi.

Hududiy rivojlanish ko'rsatkichlarini hisoblash tahlilning aniq maqsadlariga va mavjud ma'lumotlarga qarab farq qilishi mumkin. Biroq, hududiy rivojlanishning turli jihatlarini o'lchash uchun ko'pincha qo'llaniladigan umumiy usullar va yondashuvlar mavjud. Quyida ulardan ba'zilari keltirilgan:

1. Yig‘ilgan indekslar: Bu usulda hududning umumiy rivojlanish darajasini baholash uchun turli ko‘rsatkichlar bitta kompleks indeksga birlashtiriladi. Buning uchun turli yig'ish usullari qo'llaniladi, masalan, vaznli yig'indi, Berenstain indeksi va boshqalar.

2. Standartlashtirish: Bu usul turli ko'rsatkichlarni solishtirish uchun umumiy shkalaga keltirish imkonini beradi. Odatda z-transform yoki minimax normalizatsiya kabi standartlashtirish usullari qo'llaniladi.

3. Reyting: Ko'rsatkichlar o'sish yoki kamayish tartibida tartiblangan bo'lib, bu rivojlanishning o'ziga xos jihatlari bo'yicha hududlar o'rtasida yetakchilar va autsayderlarni aniqlash imkonini beradi.

4. Klaster tahlili: Hududlar rivojlanish xususiyatlari o‘rtasidagi o‘xshashlik asosida guruhlangan. Bu usul bizga mintaqalarning tipik guruhlarini aniqlash va ularning rivojlanish xususiyatlarini ajratib ko'rsatish imkonini beradi.

5. Ekonometrik modellar: Mintaqaning rivojlanishiga turli omillarning aloqalari va ta'sirini baholash uchun foydalaniladi. Bu bizga rivojlanishning asosiy omillarini aniqlash va uning kelajakdagi yo'nalishini bashorat qilish imkonini beradi.

6. GIS tahlili: Geografik axborot tizimi resurslarni taqsimlash, infratuzilma va demografik xususiyatlar kabi fazoviy ma’lumotlarni tahlil qilish uchun foydalaniladi, bu hududiy rivojlanishning fazoviy qonuniyatlarini aniqlash imkonini beradi.

Hududiy rivojlanishni yanada to‘liqroq tahlil qilish uchun bu usullardan alohida yoki bir-biri bilan birgalikda qo‘llanilishi mumkin. Har birining o'ziga xos afzalliklari va cheklovlari mavjud va ma'lum bir usulni tanlash tadqiqotning maqsad va vazifalariga, mavjud ma'lumotlarga va tahlil kontekstiga bog'liq.

Hududiy rivojlanishning qiyosiy tahlili iqtisodiy, ijtimoiy, infratuzilmaviy va boshqa ko'rsatkichlarni baholashga asoslangan bo'lib, turli geografik hududlar o'rtasidagi farqlarni aniqlash imkonini beradi. U iqtisodiy ko'rsatkichlar (masalan, aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot, ishsizlik darajasi, investitsiyalar), ijtimoiy ko'rsatkichlar (masalan, ta'lim darajasi, sog'liqni saqlashdan foydalanish, qashshoqlik darajasi), infratuzilma ko'rsatkichlari (masalan, yo'llar sifati) kabi ko'plab ko'rsatkichlarni baholashni o'z ichiga oladi. energiya va transport tarmoqlarining mavjudligi), shuningdek, ekologiya, geografiya va demografiya bilan bog'liq omillar.

Ushbu tahlil turli mintaqalarning kuchli va zaif tomonlarini, shuningdek, bu farqlarning sabablarini ochib beradi. Masalan, turli hududlarning iqtisodiy rivojlanish darajasini taqqoslash har bir mintaqada iqtisodiy o'sishga yordam beradigan asosiy tarmoqlarni va iqtisodiyot tarkibidagi farqlarni aniqlashga olib kelishi mumkin. Shuningdek, qaysi omillar, masalan, geografik joylashuv yoki

siyosiy barqarorlik mintaqa taraqqiyotining muvaffaqiyatiga ta'sir qilishini aniqlash mumkin.

Qiyosiy tahlilning yana bir jihati bu fazoviy modellashtirish bo'lib, u resurslarning fazoviy taqsimoti va demografik xususiyatlarning hududlar rivojlanishiga ta'sirini baholash imkonini beradi. Bu hududiy siyosatni rejalashtirish va turli hududlar o'rtasida resurslarni taqsimlash uchun muhimdir.

Umuman olganda, hududiy rivojlanishning qiyosiy tahlili turli hududlarning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishiga ta'sir qiluvchi shart-sharoitlar va omillarning xilma-xilligini tushunishning muhim vositasi bo'lib, bu o'z navbatida samarali rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqishga va hududiy rivojlanish sohasida asosli qarorlar qabul qilishga yordam beradi. siyosat.

Hayot darajasi va sifati davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning asosiy ko'rsatkichlaridan biri bo'lib, u aholining umumiy farovonligini va uning moddiy va ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish darajasini aks ettiradi. Ushbu ko'rsatkich asosiy xizmatlardan foydalanish (ta'lim, sog'liqni saqlash, uy-joy), daromad darajasi, ta'lim va sog'liqni saqlash darajasi, atrof-muhit sifati va xavfsizlik darajasi kabi jihatlarni o'z ichiga oladi.

O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy riojlanish ko‘rsatkichlari – hayot darajasi va sifati, ishsizlik darajasi va jahon iqtisodiyotiga jalb etilishini tahlil qilish asosida quyidagi xulosalar chiqarish mumkin:

Aholi umumiy daromadlari va aholi jon boshiga real jami daromadlar o‘sishida ijobiy dinamika kuzatilmoqda. Bu aholi turmush darajasi oshganidan dalolat beradi. Kelgusi 5 yil uchun prognoz mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish va ijtimoiy infratuzilmani yaxshilash asosida ushbu ko'rsatkichlarning yanada o'sishini nazarda tutadi. Iqtisodiy inqirozlar davridagi ba'zi o'zgaruvchanlikka qaramasdan, so'nggi yillarda ishsizlik darajasining pasayish tendentsiyasi kuzatildi. Kelgusi 5 yil uchun prognoz aholi bandligini qo‘llab-quvvatlash va iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirish bo‘yicha samarali chora-tadbirlar amalga oshirilgan taqdirda, ushbu tendentsiya davom etishini nazarda tutadi.

Umuman olganda, O‘zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy riojlanishning turli jabhalarida ijobiy dinamikani namoyon etishda davom etishi kutilmoqda. Biroq barqaror va barqaror o‘sishga erishish uchun innovasion iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va raqamlashtirish, ijtimoiy sohani rivojlantirish, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash borasidagi sa’y-harakatlarni davom ettirish zarur.

## Adabiyotlar:


1. https://cyberleninka.ru/article/n/sovremennye-tendentsii-ekonomicheskogo-razvitiya-regionov-uzbekistana/viewer.
2. https://e-itt.uz/index.php/eitt/article/view/88/81.
3. Гулямов С.С. Моделирование социально-экономического развития территориально-промышленных комплексов. -Т.: Фан, 1980. - 194 с.;
4. Садыков А.М. Основы регионального развития: теория, методология, практика // Монография. Т.: IQTISOD - MOLIYA, 2005. - 280 с.;
5. Рузметов Б. Комплексное развитие региона в условиях углубления экономических реформ. Автореф. дис…..докт. экон. наук. –Т.: 1998;
6. Ахмедов Т.М. Регулирование территориальной организации производительных сил и комплексного развития регионов Узбекистана. -Т.: ФАН, 1992;
7. Имамов Ш.Б. Регулирование территориального развития экономики Узбекистана: Автореф. дис…докт. экон. наук. -Т.: 1998;
8. Qayumov A.A., Nazarova X.M., Egamberdiyev F.T., Yakubov O‘.Sh. Mintaqaviy iqtisodiyot. -T.: Universitet, 2004;
9. Nazarov Sh.H. O‘zbekiston mintaqalari raqobatdoshligini oshirishning metodologik asoslarini takomillashtirish. Doktorlik dissertatsiyasi avtoreferati. -T.: 2016. - 5 b.;
10. Siddiqov A.J. Iqtisodiy islohotlarning yangi bosqichida sanoat ishlab chiqarishning mintaqaviy muammolari (Qashqadaryo viloyati misolida) kandidatlik dissertatsiyasi avtoreferati. -T., 2006;
11. Yakubov I.O. Mintaqaviy iqtisodiyot. -T.: TDIU, 2016.

## MUNDARIJA


| 1-SEKSIYA.MINTAQA IQTISODIYOTINI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISHNING METODOLOGIK ASOSLARI | | |
|---|---|---|
| 1 | Qodirov A. M, Axmediyeva A. T. O‘zbekiston mintaqalarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish xususiyatlari | 3 |
| 2 | Xudayberganov D.T, Ishchanova S. Mediatashkilotlar biznes qiymatini baholashning o‘ziga xos xususiyatlari | 7 |
| 3 | Садуллаев А. Минтақаларда иқтисодий ҳавфсизликни таъминлашнинг ижтимоий-демографик омиллари | 10 |
| 4 | Tadjiev B.U, Rustamov S.B. Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarini boshqarish xususiyatlari | 15 |
| 5 | Masharipova M. A, Saparova M. A.<br>O`zbekistonda inklyiziv o`sish va barqaror rivojlanish asoslari | 27 |
| 6 | Исламутдинова Д.Ф, Эркинбоева С.Х. Эконометрический метод взаимосвязи экономики и окружающей среды | 32 |
| 7 | Назаров Э. Т. Бугунги кунда тижорат банклари активларининг ошишида кредитлаш амалиётининг ўрни | 35 |
| 8 | Qurbanova O. T. Xizmat ko'rsatish salohiyatidan samarali foydalanishning mintaqa raqobatbardoshligini ta'minlashda ahamiyati | 41 |
| 9 | Saidov O. Sh. Mintaqalarning transport salohiyati tahlili | 45 |
| 10 | Авезов М.К. Факторы эффективных внешнеэкономических связей региона | 51 |
| 11 | Sattorov T. Some issues of the formation of a competitive territorial economy in the context of integration | 57 |
| 12 | Otajonov T. X. Tijorat banklarida valyuta risklari, uning mohiyati va turlari | 61 |
| 13 | Саттарова Д. Ўзбекистонда банк секторини кенгайтиришда рақамли трансформация йўналишлари | 65 |
| 14 | Мадаминов С, Абдикаримова З. Мактабгача таълим тизимида | 70 |

| | | |
|---|---|---|
| | давлат-хусусий шериклик муносабатларини амалга ошириш масалалари | |
| 15 | Саттаров Г. О. Аспекты экспорта товаров и услуг в цифровой экономике республики узбекистан | 74 |
| 16 | Зарипов Х.З. Ижтимоий-иқтисодий ривожланиш манфаатларида инсон капитали самарадорлигини таҳлил қилиш ва прогнозлашнинг услубий жиҳатлари | 81 |
| 17 | Kuziyev B.K. Korxonalar moliyaviy faoliyatida axborot texno-logiyalari mazmuni va ulardan foydalanishning o‘ziga xos xususiyatlari | 89 |
| 18 | Kuziyev B.K. Korxona faoliyatida axborot texnologiyalaridan foydalanish bo‘yicha tadqiqotlar mazmuni | 95 |

| | | |
|---|---|---|
| **2-SEKSIYA MINTAQADA YASHIL IQTISODIYOTNI SHAKLLANTIRISH OMILLARI VA MAVJUD SHARTSHAROITLARI** | | |
| 1 | Абдуллаев И.С. Минтақа иқтисодиётини ривожлантиришда рақамли ва яшил иқтисодиётни аҳамияти | 99 |
| 2 | Джумабаева Ш. Х. Минтақада “яшил” иқтисодиётни шакллантириш ва саноат тармоқларини ривожлантириш**(**Қорақалпоғистон республикаси мисолида**)** | 105 |
| 3 | Aliyeva G.I, Abdullayeva Yo.S. Mintaqada yashil iqtisodiyotni rivojlantirish imkoniyatlari | 111 |
| 4 | Сеитова Л. П. Устойчивого развития регионов в условиях экологических ограничений | 114 |
| 5 | Xaydarova T. **Минтақада қайта тикланадиган манбаларга ўтишнинг заруряти** | 119 |
| 6 | Durumov T. G`. Mintaqada yashil iqtisodiyotni shakllantirishda mehnat resurslari omillari | 127 |
| 7 | Narziyeva D. M, Madaminov A. U. Mamlakatimizda yashil iqtisodiyotni shakllantirishning asosiy mexanizmlari | 130 |
| 8 | Akramova O.Q. Hududlarning investitsion jozibadorligini oshirishda | 134 |

| | | |
|---|---|---|
| | tabiiy geografik salohiyatining o’rni va ahamiyati | |
| 9 | Сапарова М. А. Роль зеленого маркетингга в формировании зеленой экономики | 137 |
| 10 | Ruzmetov Sh. Yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda turizmning ahamiyati. | 142 |

| 3-SEKSIYA MINTAQADA YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBALARI VA INNOVATSION JIHATLARI | | |
|---|---|---|
| 1 | Raimboyeva M.D. Mamlakatda yashil iqtisodiyotni rivojlantirishning ahamiyati: xorijiy tajriba | 146 |
| 2 | Karimboyev D.D, Radjapov O.A. Mintaqada. yashil iqtisodiyotni rivojlantirish yo’nalishlari (germaniya tajribasi misolida) | 151 |
| 3 | Mayliyeva S. S. Mintaqada yashil iqtisodiyotni rivojlantirish va kambag‘allikni qisqartirishda osiyo mamlakatlari tajribalaridan foydalanish | 156 |
| 4 | Normurodov Z. F. Yashil iqtisodiyotni rivojlantirishning xorij tajribalari va ularni mamlakat iqtisodiyotiga tadbiq qilish yo’llari | 160 |
| 5 | Xudoyqudolov H.A. O‘zbekiston iqtisodiyotini izchil rivojla-nishida investitsiyalarni jalb qilinishining o‘rni va ahamiyati | 163 |

| 4-SEKSIYA MINTAQA IQTISODIYOTIDA YASHIL IQTISODIYOT RIVOJLANISHI HOLATINING EKONOMETRIK MODELLARI | | |
|---|---|---|
| 1 | O‘rozov A. O, Madaminov S. K. Iqtisodiyot sohasida ekonometrik tahlilni amalga oshirish zarurligi | 169 |
| 2 | Shamurotov S. B. Mintaqa agrar sektorida suv resurslaridan foydalanishni baholashning ekonometrik modellari | 172 |

| | | |
|---|---|---|
| 3 | Abdullayev O. G‘. Mintaqada xo‘jalik yurituvchi subyektlarni hududlararo klasterli boshqarish ekonometrik modellashtirish | 176 |

| 5-SEKSIYA YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING STRATEGIYALARI VA YO‘NALISHLARI | | |
|---|---|---|
| 1 | Рузметов Б, Ярматов Ш. Барқароривожланиш мақсадларида минтақада яшил иқтисодиётга ўтиш концепцияси | 182 |
| 2 | Исламутдинов В.Ф. Влияние цифровизации на развитие «зеленой» экономики в Республике Узбекистан | 187 |
| 3 | Олланазаров Б.Д., Каландаров Ф.С. Перспективы развития экотуризма в пользу “зеленой экономики” | 196 |
| 4 | Matyusupov B. Using the technology acceptance model in the analysis of the factors influencing smart tourism technologies (in the example of augmented reality) | 204 |
| 5 | Xasanova G. D. Atrof-muhitdagi favqulodda vaziyatlar: tavsifi, “yashil iqtisodiyot”ni rivojlantirishga ta’siri, himoya qilish usullari | 211 |
| 6 | Matniyozov M. R. Destinatsiya brendini targ’ib qilish asosida Xorazm turistik destinatsiyasini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari | 215 |
| 7 | Raximova Sh. X. Mintaqada yashil iqtisodiyotni ekologiyalashtirishning iqtisodiy mexanizmlari | 219 |
| 8 | Jabborov N, Ollanazarov M.B. Salbiy tashqi ta`sirlar oqibatlarini tartibga solishda «yashil iqtisodiyotdan» foydalanish yo`llari | 224 |
| 9 | Madrahimov Q. Минтақавий тузилмавий сиёсатни амалга ошириш ёндашувлари | 231 |
| 10 | Abdullayev F. Hududiy rivojlanish ko'rsatkichlarini hisoblashning o’ziga xos jihatlari | 237 |

# MINTAQADA YASHIL IQTISODIYOTNI SHAKILLANTIRISHNING TASHKILIY IQTISODIY MEXANIZMLARI




ISBN 978-9910-9170-1-1

Fly Polygraph
Guaranteed high quality

"FLY POLYGRAPH" MAS'ULIYATI
CHEKLANGAN JAMIYAT